

O'QITUVCHI NUTQ MADANIYATI

S.X.ISLIKOV
N.B.NURALIYEVA

O'QUV QO'LLANMA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ISLIKOV SAYID XALILOVICH
NURALIYEVA NARGIZA BOZORBOYEVNA**

O'QITUVCHI NUTQ MADANIYATI

**Oliy ta'lif universitetlari, sirtqi ta'lif shaklidagi
5110100-Matematika va informatika ta'lif yo'nalishi talabalari
uchun mo'ljallangan**

O'QUV QO'LLANMA

**"Ziyo nashr-matbaa" XK
GULISTON-2024**

UO‘K: 81.2-5:74ya73

KBK: 81'271:37.011.31-051(075.8)

I-80

S.X.Islikov, N.B.Nuraliyeva “O‘qituvchi nutq madaniyati” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma – Guliston / “Ziyo nashr matbaa” XK. 2024, 144-bet

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

D.E.Toshtemirov

Filaligiya fanlari falsafa doktori, dotsent.

A.B.Uralov

Ushbu o‘quv qo‘llanma GulDU Ilmiy-uslubiy Kengashining 2024 -yil,
27-fevraldagি, 7-sonli yig‘ilishida tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-792-15-1

© S.X.Islikov, N.B.Nuraliyeva

© “Ziyo nashr-matbaa” XK

Annotatsiya

Ushbu o‘quv qo‘llanma Sirtqi ta‘lim shakli, bakalavriat 5110100-Matematika va informatika ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada notiqlik tarixi, fanining maqsadi va vazifalari, mazmuni, mohiyati, rivojlanishi, bilish jarayonlari, ta‘lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishda o‘qituvchining nutqi holatlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Абстрактный

Настоящее учебное пособие предназначено для студентов экстерната обучения бакалавриата 5110100-Математика и информатика. В учебнике освещаются история публичного выступления, цели и задачи предмета, его содержание, сущность, развитие, познавательные процессы, а также ситуации речи учителя при правильной организации учебного процесса.

Abstract

This textbook is intended for students of external undergraduate study 5110100-Mathematics and Computer Science. The textbook covers the history of public speaking, the goals and objectives of the subject, its content, essence, development, cognitive processes, as well as situations of teacher speech during the proper organization of the educational process.

**TIL – SHUNCHA SHARAFI BILAN NUTQNING
QUROLIDIR. AGAR NUTQ NOMA‘QL BO‘LIB
CHIQSA – TILNING OFATIDIR**

ALISHER NAVOIY



KIRISH

Bugungi kunda nutq madaniyati insoniy madaniyatning asosiy ifodasidir. Ma‘naviyati yuqori bo‘lgan inson barkamolligi uning omilkorligi, bilimdonligi, donishmandligida namoyon bo‘ladi va unda albatta nutq madaniyati ham yuqori bo‘ladi. Til odobi ko‘nikmalarini, nutq madaniyati malakalarini egallash, adabiy til me’yorlariga amal qilish oliv ma‘lumotli shaxs uchun juda muhim.

Mazkur «O‘qituvchi nutqi madaniyati» fani Matematika, matematika informatika, filologiya, tarix, texnologiya ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning adabiy til me’yorlari doirasida nutq tuzish, mustaqil tarzda erkin fikrlash va o‘z fikrlarini madaniy tarzda ifodalay olishlariga erishish maqsadiga yo‘naltirilgan. O‘quv fani davomida notiqlik san’ati, uning tarixi, o‘ziga xos jihatlari, talablari kabilar haqida bahs yuritiladi. Madaniy nutqning mezonlari adabiy tilning turli funksional usslublari doirasida tahlil etiladi. Talabalarning turli usslublarda yozilgan matnlar ustida ishlashlari ularning nutqiy madaniyat borasidagi malakalarini oshirishga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri shakllantirishga mo‘ljallangan mavzular qamrab olingan. Mavzuni yetarlicha o‘zlashtirish maqsadida talabalarga mustaqil ishlar uchun turli materillar tavsiya qilingan. Har bir mavzu oxirida zarur adabiyotlar ro‘yxati berilgan. Shuningdek, talabalarning turli qo‘srimcha manbalardan, informatsion texnologiya vositalaridan foydalangan tarzda mavzuga oid yangi ma‘lumotlarni qidirib topishlari va ular ustida ishlashlariga e’tibor berilishi bugungi kun talablariga muvofiq keladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad talabalarda nutq madaniyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdan iborat. Chunki o‘qituvchi nutqi madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma‘naviy kamolotining muhim belgisi sanaladi.

I. MA‘RUZA MAVZULARI BO‘YICHA O‘QUV MATERIALI

1-MAVZU: O‘QITUVCHI NUTQ MADANIYATI FANINI UNING MAQSADI VA VAZIFASI

Asosiy savollar

1. O‘qituvchi nutq madaniyati fanining maqsadi, tekshirish ob’ekti, vazifalari.
2. Nutq madaniyati fanining hayotiy zarurligi.
- 3.O‘qituvchi nutq madaniyati fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

O‘qituvchining umummadaniy saviyasi, pedagogik nutq malakasi, nutq fazilatlari, notiqlik san’ati

Aql kaliti – til.

So‘zning piri – til.

Yuzning ko‘rki – ko‘z.

Tilning ko‘rki – so‘z.



Birinchi savolning bayoni.

Ona tilida puxta, lo“nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematik o“qituvchisi uchun ham, ona tili o“qituvchisi uhun ham birdek zaruriy fazilatdir. Nutqiy madaniyat haqida gap ketar ekan nutqning madaniyligi demakki ta’sir doirasi quvvatini ta’sir etadigan to“g“rilik, aniqlik, mantiqiylilik, ifodalilik, boylik, soflik, jo“yalik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu sifatlarning barchasini o“zida mujassam etgan nutq madaniy hisoblanadi. Nutq madaniyatidagi asosiy masala tildan maqsadga muvofiq foydalanishdir. Demak tilni qo“llashning real ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish bu sohaning muhim yo“nalishlaridan biridir. O“qituvchi nutqi adabiy talaffuz me“yorlariga amal qilishda o“quvchiga namuna bo“la olishi lozim. Adabiy talaffuz me“yorlarining buzilishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun o“qituvchi o“zi va o“quvchilarini nutqini shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamon qutilish oson kechmaydi. Buning oqibatida aytaylik buxorolik o“tovushini faqat til oldi tarzida, xorazmlik o tovushini asosan a tarzida yoki unga yaqin tarzda talaffuz qilishi, toshkentlik oshni – oshshi , yuzni-yuzzi,qorni-qorri tarzida aytlishi kabi ko“plab xatolar kelib chiqaveradi. Ba“zan boshqa tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so“zni boshqa til talaffuz tamoyiliga ko“ra moslab aytish nuqsoni ko“zga tashlanadi. Yanvar-yinvar, Yaponiya-yiponiya, dekan-de“kan, fakultetfakulitet. Yozma nutqni aynan harflab o“qish ham adabiy talaffuz me“yorlarining buzilishiga olib keladi.

O‘qituvchi nutq madaniyati asoslari kursining asosiy maqsadi o‘qituvchini umummadaniy saviyasini yuksaltirish, pedagogik nutqni shakllantirishdir.

Vazifikasi – talabalarda «madaniy nutq» malakasini shakllantirish, pedagogik nutqni o‘rganish, baholash va targ‘ib qilishdir.

O‘qituvchi nutq madaniyati – pedagogik nutqda til me’yorlarini (talaffuz, urg‘u, so‘z ishlatish) gap tuzish qonunlarini, til vositalaridan sharoitga mos va maqsadga muvofiq foydalana bilmoq madaniyatini egallamoqdir. O‘qituvchi nutq madaniyati deyilganda, nutqning fazilatlari, ya‘ni uning to‘g‘riliqi, aniqligi, mantiqiyligi, ifodaliligi, boyligi, tozaligi tushuniladi. O‘qituvchi nutq

madaniyatining asosiy tekshirish ob'ekti uning nutqida adabiy til me'yordari, asosiy vazifasi esa ushbu me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etishdir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lган siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, balki respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga muvofiqli. Jumladan, o'qituvchining nutqi uning asosiy quroli hisoblanadi.

Dunyoda turli-tuman kasblar, biri-biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o'ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan, dehqonning asosiy quroli ketmon, duradgorniki tesha jarrohniki - tig', tikuvchiniki — igna. Dehqon ketmoni bilan taqir erda betakror bog' barpo qiladi, go'zallik yaratadi yoki tajriba-mahorati etarli bo'lmasa, ernenig umriga zomin bo'ladi. Ketmon o'tkir bo'lmasa, dehqonning o'zi ketmon urish hadisini olmagan bo'lsa, oltin tuproqning ham, xomtama dehqonning ham holiga maymunlar yig'lashi aniq. Faoliyatining asosiy quroli til bo'lган kasblar ham borki, ularning boshida o'qituvchilik turadi. Qaysi fan mutaxassis bo'lishidan qat'i nazar, o'qituvchi tildan mohirona foydalanish hadisini olmagan, demakki, chinakam madaniy nutq malakasini egallamagan bo'lsa, darsdagi nutqi o'tmas, nochor va rangsiz bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, qirq besh daqiqalik fursat uning o'zi uchun ham, o'quvchi sho'rlik uchun ham benihoya og'ir azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq to'za olish malakasi va maho-rati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchi-si uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zni ham, so'zni ham qiynamaydigan, ravon va ohorli ifo-dalarga boy nutqi bilan o'quvchilarni maxdiyo etib, materialni bayon qilmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchining raso madaniy nutqi o'quvchida havas va hayrat uyg'otishi, unga namuna bo'lishi, ayni paytda bu nutq mavzuning o'quvchi tomonidan oson o'zlashtirilishi uchun eng qulay vosita vazifasini bajarishi kerak.

Nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan mактабдаги, hech bir istisnosiz, barcha o‘quv fanлari bilvosita yoki bevosa shug‘ullanishi zarur. Matematika bo‘ладими, fizika yoki tarix bo‘ладими, o‘qituvchi o‘z nutqiy mahorati bilan ibrat ko‘rsatishi, hatto tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo‘l bilan o‘quvchidagi so‘z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq.

Ta‘lim amaliyotida ko‘rgazmalilik azaldan eng muhim omil sifatida qo‘llanib kelinadi, shuning uchun o‘qituvchi juda ko‘p vaqtini turli ko‘rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Ammo unutmaslik kerakki, nutqiy madatsiyatni o‘rgatish, chiroyli so‘z zavqini o‘stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko‘rgazmali qurol o‘qituvchining o‘zidir. Nutq madaniyati haqida gap ketar ekan, avvalo, til va nutq tushunchalarining mohiyatini farklab olish lozim.

Til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ammo ayni paytda bir-birida farkdanishi kerak bo‘lgan hodisalardir. Tilsiz nutqning, nutqsiz tilning mavjud bo‘lishi mumkin emas. O‘zbek adabiy tilining asoschisi ulug‘ Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida so‘zning sharaфli sifatlari haqida so‘zlash asnosida til va nutq munosabati xususida quyidagi nazariy fikrni bayon qiladi: “Til mucha sharaf bila nutqning olami (quroli) dur va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur”. Demakki, til nutq uchun qurol, bu quroldan foydalanib nutq to‘ziladi, napisandliq e’tiborsizlik qilinsa, nutq maqbul bo‘lmaydi va bu tilning ofati bo‘ladi. Til va nutqning bir-biri bilan bog‘liqligi, biri ikinchisiga hamisha ta‘sir etishini til qonuniyatlarini teran bilgan bobomiz Navoiy aniq seзган.

Evropa tilshunosligida til va nutqni farqlash zaruriyatini asoslash, til va nutq tushunchalarin mohiyatini belgilash, bu ikki hodisaga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq et avvalo, mashhur shveytsar tilshunosi Ferdinand de Sossyur nomi bilan bog‘likdir. Uningcha, tushunchasi nutqiy faoliyat tushunchasi bilan teng emas; til- nutqiy faoliyatning muayyan albatta, eng muhim qismi”, til so‘zlovchining faoliyati emas, u tayyor mahsulot, ijtimoiy hod nutq esa individual faoliyat, so‘zlovchining o‘z fikrini ifodalash maqsadida til belgilari foydalangan holda reallashtirgan kombinatsiyasi mahsulidir. Til shu qadar mutlaqo o‘ziga narsaki, so‘zlash qobilyatini yo‘qotgan odam ham tilni saqlaydi,

ya‘ni u eshitadigan til belgila bemalol tushunaveradi. Uning ongida til yaxlitligicha turaveradi, shu tilda o‘ylayveradi, fa nutqni reallashtirish uchun nutq organlarining tegishli harakati yo‘qolgan bo‘ladi, F.Sossyurning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: Nutqiy faoliyatni o‘rganish qismiga bo‘linadi; ulardan birining, asosiysining o‘rganish predmeti tildir, ya‘ni mohiyatan timoiy va individga bog‘liq bo‘lmagan narsadir; bu sof psixik fan; boshqasining, ikkin darajalisining o‘rganish predmeti nutqiy faoliyatning individual tomonlari, ya‘ni nutq (fonats tovush chiqarish bilan birga); bu fan psixofizikdir.

Shubhasizki, **bu ikki predmet (ob’ekt)** bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va biri ikkinchi taqozo etadi: til nutq tushunarli va shu asosda foydali bo‘lishi uchun zarur; nutq o‘z navba tilning shakllanishi uchun zarur; tarixan nutq fakti hamisha tildan oldindir. Agar tushuncha-n so‘zli (fonetik) obraz bilan assotsiatsiyasi oldindan nutq aktida voqe bo‘lmagan bo‘lsa, bun assotsiatsiya qanday qilib mumkin bo‘la oladi? Boshqa tomondan qaraganda, faqat boshqal eshitib, biz o‘z ona tilimizni o‘rganamiz; sanoqsiz tajribalar natijasidagina til bizning ongimi saqlanib qoladi. Nihoyat, tilning taraqqiyoti aynan nutq hodisalari bilan bog‘liq: bizning ko‘nikmalarimiz boshqalarni eshitganda taassurotlarga bog‘liq holatdao‘zgar Shunday qilib, til va nutq o‘rtasida bir-biriga bog‘liqlik o‘rtaga chiqadi: til bir paytning o‘z nutqning ham quroli, ham mahsulidir. Ammo bularning barchasi til va nutqning mutlaqo fa narsalar bo‘lishiga monelik qilmaydi. Ko‘rinadiki, til tunganmas imkoniyat, nutq esa ayni imkoniyatning real voqelanishidir. F.De Sossyur til—nutq shaxmat o‘qidalarini misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi. Haqiqatan ham, shaxmat taxtasidagi katak teng holatda ikki xil rangda ikki guruhga o‘ttiz ikkitadan ajratilib, qarama-qarshi qo‘yil har ikki guruhdagi donalar vazifa va qiymat jihatidan bir-biriga teng, donalarning o‘ziga joyla-shish tartibi va yurish qoidalari bir xil. Shaxmat o‘yini qoidalari o‘yinchilar uchun majbu avvaldan ma‘lum bo‘lib, ular doimo o‘yinchilar xotirasida saklanadi. Har ikki o‘yin-chi bir imkoniyatga ega bo‘lib, shaxmat o‘yini qoidalariiga bir xil bo‘ysunsa ham, o‘yinchilarn o‘zlari

imkoniyatlardan foydalanish mahoratiga ko‘ra biri kuchli, biri kuchsiz mavqeda bo‘l Qaysi shaxmatchi imkoniyatlarni o‘z maqsadi yo‘liga izchillik bilan bo‘ysundira olsa, u imkoniyatlardan foydalana olmagan raqibini engadi. Usta shaxmatchi mavjud imkoniyatl qanchalik mahorat bilan ishga solsa, ziyrak nutq to‘zuvchi ham tildagi behisob if imkoniyatlaridan o‘z maqsadiga eng maqbullarini tanlaydi. Qiyoqning mohiyati shuki, shax donalari va bu donalar-ning harakati qoidalari til, bu donalar va mavjud qoidalardan foydala to‘zilgan konkret shaxmat kombinatsiyasi nutqdir.

Tilshunoslikda ko‘pincha til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalari farqlanadi, ba‘zan har ikkisi o‘rnida birligina yo til madaniyati, yo nutq madaniyati termini qo‘llan Hamonki, til va nutq hodisalarini farqlash zarur ekan, ular chindan ham alohida-aloh hodisalar ekan, albatta, til madaniyati va nutq madaniyatini ham farqlash maqsadga muvofiq. va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelibn chiqadigan bo‘lsak til madaniyati tiln madaniylashganlik, adabiylashganlik normalashganlik darajasini, lug‘at tarkibi, gramm semantiq stilistik jihatlardan rivojlanganliq boylik darajasini, potentsial ifoda imkoniyatlarin ko‘lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga o‘ta muvofiq ta‘sirchan bir tarzda foydalana olishni ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning berish demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potentsial mavjud bo‘lgan xilma-xil if shakllaridan fikr uchun eng uyg‘unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq to‘za mahoratidir. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qadimgi davrlardan beri ma‘lum, u kish o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ehtiyojiga ko‘ra yo‘zaga kelgan. Tabiiyki, tilning eng birinchi, balki b vazifasi uning kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lishidir. Shuni ham alohida aytmoq joi tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va maz tanosibi tarang hodisa kamdan-kam topiladi. Tilni madaniyat ko‘zgusi deb hisoblagan ato olmon olimi Vilgelm fon Gumboldning ushbu gaplari til hodisasining mohiyatini yaqinroq anglashga imkon beradi: Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turli tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko‘rishning farkliligi natijasidir.

Haqiqatan ham har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umuman, o‘ziga tafakkur tamoyili bor. Govard Brabinning Ona va miya. Yapon olimining g‘aroyib kashfiyoti” nomli maqolasida bayon qilinishicha, Tokio versitetining tibbiyat professori Tadanobu Tsunoda 1981-yilda YuNESKOning Afinada o‘t simpoziumida o‘zining 15 yillik tajriba-tadqiqotlari haqida axborot bergen. Professor Tsunoda eksperimentiga yaponiyalik va g‘arblik (frantso‘z, ingliz, nemis va h.k.) kishilarni jalb qil Olim ularga inson ovozi, hayvonlar, hasharotlar tovushi, turli fizik tovushlar, yapon va g‘ musiqa asboblari tovushlarini eshittiradi va tegishli apparatlardan foyda-langan holda ularni miyalidagi markazlarning reaktsiyasini qayd etib boradi. Ma‘lum bo‘ladiki, yapon va g‘ar kishilarning bosh miya yarim sharlidagi markazlar vazifalarining taqsimlanishida farq mav ekan. Yapon kishisi miyasidagi muayyan bir markaz bilan qabul qiladigan tovushni g‘arb kis boshqa bir markaz orqali qabul qilar ekan. Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bog‘liq y bog‘liq emasligini aniklash maqsadida 20 ta yapon emigrantining bolalari ishtirok eksperimentini yana davom ettiradi. Natija shuni ko‘rsatadiki, bu farq genetik emas, balki ona muhiti bilan aloqador ekan. Ana shularga asoslanib, professor Tsunoda quyidagicha xul chiqaradi: Men insonning o‘z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o‘zlashtirishi tushunishini ona tili differentsiatsiya qiladi deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emotsiy mexanizmning rivojlanishi bilan o‘zviy bog‘liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir et guruhnинг o‘ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarc bog‘likdir deb o‘ylayman.

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to‘plash, saqlash va keyingi avlodla etkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriylarini voqelantirish kabi qancha vazifalarni bajaradi.

Sun tillarda bir tushuncha faqat bir so‘z bilan ifodalanadi, grammatik qoidalar qat’iy, ifodalar ma‘noli, variantdorlik yo‘q, bir ma‘noli modellar hukmron, demakki, ifoda tanlash imkonи mavjud emas. Shuning uchun ham sun’iy tillarda til (nutq) madaniyati muammosiga hech ehtiyoj yo‘q. Tabiiy

tillarda (ayniqsa, rivojlangan tillarda) esa ana shunday ifoda tanl imkoniyatlarining cheksiz-chegarsizligi tilning o‘ziga xos tamalidagi haqiqatdir. Agar tabiiy ham sun’iy tillar kabi faqat aloqa vositasigina bo‘lganda edi, u juda jo‘i, soddd va shunchaki narsaga aylangan bo‘lardi. Holbuki, odamlar til vositasida tuyg‘u va kechinmalari, quvonch qayg‘ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi ho‘zurlari kabi xilma-xil sezgilarini h ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutmaydi. Demakki bemisl boy, sehru sinoatga, ruhu ruhoniyatga, ko‘rku komillikka limmo-lim bir xilqatdir. Alba tilning sanab o‘tilgan vazifalari uning bosh vazifasi (aloqa vositasi bo‘lishi) bilan bir qator uning asosida voqe bo‘ladi.

Atoqli tilshunos A. Rustamiy tilning vazifalari haqida gapirar ekan, shunday xususlarga aloh urg‘u beradi: Til tufayli jamiyat a‘zolarining har birida hosil bo‘lgan tajriba-bilimlar ommalash va ular ko‘pchilik tomonidan rivojlantiriladi. Til tufayli bilim avloddan avlodga og‘zaki y yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning izlanishlarini yangidan bosh o‘tirmaydi, uni davom ettiradi. Til tufayli biz sezgi o‘zvlari bi-lan bilib bo‘lmaydigan narsal ham o‘rganamiz.

Tilning muhim vazifalaridan yana biri uning go‘zallikni ifodalashi, ya‘ni estetik vazifasi Tildagi badiiy imkoniyatlarning cheksizligi, bu imkoniyatlar ham moddiy va ham ma‘na olamlarni qamrab olishini ta‘kidlab, A. Rustamiy shunday yozadi: Tilning o‘zidan h go‘zallik moddasi sifatida, xususan, qalamu so‘z ahli va umuman xalq foydalanadi. Chunki til e hodisalardan bo‘lib, unda go‘zallik uchun zarur bo‘lgan hamma sifatlar mavjuddir. Birinchid til tabiat va insondagi mavjud go‘zallikni aks ettirish vositasi bo‘lsa, ikkinchidan, tilning go‘zallikni vujudga keltiradi. Shoir va yozuvchilar hamda oddiy xalq orasidagi ming chechanlar tilning mazkur har ikki jihatining biridan yoki har ikkisidan birdek foydalanadilar shu bilan o‘quvchi yoki tinglovchiga rohat bag‘ishlaydilar. Biz tilga go‘zallik javhari sifa nazar soladigan bo‘lsaq uning kishini hayratga soladigan darajada etukligi bor. Qaysi bir olmang, undagi tovushlar yo‘zga etaaydi. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘ttiz b tovush bor. Mana shu

qadar ozgina tovushdan o‘zbek tili tarixida milliondan ortiq so‘z yasal va bu so‘z yasalishi kerak bo‘lgan takdirda cheksiz davom etishi mumkin. Bu cheksiz imkon dunyodagi hamma tillarga xos.Tiliing mana shu etukligi uning o‘zining go‘zalligini va un foydalanuvchining, ya‘ni so‘zlovchining yoki yozuvchining mahoratini ta‘minlaydi”.

Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy dahosining mahsuli bo‘lmish nafis s san’ati durdonalari behisob. Ularning allaqanchasi turkey tafakkur teranligi va taxay bepoyonligining muhtasham obidalari o‘laroq jahon badiiyati ganjinasining to‘rida qo‘r to‘ turibdi. Tilimiz inja ifoda imkoniyatlariga benihoya boy va shunga ko‘ra beqiyos daraj betakrordir. Mumtoz va bugungi adabiy asarlarni o‘qirkannamiz, xalq og‘zaki ijodi namu-na bilan tanisharkanmiz yoki turli so‘z o‘yinlarini, o‘tkir va nozik askiyalarni tinglarkanmiz, od odam nutqida topib aytilgan so‘z yoki iboraning guvohi bo‘larkanmiz, tilimizning tovlanishlaridan, nafosatidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz. Bu o‘rinda yana sh ham aytish joizki, u yoki bu tilni go‘zal yoki “Xunuk” (go‘zal emas) deyish mantiqan to‘la bo‘lmaydi. Alohida olingan til chirolyi ham, xunuk ham bo‘lolmasligi tabiiy. Bu munosabat bilan taniqli rus tilshunosi R.A.Budagovniig quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Aslida tillar, avv ko‘p rivojlangan va kam rivojlangan, juda boy va biroz boy, qadim yozuv an’anasiga suyan va bunday an’anaga mutlaqo ega emas bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi u yoki bu tiln potentsial estetik imkoniyatlarida turlicha aks etadi. Ikkinchidan, tillar, ayniqsa, adabiy ti o‘zicha chirolyi ham, xunuk ham bo‘lmasada, aloqa (kommunikatsiya) jarayonida, xususan, a bu tillardan faqat nimani gapirayotganiga emas, balki qanday gapirayotganiga ham bef bo‘lмаган odamlar foydalanayotgan bo‘lsa, qo‘srimcha estetik vazifani olish qobiliyatiga ega

Tabiiyki, o‘zbek adabiy tili ana shunday asrlar osha rivoju sayqal topgan, behad qadim yo an’anasiga sohib, ming yillik yozma yodgorliklarida yashab kelayotgan juda boy tildir. Shun uchun ham tilimiz go‘zal nutq to‘zish uchun potentsial imkoniyatlari tunganmas tengsiz xazinad Tilning estetik vazifasi, albatta,

nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi, go'zalligini ta'minlas favqulodda muhim ahamiyatga molikdir. Ammo, aytib o'tilganiday, bu vazifa kommunik vazifa bilan birga voqe bo'ladi.

Til estetikasini o'rganishga bo'lgan qiziqish o'tgan asrning boshlarida bir qator chet el filologl faylasuflari, yozuvchilarida paydo bo'lgan. Til estetikasi muammosini birinchilardan bo o'rgangan olim sifatida ko'pincha italyan faylasufi va siyosiy arbobi Benedetto Kroche (18 1952) tilga olinadi va uning 1902 yilda e'lon qilingan "Esteti-ka ifodalash haqidagi fan sifatida umumiy tilshunoslik sifatida" nomli kitobidagi 2 asosiy fikrga e'tibor qaratiladi. Unazariy jihatdan tilshunoslikni estetika bilan aynan tenglashtiradi, ya'ni go'yoki tilning asosiy vazi kishilarning muloqotini ta'minlash emas, balki estetik omil asosidagi o'zlikni ifodalashdan iboratdir. Aalohida individual udumlarning ijodi, shuning uchun odam har bir so'z va har bir gapga betak mazmun yuklaydi. Dantening "Ilohiy komediysi"dagi qahramon muhabbat (atoge) so'zini necha marta ketma-ket takrorlarkan, uningcha, bu so'zni kitobxon har safar yangi ma'noli ya so'z sifatida qabul qiladi. Fosslerning qanoaticha, so'z va gapning estetik bo'yog'i betakrordi ana shu estetik bo'yoq tilda etakchi vazifani bajaradi. Albatta, ana shu estetik bo'yoq, dema tilning estetik vazifasi reallashar ekan, nutq yoki matn to'zishdan ko'zlangan maqsadga oso bilan erishish imkoniyati ortadi. Zotan, o'quvchi yoki tinglovchi yozuvchi yoki so'zlovchin gapiga ishonishi, bu gap esa ishontirishi, ta'sir kuchiga ega bo'lishi lozim.

Dunyo filologiya ilmida tilning estetik vazifasiga qanday maqom, mavqe berilishidan, un birlamchimi, ikkilamchimi ekanligidan qat'i nazar, bu vazifa bor va u tilning eng zaru jihatlaridan bir sifatida yashaydi. Ta-biiyki, buni inkor etib bo'lmaydi.

Ko'pincha tilning estetik vazifasi faqat badiiy adabiyot tiligagina nisbat bergen holda tal etiladi. Ta'kidlash mumkinki, estetik vazifasidan ayrilgan adabiy o'zining ulkan ifoda imkoniyatlaridan teng yarmiga ayrıldi. U qashshoq, tussiz va g'arib bo qoladi. Boshqacha qilib aytganda, nutqning tom ma'nodagi sifati, ta'sir etish, yuqish y yuqtirish salohiyati xuddi shu estetik vazifa bilan

chambarchas bog‘likdir. Shuning uchun h qaysi uslubdagi nutq bo‘lishidan qat’i nazar, albatta, unda tilning estetik vazifasi ishtirok etgan. Badiiy adabiyot uslubini ham, ilmiy y boshqa uslublarni ham til estetikasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Fikrni qanday ifodalashga e’ti bor joyda, albatta, til estetikasi o‘rtaga chiqadi, lekin, aytayliq badiiy adabiyotda u bor bo‘yi bi namoyon bo‘lsa, boshqa bir uslubda ikkinchi planda bo‘lishi mumkin.

Aytish lozimki, nutq madaniyatini kommunikativ vazifa bilan bir qatorda estetik vazif tasavvur etib bo‘lmaydi. Ko‘rinadiki, madaniy nutq to‘zish maqsadi o‘rtaga qo‘yilar ek hamisha til va nutq estetikasi e’tiborda bo‘lishi shart. Til (nutq) estetikasini nutq madaniyati aslo ajratib bo‘lmaydi.

Nutqning madaniyligini, demakki, ta‘sir quvvatini ta‘min etadigan to‘g‘riliq anikdiq mantiqi ifodaliliq boyliq sofliq jo‘yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud (ular haq keyinroq batafsil to‘xtalinadi). Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘z mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Tilshunoslikda nutq madaniyati termini, asos ikki xil ma‘noda qo‘llanadi, ya‘ni:

- 1) Tildan bemalol, maqsadga va nutqiy va-ziyatga muv tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilis ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami;
- 2) Tilshunoslikning tildan maqsadga nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatlarni mujassamlashti qoidalarini ilmiy asosda o‘rganish va belgilash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi.

Nutqning kommunikativ sifatlari nafaqat aloqani ta‘minlash, balki tinglovchi yoki o‘quvch nutqiy ta‘sirni kuchaytirishga xizmat kiladi. Shuning uchun ham kommunikativ va estetik ta maqsadida to‘zilgan nutq(matn)ni Nutq madaniyati kursining predmeti deyish mumkin.

Nutqning to‘g‘riliqi, ya‘ni uning adabiy til me’yorlari (talaffo‘z, so‘z yasalishi, leksiq morfolo sintaktiq uslubiy me’yorlar)ga qat’iy mosligi madaniy nutqning asosiy, markaziy sifatidir. Am har qanday to‘g‘ri nutq madaniy bo‘lavermaydi, u mazkur boshqa kommunikativ sifat-larga h ega bo‘lgandagina chin ma‘nodagi madaniy nutq maqomini olishi mumkin. To‘g‘ri nutq hozirgi

adabiy til me'yorlariga rioya qilib to'zilgan nutqqa aytildi. Til me'yorlari — bu ijtim nutqiy amaliyot tomonidan qabul qilingan talaffo'z, grammatika va so'z qo'llash qoidalaridir. Ammo yuksak n madaniyati faqatgina til me'yorlariga amal qilish-dangina iborat emas. U ayni paytda o'z fik ifodalashning nafaqat aniq vositasini, balki eng ommabop (ya'ni eng ta'sirchan) va jo'yali (ya ayni vaziyat uchun eng muvofiq va, demakki, uslub nuqtai nazaridan o'rniga tushgan) vositala ham topa olish mahoratini ham o'z ichiga oladi. Nutqning to'g'riliqi uning markazi si bo'lsada, nutqiy madaniyatni mazkur sifatning bir o'zi bilan ta'minlash aslo mumkin em Shubhasizki, har qanday to'g'ri nutq ham aniq yoki jo'yali, sof yoki boy bo'lmaydi, umum etarli ta'sirchanlik quvvatiga sohib bo'la olmaydi. Shuning uchun ham nutq madani muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullangan bir qator tilshunoslar nutq madaniyatining bosqichini farqlash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar. Bizda to'g'ri nutq malaka shakllantirish ko'zda tutadi. Adabiy tilni egallashning ikkinchi, yuqori bosqichi haqiqiy ma'nod nutq madaniyatidir. Nutq madaniyati haqida adabiy tilga sohiblik sharoitida, to'g'rilik (ya adabiy me'yorlarni bilish) sharoitida gapirish mumkin. Variantlarni nutq madaniyati sathid baholash boshqacha: yaxshiroq - yomonroq, aniqroq, jo'yaliroq. Tabiiyki, nutq madaniyatini birinchi bosqichisiz ikkinchi bosqichi ham mavjud bo'la olmaydi, to'g'rilik sifatiga bo'limgan nutq, ya'ni noto'g'ri nutqda boshqa biron kommunikativ sifat bo'lishi mantik tashqaridir.

Nutqning to'g'riliqi uning adabiy til me'yorlariga to'la mosligi sifatida talqin etilar ekan, me'yorlarning ikki xilini farkdash o'rinnlidir. Tilshunoslikda adabiy til me'rlarining kuchli kuchsiz tiplari ajratib ko'rsatiladi.

Nutq madaniyatining birinchi bosqichida, ya'ni to'g'ri nutq to'zish malakasini shakllantiris asosiy diqqat e'tibor adabiy tilning kuchsiz me'yorlariga qaratilishi maqsadga muvofiq, chu nutq amaliyotida kuchli me'yorlar deyarli bo'zilmaydi, kuchsiz me'yorlar esa nutq to'zuvchin ikkilanishiga va demaq nutq to'g'rilingining bo'zilishiga ko'proq yo'l ochadi. Masalan, ega kesimning shaxs va sonda moslashuvi kuchli sintaktik me'yor bo'lib, u bolalikdanoq ongidan

mustahkam o‘rin olgan. Shuning uchun bu me’yorni qo‘llashda biron kishi adashib, kelding shaklida jumla to‘zmaydi. Qaratqich va tushum kelishiklarining qo‘llanishi bilan bog me’yorlar esa kuchsiz me’yorlarga misol bo‘la oladi. Shuning uchun bu me’yorlar chuqur o‘rgatilmasa, odam adashib, uing o‘rnida -ni qo‘srimchasini ishlatib, noto‘g‘ri birikma tuzishi mumkin.

Har qanday ta‘limning asosiy va etakchi shakli darsdir, shun uchun ham pedagogika fani uning samaradorligini oshirishning yo‘llarini tinimsiz izlaydi, xil xil metodlar, usullar, vositalar ishlab chiqadi. Kunimizda ham ta‘limga yangidan-yangi pedago texnologiyalar, zamonaviy texnik vositalar muntazam va jadal joriy etilmokda. Ammo deyiladigan murakkab jarayonning mukammalligi hamda natijadorligini ta‘minlas o‘qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatlari ko‘zgusi bo‘lmish uni favqulodda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining mahorati faqat o‘qitishning xilma-xil metodla o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olishidangina iborat emas, balki o‘quvchi bilan muloqotidagi aso quroli — tildan ustalik bilan foydalana bilishi bilan ham belgilanadi. Ta‘sirchan nutqi bi o‘quvchi diqqatini butun dars davomida tutib tura olmasa, o‘qituvchining pedagogik maho haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Darsning mazmuni va samaradorligi o‘qituvchi nutqin ta‘sirchanligi, umuman, madaniy bo‘lishi bilan bevosita aloqadordir. Agar o‘quvchi o‘qituv nutqida noizchilliq tussizliq qashshoqliq mantiqsizliq noaniqliq uslubiy g‘alizliq gramm yanglishlik kabi nuq-sonlardan loaqlal birortasini sezsa, uning diqqati bo‘linadi, bazan qilinayotgan materialga bo‘lgan qiziqishi susayadi. Qolaversa, material bunday no‘noq nutq bi bayon qilinganda, tabiiyki, o‘quvchi uni qabul qilishda zo‘rlanadi, darsdan ko‘zlangan samar erishish mushqo‘lashadi. Nutq texnikasi bilan bog‘liq kamchiliklar (ayrim tovushlarni talaff qilolmaslik yoki yanglish talaffo‘z qilish, ovozning ortiqcha balandligi yoki pastligi, otembridagi sifatsizliq shang‘illagan yoki hirqiragan bo‘lishi, jumlada so‘zlararo pao‘za bolmasliq nutq jarayonida to‘g‘ri nafas ola bilmaslik va sh.k.) ham dars samaradorligiga oldi ko‘rsatilgan nuqsonlardan kam salbiy ta‘sir qilmaydi. O‘qituvchi nutq madaniyatini nafaqat puxta egallagan bo‘lmog‘i, balki o‘quvchilarini ham unga odatlantirmog‘i kerak.

O‘qituvchi nutqi madaniyati kursining asosiy vazifalari talabalarni nutq madaniyatining tushunchalari bilan tanishtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda til vositalari va ifoda imkoniyatlari kommunikativ va estetik maqsad hamda nutq vaziyatiga o‘ta muvofiq tarzda foydalana o malakalarini, nutqning barcha kommunikativ sifatlari mohiyati bilan oshno etgan holda bun sifatlarga ega nutq to‘zish mahoratini shakllantirish, og‘zaki madaniy nutqning muhim o‘qituvchi bo‘lmish nutq texnikasini yaxshilash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni yo‘zuvga keltirishdan iborat. Nozik til sezgisi, tilimizning benihoya boy an’analari va ifoda imkoniyatlaridan xabardorl tamoman to‘q va ta‘sirchan nutqi bilan o‘quvchi qulog‘ini emas, balki qalbu shuo‘rini zabit etib uning aqliy va ma‘naviy dunyosini kengaytirishga bel bog‘lagan o‘qituvchi buguni kun o‘qituvchisidir.

Ikkinchi asosiy savolning bayoni:

Nutq madaniyati tilshunoslikning keng qamrovli sohalaridan biri sanaladi. Bu soha insoniyat aqliy va nutqiy salohiyatining taraqqiy darajasini ko‘rsatib turgan va doimiy rivojlanishni taqozo etuvchi sohalardan biridir. Zero, til kishilarga doimo o‘zaro aloqa munosabati, madaniy-ma‘naviy zaruriyat, ijtimoiy taraqqiyot, kurashish qurol bo‘lib xizmat qilgan. Mana shu qator vazifalarni bajaruvchi til egalarining nutq irod etish imkoniyatlari, til birliklaridan qay tarzda foydalanish chegaralarini ma‘lum bir me’yorga solish ehtiyoji asosida ilmiy negizga ega bo‘lgan mazkur soha vujudga kelgan. Til qanchalar rivojlangan bo‘lmasin, insonlar tomonidan ma‘lum me’yorlar va talablarga asoslangan nutqiy madaniyat bir xil darajada rivojlangan bo‘ladi deyish doimo ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Shu sababli ham nutq madaniyati sohasi doimiy e’tibor va rivojlanish sari harakatlarni talab qiladi.

Nutq madaniyati ijtimoiy fan sifatida keng ma‘nodagi til tarbiyasini va ommaviy uslubiy savodlilikni, boshqacha aytganda, so‘zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

Nutq madaniyati insoniy madaniyatning asosiy ifodasisidir. Ma‘naviyati yuqori bo‘lgan inson barkamolligi uning omilkorligi, bilimdonligi, donishmandligida

namoyon bo‘ladi va unda albatta nutq madaniyati ham yuqori bo‘ladi. Til odobi ko‘nikmalarini, nutq madaniyati malakalarini egallah, adabiy til me’yorlariga amal qilish oliy ma‘lumotli shaxs uchun juda muhim. Shu sababli ham mazkur o‘quv kursimiz bir qator maqsad va vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi. Belgilangan vazifalar doirasida quyidagi masalalarga e’tibor qaratamiz:

- ✓ til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalarining farqlihamda aloqador jihatlarini o‘rganish;
- ✓ til taraqqiyoti va nutq madaniyatining bog‘liq jihatlarinio‘rganish;
- ✓ masalaga ilmiy yondashuvni shakllantirish;
- ✓ nutq madaniyati tushunchasining lingvistik va nolinguistiksohalar bilan aloqadorligini tahlil qilish;
- ✓ nutq madaniyati va notiqlik san’atining o‘zaro bog‘liqjihatlari;
- ✓ notiqlik turlari va nutq ko‘rinishlari;
- ✓ adabiy tilning normativligi va nutq madaniyati;
- ✓ madaniy nutq mezonlarini o‘rganish;
- ✓ nutqning ifodaliligi va nutq texnikasi;
- ✓ nutq madaniyatini egallah yo‘llari;
- ✓ nutq madaniyati va stilistika masalalari;
- ✓ pedagog nutqining o‘ziga xos jihatlari va boshqalar.

Nutq madaniyati lingvistik soha hisoblanadi va u tilning turli sathlarini o‘rganuvchi fanning barcha tarmoqlari bilan uzviy aloqadordir. U fonetika to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga oid orfoepik qoidalarni bilishni, leksik imkoniyatlar doirasining kengligini, semantik, morfologik bilimlarning mukammalligini, sintaktik konstruksiyalarning me’yoriy holatlarini egallahni taqozo etadi. Umumiylar tarzda aytildigan bo‘lsa, nutq madaniyati soxasi adabiy til doirasida fonetikadan tortib to uslubiyatgacha bo‘lgan barcha lingvistik sohalarni qamrab oladi. Ilmiy jihatdan asoslangan nutqning o‘ziga xos jihatlari mavjudligi va u qaysi fan sohasida bo‘lishidan qat’i nazar ma‘lum me’yorlarga bo‘ysunishi kerakligi nutq madaniyatining boshqa nolinguistik sohalar bilan aloqadorligini ko‘rsatuvchi omillardan sanaladi. Chunki nutq madaniyati bu eng avvalo,

nutqning to‘g‘riliqi demakdir, ya‘ni yaxshi nutq noaniqlikka, uzundan uzoq jumjalarga qarshi bo‘lishi, qisqalik va aniqlik uning o‘lchovi bo‘lishi lozim. Har qanday ilmiy nutq uchun bu mezonlar asosiy talablar hisblanishini bilamiz. Keng ma‘noda esa nutq madaniyati nutqiy ta‘sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o‘tkirlik va ifodalilikni bildiradi. Bu jihatdan istalgan soha vakili og‘zaki nutqining madaniy me’yorlarga asoslanishi, ma‘lum normalarga bo‘ysunish zarurati muhimki, bu holat har qanday notiqning madaniyati va saviyasini ko‘rsatuvchi jihatlar sanaladi.

Nutq madaniyati muammolari bilan shug‘ullanish birinchi marta Praga lingvistik to‘garagi tomonidan o‘rtaga qo‘yilgan edi. Keyinchalik bu masalani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o‘rganishga rus tilshunosligida o‘tgan asrning 20-30-yillaridakirishilgan. Bu masala bilan jiddiy shug‘ullanishga o‘zbek tilshunosligida 90-yillarda kirishildi. Qolaversa, 20-30-yillarda til qurilish, til siyosati degan nomlar bilan yuritilgan barcha millat va xalq tillari rivojiga bevosita tatbiq etilgan ulkan tadbir va choralarning o‘sha vaqtida til madaniyati, endilikda nutq madaniyati deb yuritilayotgan muammoga qanchalik aloqadorligini belgilash nihoyatda muhimdir.

Shu o‘rinda til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalariga aniqlik kiritish lozim. B.N.Golovin universitetlar uchun yozgan “Nutq madaniyati asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida nutq madaniyatini tushunishning muhim shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tadi: til va nutqni farqlash, til normasini anglash va hal qilish, til uslubi va nutqning uslublarini farqlash. Til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o‘zini, masalan, o‘zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini “Madaniylashtirishni” ko‘zda tutadi. Demak, til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik darajasini, ya‘ni uning qanchalik ishlanganligi, normalashtirilganini ko‘rsatadi. Garchi “Til madaniyati” va “Nutq madaniyati” tushunchalari tilshunoslikning termini sifatida bir-biridan farqlansalar ham, aslida ularning birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalardir. Nutq madaniyati aniq ma‘noda til

birliklarini nutq jarayonida qo'llashning me'yori, maqsadga muvofiqligini anglatsa ham, umumiy ma'noda ma'lum millatning umumtil madaniyati doirasida qaraladi. U lisoniy va nolisoniy omillarni o'z ichiga oladigan murakkab jarayon bo'lib, u mantiqshunoslik, ruhshunoslik, pedagogik, etika, estetika masalalari bilan ham bog'liq. Ammo, nutq uchun tilning birinchi o'rinda turishini hech kim inkor etmaydi. «Har bir til unda gaplashadigan millatning madaniyatini o'zida o'zida aks ettiradi» (L.V.Shcherba).

Nutq madaniyatida mazkur masalaga oid bir qator maqolalar, risolalar yozilgan bo'lib, ularda nutq madaniyatining ba'zi masalalari, bu soha haqidagi ilk ma'lumotlar tahlil qilingan. Bu ishlarning mualliflari S.Ibrohimov, K.Xonazarov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, A.Ahmedov, M.Sodiqova, Q.Samadov, B.O'rınboyev, O'.Usmonov, X.Jalilov, S.Inomxo'jayev, Yo.Tojiev, L.Xo'jayeva va boshqalardir. Mazkur tilshunos olimlar nutq madaniyati sohasining o'rganish obyekti, ilmiy asoslari, muammoli jihatlari, til sathlariaro umumiyahamiyat kasb etuvchi soha sifatida ahamiyatli jihatlari, nutq madaniyati va uslubiyat masalalari tadqiqiga bag'ishlangan.

“O'qituvchi nutq madaniyati” kursini o'qish jarayonida pedagog, ayniqsa, filolog o'qitychi sifatida nimalarga e'tibor qaratish zarurligi haqida bat afsil ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, sohaning jamiyatdagi o'rni, lingvistik va boshqa nolingvistik fanlar bialn aloqasi ham o'rganiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Bu til mamlakatimiz vakillari uchun umumiy til sifatida shakllandи. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi davlat ishlarining, o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilyapti. Lekin shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini, bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati etarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim

masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umum davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Chunki nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, kishilarni yuksak madaniyatli bo‘lishlarini belgilaydi.

Nutq tadbirkorligini singdirish mактабда о‘qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg‘ulotgacha o‘quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Shu o‘rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini keltirib o‘tish lozim: Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o‘quv fanlari ham bilvosita shug‘ullanishi kerak. Matematika bo‘ladimi, fizika yoki tarix bo‘ladimi, o‘qituvchi o‘z nutqiy madaniyati bilan namuna ko‘rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo‘l bilan o‘quvchidagi so‘z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta‘lim amaliyotida ko‘rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o‘qituvchi juda ko‘p vaqtini turli ko‘rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma‘qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o‘rgatish, chiroyli so‘z zavqini o‘sirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko‘rgazmali qurol o‘qituvchining o‘zidir .

Keyingi yillarda oliy o‘quv yurtlarining barcha fakultetlarida «O‘qituvchi nutq madaniyati» fanining o‘qitilayotganligi quvonarliholdir. Yosh avlodni tarbiyalashdek o‘ta mas’uliyatli vazifani bo‘yniga olayotgan talabaning o‘z fanini chuqur o‘rganayotganining o‘zi etarli emas. Chunki «O‘qituvchining nutqi o‘tmas, nochor bo‘lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo‘lmasin, o‘ziga ham azob, o‘quvchi sho‘rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo‘nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o‘qituvchisi uchun ham, ona tili o‘qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir, O‘qituvchi o‘zni ham, so‘zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o‘quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo‘lgan bilimini yosh inson shururiga osonlik bilan olib kiradi.

Zotan, ona tili milliy ma‘naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:

Har qanday nutqda tilning fonetikasi ham, leksikasi ham, so‘z yasalishi, morfologiyasi ham, sintaksis va stilistikasi ishtirok etgan bo‘ladi. Shunday ekan, ob’ekti nutq bo‘lgan “O‘qituvchi nutq madaniyati” fani ham tilshunoslikning hamma tarmoq fanlari bilan bevosita bog‘langandir.

O‘qituvchi nutq madaniyati fani o‘z xususiyatlari ko‘ra uslubshunoslikka yaqindir. Uslubshunoslik til uslublarini o‘rganadi. O‘qituvchi nutq madaniyati fani tilshunoslikning til me’yorlariga aloqador hamma sohalari bilan bog‘langandir.

O‘qituvchi nutq madaniyati fanining asosiy tayanchi hozirgi o‘zbek adabiy tilining grammatikasidir. Chunki nutqning to‘g‘riliqi uning asosiy fazilati bo‘lib, u grammatik me’yorlarga asoslanadi. O‘qituvchi nutq madaniyati fani leksikologiya bilan ham bog‘langandir. Chunki nutqning aloqaviy fazilati hisoblangan aniqlik, to‘g‘rilikni so‘zning lug‘aviy ma‘nolarining aniq tavsifisiz tushunib bo‘lmaydi. O‘qituvchi nutqining mantiqiyligi so‘z ma‘nolarining ma‘no va mazmuniy bog‘lanishlariga asoslanadi. O‘qituvchi nutqining soflik, ifodaviylik, o‘rinlilik kabi aloqaviy fazilatlari ham “O‘qituvchi nutq madaniyati” fanini leksikologiya bilan bog‘laydi.



“O‘qituvchi nutq madaniyati” fani hamma vaqt mantiq, nafosat va ruhshunoslikka suyanadi. Logikaga murojaat qilmasdan turib, aniqlik va mantiqiylikni tayinlash ham, baholash ham mumkin emas. Mantiq so‘zlar va butun bir gapdan chiqadigan tushunchalarni ma‘nosi va ifodalanayotgan tushuncha o‘rtasidagi munosabatni mantiq tekshiradi. Mantiq so‘zlar, birikmalar va gaplar orasidagi ma‘no aloqani tayinlaydi. Milliy mustaqillik mafkurasining tarkibiy qismi hisoblanmish davlat tili siyosati va unga oid huquqiy hujjatlar nutq madaniyatining asosiy ashyolaridandir. Notiqlik va vozlik san’atiga oid asarlar, o‘zbek madaniy nutqiga asos bo‘lgan milliy adabiy meros namunalari, o‘zbek milliy hujjatchiligi hamda davlat tilida ish yuritish qonun - qoidalari majmuasi bilan uzviy bog‘liq.

Adabiyotlar.

1. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O‘qituvchi, 2003
2. A.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. T., 2006.
3. N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.



2-MAVZU: ADABIY NORMA VA NUTQ MADANIYATI

Asosiy savollar

- 1. Nutq madaniyati tushunchasi.**
- 2. Adabiy me'yor va nutqiy madaniyat.**
- 3. Nutqiy faoliyat va nutqiy malaka.**



Birinchi savolning bayoni

Til va nutq bir-biriga bog'liq hodisalardir, ularni bir-biridan ajratib qarash assosizdir. Til nutq uchun moddiy materialdir. Shu asosida nutq tashkil topadi. Tilning ruhiy hodisaligi uning ongda saqlanishi bo'lsa, moddiy hodisaligi undagi tovushlardir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifani bajaruvchi noyob quroldan foydalanuvchi jarayondir. Nutq xaraktdagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z birikmali, erkin birikmalar, so'z tartibi va gaplardan tashkil topgan.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan so`ng nutq madaniyatiga bo`lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bugungi kun tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri ham nutq madaniyati asoslari fanini yuksak pog'onaga ko`tarish, uni rivojlantirishdir. Amaliy jihatdan bu fan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan sifatida to`g'ri va chiroyli nutq tuzish yo`llarini o`rgatadi. Shuningdek, chiroyli nutq tuzish qonuniyatları, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo`lgan kamchiliklar va xatolar, nutqiy asarlarning ko`rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs

yuritadi. Nutq-arabcha so`zdan olingen bo`lib, kishilarning ijtimoiy aloqa quroli bo`lgan tildan foydalanib, xususiy suhbatda, umumiylar majlis, uchrashuv va yig`inlardagi gapi yoki o`qib eshittirgan so`zlaridir. Nutq-ma`lum maqsad bilan so`zlanadi va ma`lum bir g`oyaviy yo`nalishga hamda estetik ta`sir kuchiga egadir. Nutq madaniyati- bu fikrlarni til vositasi bilan to`g`ri, ravon, aniq, ta`sirchan qilib bera olishdir. Madaniyat -so`zi ham arabcha so`z bo`lib, shahar ma`nosini bildiradi. Fikrni izchil, ravon, ixcham va badiiy sodda ifodalagan nutq chiroqli nutqdir. Alisher Navoiy ham til kishilarning o`zaro aloqa vositasi, u insonni hayvondan ajratuvchi asosiy belgilardan biri deb ta`riflaydi. O`zbekiston istiqlolining eng buyuk ne`matlaridan biri sifatida ham til mustaqilligini ko`rsatish mumkin. Zero, til mustaqilligisiz erkin va ozod davlatning o`zini ham tasavvur etish mumkin emas. Shu ma`noda tilimiz jozibasi, uning inson hayotida tutgan o`rni beqiyos, muomala madaniyati nutq odobi haqida bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishni ko`zda tutadi. 4 Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismidir. Kishi o`z nutqi, fikrlashi orqali qobiliyatini, dunyoqarashini, atrofidagi voqealari-hodisalariga bo`lgan o`z munosabatini nomoyon qiladi. Nutq madaniyatini egallash tilning uslubiy (stilik) me`yorlarini puxta bilish bilan bog`liq. Nutq madaniyati- bu fikrlarni til-vositalari bilan to`g`ri, aniq va ta`sirchan qilib bera olishdir. Keng ma`noda esa nutq madaniyati nutqiy ta`sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o`tkirlik va ifodalilikni bildiradi. Nutq madaniyati tushunchasi ikki xildir. 1. Nutqning adabiy til me`yorlariga mos kelishi darjasи. 2. Tilshunoslik fanining bir bo`limi, ya`ni adabiy tilni yanada takomillashtirish, me`yorchash bilan shug`ullanuvchi soha. Fikrni til vositalari bilan to`g`ri, aniq va ta`sirchan bayon qilishning bosh qoidalariiga nutq madaniyati asoslari deyiladi. Uslubiy me`yorlarni yaxshi bilmay, ularni mukammal egallamay turib, madaniy nutqqa erishib bo`lmaydi. “O`qituvch nutqi madaniyati”fanining maqsadi, vazifasi va tekshirish ob`ekti mavjud. Bu kursning asosiy maqsadi ommaning umummadaniy saviyasini yuksaltirishga hissa qo`shish hamda maktab o`quvchilari va talabalarga nutq madaniyati tarixidan ma`lumot berish, ulkan notiqlar, adiblar, so`z ustalarining

nutq madaniyatini rivojlantirish borasida qilgan ishlarini o`rganish va ularga baho berishdan iboratdir

Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma`naviyatini belgilovchi yoki ko`rsatuvchi odob va nafosat kategoriyasidir.

Adabiy til – umuxalq tilining me`yorga solingan, sayqallashtirilgan, muayyan qoidalar asosida qayta ishlab chiqilgan shakli. Adabiy til tusunchasida me`yor tushunchasi tayanch tushuncha hisoblanadi. Me`yor jamiyat a`zolari tomonidan qabul qilingan, ma`qullangan va ularga tushunarli bo`lgan til birliklarining nutq jarayonida qo`llanish holati va imkoniyatidir.

Til va nutq tizimida me`yor o`ziga xos o`ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me`yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me`yoriy muammolarkun tartibiga qo`yilgan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me`yoriy holatlarni o`rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma`naviy-ma`rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlari singariqator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me`yoriy jihatlarini tadqiq etishda tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo`lмаган.

Demak, me`yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an`anaviylikka ega bo`ladi. Tildan foydalinishdagi an`anaviy me`yorlarning davrlar o`tishi bilan o`zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Anglashiladiki, til me`yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me`yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o`rganilishi bejiz emas.

Til elementlarining ma`lum bir me`yorga keltirilishi, bir tomonidan, til mutaxassislari orqali boshqarib borilsa, ikkinchi tomonidan, tabiiy ravishda ham yuz beradi.

Til birliklarini me`yorlashtirish, hamma uchun umumiyl vatushunarli bo`lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanalsa ham, u nutq

madaniyati sohasining xizmatlarini inkor etmaydi. Binobarin, me'yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo'lib qolaveradi. Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorga keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart- sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni bir jihatdan nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishnichg eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi. Nutq madaniyati keng miqyosdagi til tarbiyasini va ommaviy stilistik savodxonlikni, boshqacha aytganda, so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

B.N.Golovin: Norma — bu til birliklarini o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til qurilishining amalda bulgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til sistemasining yagonaligiga erishish yulida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til normasi milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustahkamlanib boradi.

Normani tadqiq etishda shu narsani qattiq yodda tutish kerakki, tilning taraqqiyot qonunlari obyektiv jarayonning ifodasi sifatida kishilarning irodasiga bog'liq bo'limgan holda amal qiladi.



Ikkinchı savolning bayoni

Ba‘zi tilshunoslar o‘zbek tili doirasidagi normalarni ikkiga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi:

1. Tilning umumnormasi yoki umumiy norma.
2. Tilning xususiy normalari yoki xususiy norma.

Umumiy norma ma‘lum tilning, masalan, o‘zbek tilining barcha ko‘rinishilarida qo‘llanayotgan normalar sistemasining yig‘indisidan iborat.

Xususiy norma — umumiy normaning nutq ko‘rinishlari, shakllaridagi, tilning shakllaridagi aniq ko‘rinishlaridir. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda o‘zbek tilining quyidagi xususiy normalari haqida gapirish mumkin:

- 1) o‘zbek adabiy tili normasi;
- 2) o‘zbek lahja va shevalari normasi (dialektal norma);
- 3) o‘zbek so‘zlashuv nutqi normasi;
- 4) o‘zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya‘ni «ijtimoiy dialektlar», «Ijtimoiy argolar» normasi (jargonlar, professional nutq ko‘rinishlari, argoning boshqa xillariga xos normalari).

O‘zbek adabiy tili normalari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

- 1) leksik-semantik normalar – leksik (so‘z qo‘llash) normalari;
- 2) talaffuz (orfoepik) normalar;
- 3) aksentologik (so‘z va formalarda urg‘uning to‘g‘riligi) normalar;
- 4) fonetik (nutqtovushlarini toi ishlatsish) normalar;
- 5) grammatik (morphologik va sintaktik) normalar;
- 6) so‘z yasalish normalari;
- 7) imloviy normalar;
- 8) yozuv (grafika) normalari;
- 9) punktuatsion normalar;
- 10) uslubiy normalar.

Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqib so‘z tanlash imkoniyatlari uning leksik normasini belgilaydi. Umumxalq

tilidan o'sib chiqqan adabiy til unda mavjud bo'lgan so'z variantlaridan lug'aviy norma sifatida eng ma'qulini — hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab oladi, qolgan variantlar esa sheva va lahjalarda, ijtimoiy guruhlar tilida yashayveradi. Har bir shevada o'sha sheva uchun so'z qo'llashning o'z lug'aviy normasi bo'lgani kabi adabiy til normasida ham shevalarda uchragani kabi o'ziga xosliklar bor. Masalan, she'riy asarlar tilida visol, ruxsor, siyna, falak, yanoq, qalb, hijron kabi so'zlarsheva va lahjalar va hatto jonli so'zlashuv tili uchun xos emas.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar eng avvalo leksikada o'z aksini topadi. Shuning uchun ham leksikaning boyib borishi tildagi boshqa unsurlarga qaraganda birmuncha faoldir. Bu hol leksik norma masalasi bilan tilshunoslikda muntazam shug'ullanish lozimligini taqozo qiladi.

O'zbek adabiy tilining lug'aviy normasi birmuncha tartibga keltirilgan bo'lib, u imlo lug'atlarida o'z ifodasini topgan. Shu tufayli yozma nutqda so'z qo'llash birmuncha turg'un holatda bo'lib, normani buzishlar unchalik sezilmaydi. Ammo og'zaki nutqda so'z qo'llash normasiga hamma vaqt ham yetarli darajada amal qilinyapti deb bo'lmaydi. Ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Ba'zan so'zlar rus tilidan ko'r-ko'rona kalka qilingan holda qo'llaniladi. Bugungi tantananing aybdorlari, boshliq o'zlaridami, men o'zimda bo'laman kabi. Bu gaplarni bugungi tantananing sababchilari, boshliq xonasidami (yoki kabinetidami), men o'z kabinetimda (yoki xonamda bo'laman) tarzida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. To'g'ri, men o'z xonamda bo'laman deyishdan ko'ra nutqning sodir bo'lishidagi vaziyat, vaqtini tejash nuqtai nazaridan men o'zimdaman yoki o'zimda bo'laman deyish osonroq. Ammo gap faqat tejamlilik va tushunarli bo'lishdagina emas. Agar masalaga shunday qaraydigan bo'lsak, bu fikrni ma'lum vaziyatda hatto imo-ishora bilan ham tushuntirish mumkin. Bu yerda gap «O'z» so'ziga yuklatilgan ko'chma ma'noning to'g'ri yoki noto'g'riliqida, fikrni shunday ifodalashning tilimiz uchun normal yoki normal emasligida boryapti. Vaqt kelib u normaga aylanishi mumkindir. Ammo fikrni shu

ma‘noda ifodalovchi vositalar tilimizda bo‘lgan holda, sun’iylikka yo‘l qo‘yish maqsadga muvofiq emas.

Xullas, norma tilning ijtimoiy vazifa bajarishining asosiy sharti bo‘lib, unga amal qilish shu tilda so‘zlashuvchi va yozuvchilar uchun majburiydir. O‘zbek tilining qanchalik normaga keltirilganligi va unga qanchalik amal qilinishi umummilliy o‘zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir. Bu esa o‘z-o‘zidan nutq madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki normaning til sathlarining biror qismi bo‘yicha buzilishi nutq madaniyatining holatiga slabiy ta‘sir qiladi. (Har bir til sathi bo‘icha adabiy til meyorining buzilish holatlarini misollar va matnlar doirasida amaliy mashg‘ulot darsida tahlil qilamiz.)

Uchinchi savolning bayoni

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar nutq madaniyati tushunchasini tushunish va ta‘riflash tilshunoslikda hozir quyidagi ko‘rinishlarga ega degan xulosaga kelishi imkonini beradi:

1. Nutq madaniyati adabiy til rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri.
2. Nutq madaniyati bu adabiy til meyorlarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishidan iborat bo‘lgan faoliyat.
3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahratdir.
4. Nutq madaniyati, kishilarni o‘zaro to‘liq va teran fikrlashning, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashdan iboratdir.
5. Nutq madaniyati faqat to‘g‘ri nutqgina emas, o‘qituvchilik hamda nutqiy chechanlik hamdir.
6. Nutq madaniyati til vositalaridan o‘rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so‘zlash va yoza olish san’atidir. (A.N.Efimov).
7. Nutq madaniyati, bu avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D.E.Rozental).

Nutq madaniyati haqida gap borar ekan, nutqda qo‘llangan o‘rinli yoki o‘rinsiz so‘zlarning qo‘llanishi to‘g‘risida baxs boradi. Qo‘llangan til birligi to‘g‘ri

yoki noto‘g‘ri deyilganda, albatta, ma‘lum bir o‘lchov (mezon)ga asoslanganligi tayin. Mana shu o‘lchov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me’yori deb yuritiladi.

Xususiy me’yorlar quyidagilar:

1. Dialektik me’yor.
2. So‘zlashuv nutqi me’yori.
3. Argolar, Jargonlar me’yori.
4. Adabiy til me’yori (adabiy me’yor).

Me’yor – tilning yashash shaklidir. Adabiy me’yor adabiy til bilan birga tuziladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyati taraqqiyoti bilan rivojlanib o‘z qonun qoidalarini mustahkamlab boradi. Jamiyat a‘zolarini uysushtirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me’yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarur.

O‘zbek adabiy tili me’yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik-semantik me’yorlar.
2. Talaffuz (arfoepik) me’yor.
3. Yozuv (arfografik) me’yor.
4. Fonetik me’yor.
5. Aksentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish) me’yori.
6. Grammatik (morphologik, sintaktik) me’yor.
7. So‘z yasash me’yorlari.
8. Imloviy me’yor.
9. Uslubiy me’yor.
10. Punktuatsion me’yor.

Nutq madaniyati adabiy me’yorlarni ma‘lum maqsad bilan, aniqrog‘i madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o‘rganadi, me’yoriy tizimini baholaydi, nazorat qiladi, aralashadi va faol yondashadi.

3. Inson nutqiy faoliyatga adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgan holda mustaqil shug‘ullanishi, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o‘qishi, radio va televideniyani tinglashi orqali erishadi va tinimsiz shug‘ullanishi

natijasida nutqiy malakaga ega bo‘ladi. Insonning nutqiy faoliyati uch ko‘rinishda bo‘ladi. Bular: so‘zlash, o‘qish, eshitish.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. Lekin ularning hammasi uchun umumiyl bo‘lgan nutqiy qurol – yagona shu jamiyatning tili hisoblanadi.

Nutqning bu sifati ba‘zan ta‘sirchanlik tarzida ham talqin etiladi. Ammo ta‘sirchanlik keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u yaxlit yaxshi nutqqa xosdir. Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o‘quvchi ongiga ta‘sir etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda esa nutqning muayyan bir sifati emas, balki barcha kommunikativ sifatlari u yoki bu darajada ishtirok etadi. Zotan, to‘g‘ri yoki aniq bo‘limgan, boy yoki mantiqiy bo‘limgan, sof yoki juyali bo‘limgan nutqning ta‘sirchanligi hakida gapirib bo‘lmaydi. Lekin ayni paytda nutqning ta‘sirchanligini ta‘minlashda ifodalilik sifatining alohida, hatto hal qiluvchi o‘rin tutishini ta‘kidlamoq joiz.

Nutq tinglovchi yoki o‘quvchining kuruq kulog‘ini emas, balki qalb kurg‘onini, aql qal’asini zabit etmog‘i uchun, eng avvalo, uning tarkibi va kurilishi diqqatni tortadigan, qizg‘in qiziqish uygotadigan bo‘lishi lozim. Bu esa ayni ifodalilik sifatining mohiyatini tayin etadigan xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, ifodalilik nutqning tarkibiy to‘zilishi va boshqa lisoniy xususiyatlariga kura tinglovchi yoki o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatidir.



3-MAVZU: NUTQ MADANIYATI, NOTIQLIK SAN'ATI TARIXI

Asosiy savollar

- 1. Nutq madaniyati haqidagi ta‘limotning shakllanishi:**
- 2. Notiqlik san’ati haqida.**
- 3. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati.**



Birinchi savolning bayoni

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati, ular haqidagi ta'limotlar tarixi juda ham uzoq davrlarga borib taqaladi. U ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, urga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Shunga ko'ra notiqlik san'ati tarixi haqida so'z yuritganda qadimgi Yunon notiqligi, Rim hukmronligi davridagi notiqlik, O'rta Osiyo notiqligi tarixi haqida bir qator ma'lumotlarning mavjudligini aytish mumkin.

Juda ko'plab ilmlar markazi hisoblangan Yunoniston notiqlik san'ati sohasida ham jahon madaniyati tarixida yorqin sahifalar yaratgan. Qadimgi yunon notiqlik san'ati o'ziga xos xususiyatlargaega bo'lgan murakkab voqelikdir.

Notiqlik san'ati haqidagi ilk ma'lumotlarni Gomerning (eramizdan oldin XII asrlar o'rtasida yashagan) "Iliada" va "Odisseya" dostonlaridan olish mumkin. Gomer dostonlarima'lumotiga qaraganda, qadimgi Yunoniston tuprog'ida eramizdan avvalgi shu davrlarda Nestor, Menelay, Odissey, Axill kabi mashhur notiqlar bo'lgan. Bu to'rt notiq shu san'atning 4 yo'naliishiga mansub bo'lib, ular maxsus notiqlik maktablarida tahsil olganlar.

Bu san'at harbiy mutaxassislik va boshqa zarur ijtimoiy mutaxassisliklar qatori maxsus maktablarga ega bo'lgan. Shuning uchun e'tiborli oilalar farzandlarini yoshlidan shu san'at bilan qurollantirishga uringanlar.

XIII-XII asrlardagi notiqlik san'ati tarixiy taraqqiyotning madaniy cho'qqisi bo'lgan, ana shu ravnaq necha asrlar osha yangidan ko'tarilgan, keyingi yuksaklikning pishib yetishiga ijobiy ta'sir etgan.

Attika davri yoki Afina notiqligi.

Eramizdan oldingi 499-449- yillar orasida, ya'ni 50 yil davomida Eron-Yunon urushi bo'ldi. Ellik yillik urushda g'olib chiqqan yunonlar davlati tez rivojlanishi bosholaydi va siyosiy-ijtimoiy taraqqiyotning yuqori bosqichiga ko'tariladi. Shu taraqqiyot bilan birga ilm-fan, madaniyat ham tez gurkirab o'sa bosholaydi. Bu taraqqiyot jahon tarixida hozirgacha mo'tabar sahifani egallab turibdi. Taraqqiyotning asosiy markazi Attika viloyati edi - hozirgi Afina. Bu davlat Attika

yo Afina davlati, eramizdan avval X-1X asrlarda yashnagan madaniyat Afina yoki Attika madaniyati deb yuritiladi. Notiqlik san'ati jahon madaniyati tarixida yunon notiqligining Attika davri notiqligi deb yuritiladi.

Antik dunyo madaniyati va san'atining gullab-yashnashiga sabab bo'lgan asosiy omil, ijtimoiy tuzumning demokratik asosda qurilganligidir. Ilm-fan, madaniyat shu demokratiya tufayli ravnaq topdi. Eramizdan avvalgi V asrga kelib Yunoniston hududi yirik shaharlar doirasida uyushgan kichik davlatlardan iborat edi. Bu shahar-davlatlarpolislar deb atalardi. Har bir polis mustaqil davlat sifatida demokratik asosda ish ko'rardi. Afina davlati shu polislar ichida eng yirigi edi.

Afina davlatida uch organ hal qiluvchi qudratga ega bo'lgan Ulardan biri xalq majlisi, ikkinchisi Besh yuzlar Kengashi deb ataladi. Sud ham katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lgan. Shu uch organ yunon demokratiyasini tashkil etardi.

Besh yuzlar Kengashi, eng yirik arboblar Kengashi bo'lib, davlat ahamiyatidagi masalalar bo'yicha kiritiladigan takliflar, qonun-qoidalar loyihasini tuzib, muhokama etardi. Ana shu jarayonda Kengashning harbir a'zosi muhokama etilayotgan masala bo'yicha o'z fikrini aytar, har tomonlama asoslab, nutq so'zlardi. So'zlovchi o'z nuqtai nazarini himoya qila olsa, loyiha qabul qilinar, asoslay olmasa qabul qilinmasdi.

Besh yuzlar Kengashi demokratiyasi erkin muhokama etish va erkin qarorga kelishdan iborat edi. Shu muhokama erkinligi, so'z erkinligi notiqlarning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. So'z erkinligi - demokratiya, notiqlikning taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Kengashdagi muhokama nutqlari majmuasidan notiqlik san'atining yo'nalishi yuzagakeldi. Yunon notiqligining bu ko'rinishiga Kengash notiqligi deb nom berildi. Kengash notiqligi davlat miqyosidagi masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lib, siyosiy xarakterga ega edi. Shuning uchun bu toifaga mansub notiqlar siyosiy yoki harbiy notiqlar edi. Besh yuzlar Kengashida ham, xalq majlisida ham muhokama etilayotgan masala bo'yicha qaror, erkin ovoz berish yo'li bilan qabul qilinar va ko'p ovozga ega bo'lgan tomon g'olib kelardi. Ko'p ovoz olishning birdan- bir yo'li majlis ahlini ishontirish, ko'tarilgan masalaning mohiyatini ochaolish edi.

Attika notiqligi 2 davrga bo‘linadi.

1. Eramizdan oldingi 462-yilgacha. Afina davlat tuzumi eng demokratik tusga kirguncha.

2.. Eramizdan oldingi 462-332-yillar orasi, Afina davlati Makedoniyaga qaram bo‘lib qolgan vaqtgacha.

Afina davlati jahonga notiqlik san’atining yirik namoyandalarini yetkazib berdi. Ma‘rifatparvar kishi sifatida o‘z atrofiga **Anaksagor**, **Suqrot**, **Gerodot**, **Sofokl**, **Fidiy** kabi buyuk siymolarni to‘plagan va ularga homiylik qilgan, notiqlik san’atida barkamol **Perikl**; o‘z notiqlik maktabi bilan mavjud rasmiy notiqlik uslublariga qaqshatqich zarba bergan va o‘z zamondoshlarini ergashtira olgan, muzokara bobida juda kuchli bo‘lgan **Kleon**; logograflik bilan shug‘ullangan, o‘zidan keyin o‘tgan Isey, Gipenid va Demosfen kabi yirik notiqlar ijodiga katta ta‘sir ko‘rsatgan **Litsiy**; notiqlik, falsafa, yurisprudensiya sohasida o‘z zamonasining eng yirik fan va madaniyat arboblari bo‘igan Suqrot, Tisiy, Gorgiylardan ta‘lim olgan va o‘zi Afinada ochgan notiqlik maktabi katta shuhrat qozongan **Isokrat**; o‘z nutqlariga istagancha rivoyat, afsona, naql va hikmatlarni qo‘sib yuborgan, notiqlik mahorati tufayli qo‘liga tushgan har qanday ishni o‘zi va mijoji foydasiga hal qila olgan **Isey**; Lisiy kabi notiqlik san’atidan kasb o‘rnida foydalangan, buyuk davlat arbobi sifatida juda ko‘p siyosiy nutqlar so‘zlagan **Demosfen**; o‘zining yuksak saviyali, ta‘sirchan deklamatsiyasi bilan tinglovchilar qalbini rom etgan va shuning uchun bo‘lsa kerak, «Attikalik o‘nta notiq qonuniga kiritilgan **Esxin**; demokratiya tarafdori bo‘lib, Demosfen bilan birgalikda Afina davlati va yunon xalqining iqboli uchun kurash olib borgan **Giperid** shular jumlasidandir.

Epideyktik notiqlik.

Afinada notiqlik san’atiga cheksiz qiziqish natijasida, uning yangi ko‘rinishlari yuzaga kela boshladи. Shulardan biri epideyktik notiqlik, ya‘ni tantanali notiqlikdir.

Shu davrgacha bo‘lgan notiqlik ko‘rinishlari muayyan amaliy ehtiyoj uchun xizmat qildi. Tantanali nutq ko‘rinishi notiqlik san’atigabo‘lgan katta qiziqishning

mahsulidir. Undan ko‘zlangan maqsad, o‘z notiqlik mahoratini namoyish etish, notiqlik san’atining barchaimkoniyatlarini ishga solib, tinglovchilarga estetik zavq bag‘ishlashdaniborat edi.

Epideyktik nutqning mavzusi uning maqsadiga ko‘ra turlicha edi. Masalan, xudolar haqidagi afsonalar, xalq qahramonlari (Axill, Gerakl va x.q.) madhiyasi, mashhur kishilar hayotiga oid (Gomer, Aristid va h.q.) sarguzashtlar kabi.

Tantanali nutq matnlari shu qadar go‘zallik, badiiy, lingvistik bezaklarga boy holda tuzilardiki, ularni notiq og‘zidan eshitish emas, hatto o‘qib chiqishning o‘zi katta zavq berardi. Iste’dodli notiq talqinida bu nutqlar badiiy o‘qishga, ajoyib artistona ijrochilikka aylanib ketar va tinglovchilarga chindan ham estetik zavq bag‘ishlardi. Yozma adabiyotning paydo bo‘lishida notiqlik san’atining roli juda katta bo‘lganidek, nafis adabiyotning go‘zal, lirik shakllari yuzaga kelishida epideyktik notiqliknинг ta‘siri kattadir.

Sud notiqligi Yunoniston polislarida, xususan, Afina davlatida eng mavqe va e’tiborga ega bo‘lgan notiqlik ko‘rinishlaridan biri.

Antik demokratiya qoidalariga ko‘ra, har bir erkin fuqaro xohlagan paytda, xohlagan ish bo‘yicha sudga murojaat etishi va o‘z manfaatini himoya qilishi mumkin edi. Sud jarayonida esa sud hay’ati chinakamiga demokratik, odilona pozitsiyada turib, da‘vogar bilan himoyalanuvchi esa har biri o‘z manfaatini himoya qilish uchun kurashardi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo‘lishi ko‘pincha sudlanuvchi shaxs yoki da‘vogarning notiqlik san’atidagi mahoratiga bog‘liq edi. Qaysi tomon o‘zining mantiqiy, faktologik talqini bilan sud hay’atini ishontira olsa, hukm o‘shaning foydasiga chiqarilar edi. Antik sud jarayonining ana shu demokratik xarakteri notiqlik san’atini ommaviy ehtiyojga aylantirdi va bu san’atning rivoji uchun zamin yaratdi. Logograflar va sinegorlar degan kasb egalari paydo bo‘ldi.

Aleksandr Makedonskiy hukmronligi davrida yunon xalqining fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari sharq mamlakatlariiga yoyila boshladi. Bu madaniyat jahoning Makedonskiy hukmronligi ostidagi juda ko‘p xalqlar madaniyatini birlashtirdi va yagona bir madaniyatni vujudga keltirdiki, tarixda bu davr

madaniyati ellinizm davri madaniyati deb yuritiladi. Quldorlik jamiyatni rivojlangani, madaniyat va san'at taraqqiyoti kabi notiqlik san'atining rivojlanishi uchun ham sharoit yaratmagani bois ellinizm davrida notiqlik san'ati o'zining siyosiy- ijtimoiy mavqeini yo'qota bordi. Keyinchalik Rim istilochilar zulmidan parokanda bo'lgan va tanazzulga yo'l tutgan yunon notiqlik san'ati qayta qaddini tiklay olmadi. Afina davlatining gullab-yashnagan davrida taraqqiy etgan yunon **notiqlik** san'ati jahon notiqlik san'atining cho'qqisi bo'lib qoldi.

Rim notiqligi.

Yunon madaniyati, xususan, Afina notiqlik san'ati tanazzulga yuz tutgan bir paytda Italiyada Rim notiqlik san'ati rivojiana boshladi. U antik notiqlikning yana bir muhim tarmog'i edi. Bu notiqlik lotin tilida shakllanganligi tufayli lotin notiqligi deb ham yuritiladi.

Rim imperiyasi ijtimoiy mazmuni jihatidan quldorlik tizimiga asoslangan bo'lib, unda faqat ijtimoiy tuzum taraqqiyoti emas, balki notiqlik san'ati taraqqiyotida ham Yunoniston tarixining, xususan, Afina tarixining ayrim bosqichlarining takrorlanishini ko'ramiz. Chunki Rim madaniyatiga yunon, xususan Attika madaniyati katta ta'sir o'tkazgan edi. Negaki, yunon demokratiyasining ravnaqi eramizdan oldingi V asrga to'g'ri kelsa, Rim imperiyasining rivojlanish davri eramizdan oldingi IV-III asrlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham ilg'or yunon madaniyati, yunon notiqlik san'atining Rim notiqlik san'atiga ta'sir etishi tabiiy bir hol edi.

Eramizdan oldingi II asrdan boshlab Rim imperiyasining quldorlik siyosati kuchaydi. Bu o'z navbatida qullarning g'azab kosasi to'lishiga sabab bo'ldi va qullar bilan quldorlar orasida keskin kurash davriboshlandi. Ajoyib satirik Lusiliy (eramizdan oldingi 180-102 yillar) asarlarida bu kurash yorqin aks ettirilgan. Siyosiy-ijtimoiy sharoitda so'z san'ati yana kuchga kirdi va davlat arboblari shu qudratli qurol – notiqlik san'ati vositasi bilan kurash olib bordilar. Rim imperiyasida **Katon, aka-uka Grakxlar, Mark Antoniy, Sitseron** kabi yirik notiqlar yetishib chiqdi.

Yirik davlat arbobi va notiqlardan biri Katon qadimgi olimlarning hisobiga ko‘ra 150 taga yaqin nutq meros qoldirgan. Katonning eng sevimli usuli masalani muxtasar, ixcham bayon qilish uslubini qo‘llagan. U masalani g‘oyat keskin tarzda qo‘ygan. Fikrlarni stilistik jihatdan g‘oyat go‘zal konstruksiyada, ifodali va ta‘sirchan shaklda bayon etishni xush ko‘rgan. Har bir masala bilan tanishar ekan, uni atroflicha o‘rganib chiqishga e’tibor bergan. Katon notiq sifatida shu qadar kuchli mahorat egasi ediki, bu borada unga Sitseron ham tan berib yozadi: «Hammasini yanada chiroyliroq, yanada nafisroq qilib aytish mumkin, ammo hech narsani undan kuchliroq va jonliroq qilib aytish mumkin emas». His-hayajon bilan so‘zlash borasida Sitseron deyarli hech kimga shu qadar yuksak baho bermaydi.

Sitseron fikricha, **«Har qanday notiqning asosiy maqsadi – tinglovchining zavqini uyg‘otib, o‘ziga moyil qilishdan iborat»**. Buning uchun esa, zarur bo‘lgan notiqlik uslublarining barcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Sitseron sud notiqligi bo‘yicha shuhrat qozongan. U eramizdan oldingi 63-yilda oliy lavozimga – konsullikkha saylanadi. Bu lavozimda turib u aristokratlarni himoya qiladiva demokratik guruhlarning ashaddiy dushmaniga aylanadi.

Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra Sitserondan quyidagi asarlar qolgan:

1. Jami 150 nutq. Shundan 58 tasi bizgacha yetib kelgan.
2. Falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar.
3. Notiqlik tarixi va nazariyasiga oid 7 ta risola.
4. Jami 800 ga yaqin maktub.

Sitseronning notiqlik san’atiga bag‘ishlangan asarlari orasida uch risola – «Notiq haqida», «Brut yoki mashhur notiqlar haqida» va «Notiq» nomli asarlari juda katta tarixiy, nazariy va amaliy ahamiyatgaega. Chunki bu risolalarda notiqlik san’ati deyarli barcha aspektlarda tahlil etilgan.

Sitseron notiqlik mahorati o‘ziga xos xislatlarga ega. Masalan, u biror fikrni bayon etar ekan, nutqini shu fikr doirasi bilan cheklab qo‘ymagan. Aksincha, uning nutqlarida fikr erkinligi hukmron bo‘lgan va notiqning falsafiy, siyosiy, axloqiy qarashlari har doim uyg‘un tarzda mujassamlashgan. Sitseron notiq sifatida o‘z

tinglovchisiga emotsional ta'sir etish masalasiga alohida e'tibor bergan. Shuning uchun ham uning nutqlarida balandparvoz so'z, ibora va jumlalar ko'p uchrar, nutqining umumiy yo'nalishi ulug'ver uslubga moyil edi. Biroqana shu ulug'verlik orasida u oddiylik, kulgi-mutoyiba, ritorik savollardan ham foydalanardi. Shu jihatdan qaraganda uning nutq uslubi qorishiq, umumiylashgan uslubga ham o'xshab ketardi.

Sitseron matnning ravonligi, go'zalligi, ifodaliligi va musiqiyligiga alohida ahamiyat bergan. Sitseron o'z nutqiga katta tayyorgarlik ko'rgan. Shunday bir rivoyatbor, Sitseron bir kuni nutq so'zlashga tayyorlanib ulgura olmagani uchun nima qilishini bilmay turgan ekan. Xuddi shu paytda bir qul xizmatkor kirib, majlis qoldirilganini xabar qilibdi. Sitseron quvonganidan o'sha qulni shu zahotiyoy ozod qilib yuborgan ekan. Kishi shoир bo'lib tug'iladi, ammo notiq bo'lib yetishadi, degan hikmatni olg'a surgan Sitseron chindan ham notiqlik san'atini izlanish va mehnat tashkil etishini yaxshi tushungan va shu haqiqatga ishongan.

Sitseron nutq kompozitsiyasiga alohida e'tibor bergan. Ayniqsa, nutqning kishilar ongiga ta'sir etuvchi qismi - argumentatsiya, mantiqiy isbotlarga va kishilarning hissiyotiga ta'sir etuvchi qismiga alohida e'tibor qilgan.

Sitseron nutq jarayonida uch muhim omilga alohida e'tibor berishni ta'kidlagan. Bu nutqning kirish qismi, xotimasi va repetisiyasidir.

Sitseronning hayoti, ijodi, falsafiy va adabiy qarashlari, notiqlik mahorati va bu sohadagi ta'limoti hozirgi kunda ham amaliy va nazariyahamiyatga molikdir.

Sharq notiqligi

O'rta Osiyoda hozirgi O'zbekiston hududida notiqlik, ya'ni voizlikning vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy ildizlari juda qadimiydir. Ma'lumki, qadimiy Sharqda, taxminan IX asrgacha voizlikvazifasini shoh, xalifa, sulton, qirov va harbiy sarkardalar bajarganlar. Ular asosan, juma kunlari, hayit, navro'z va boshqa bayram marosimlarida jamoani to'plab, davlat siyosati, tuzumi, fuqarolarning majburiyat va burchlari, jumladan, bahodirlik, itoatkorlik, qonunlarga rioya qilish, boshqa qo'shni mamlakatlardagi vaziyat, dushmanlarning

kirdikorlari, mudofaa, o‘z ichki, tashqi siyosatlari va boshqalar haqida va‘z aytganlar.

O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davrining mashhur mutafakkiri va voizlaridan bo‘lgan **Abu Nasr Forobiy** (870-950) va‘z aytganda to‘g‘riso‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq matnini tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning roliga nazariy va amaliy jihatdan katta e’tibor beradi. Forobiy voizlik talablari haqidagapirib: «Voizning so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin», - deydi.

Abu Rayhon Beruniyning ta‘kidlashicha, inson nutqi o‘z tuzilishi, materialiga ko‘ra rostni ham, yolg‘onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Inson bu bahs-munozaralar jarayonida rostni yolg‘ondan ajratadigan «mezon»ni yaratadi. Inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talab bilan yuzaga kelgan mantiq faniningqiyosi rostni yolg‘ondan ajratish vositasi bo‘lib qoldi. Inson nutqida shubhali o‘rinlar sezilsa, ma‘lum «mezon» yordamida ular tuzatiladi.

Shu bois Beruniy yaxshi nutq matnini tuzish va mazmunli nutq so‘zlashuchun grammatika, aruz va mantiq ilmini chuqur bilish lozimligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino voizlikning amaliy va nazariy masalalarini quyidagicha talqin etadi:

- ✓ nutq qo‘pol ohangda bo‘lmasligi kerak;
- ✓ tinglovchilarining ilm darajasini hisobga olish zarur;
- ✓ va‘zxonlikka ko‘p berilmaslik kerak;
- ✓ nutqni muloyim ohangda olib borish kerak;
- ✓ agar (nutqingda) biror kishini tanqid qilmoqchi bo‘lsang, boshqalarning kamchiliklari bilan qiyoslab tanqid qil;
- ✓ agar haqiqatni aytmoqchi bo‘lisang, faqat bir faktga tayanma, balki ko‘p masalalar bilan isbotla, shu narsa haqida o‘ylashga va haqiqatni izlashga ishontir;
- ✓ agar tinglovchilar sening nutqingni e’tibor bilan qulog solib tinglayotgan bo‘lsa, nutqingni davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin tinglovchilarining e’tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzugaburganining ma‘qul.

Mashhur voizlardan yana biri **Abu Homid ibn Muhammad al- G‘azzoliy** «Oxiratnama» asarida voizlarning mahorati va o‘ziga xos uslublari xususida shunday mulohaza yuritadi; «Ahli mo‘minga va‘z aytishda ehtiyot bo‘lishing lozim. Chunki voizlikda ofat ko‘p. Agar aytadigan pand-nasihatlaringga avval o‘zing amal qilib, so‘ngra xalqqaizhor etsang, bu voizlik durustdir.

XI asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Eronda podshohlik qilgan **Kaykovus** voizlik san’atining so‘nmas yulduzlaridan biridir. Uning mashhur «Qobusnama» asaridagi 7-bob suxandonlik, notiqlikka bag‘ishlangan.

Mahmud Qoshg‘ariy «Devonu lug‘otit turk», **Yusuf Xos Hojibning** «Qutadg‘u bilig» asarlarida ham nutq odobi borasida qadimiy turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar amal qilgan asosiy qonun- qoidalar, rasm-rusmlar haqidagi fikrlar yozilgan.

Buyuk shoir va mutafakkir **Alisher Navoiy** kishi fazilatlaridan biri hisoblan mish nutq madaniyatiga katta e’tibor bergan. U nutqning g‘alizligi tilga zarar yetkazishini, aksincha, yaxshi, chiroyli nutq tilning boyishiga xizmat qilishini ta‘kidlaydi. Shoир nutqning tilga bevosita ta‘sir qiluvchi vosita ekanligini shunday ifodalaydi: «Til muncha sharaf bilan nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidir».

Alisher Navoiy nutqning aniq va to‘g‘ri, ta‘sirli va jozibali bo‘lishini targ‘ib qiladi. Bunday nutqqa erishish uchun so‘z ma‘nosiga alohida e’tibor berish lozim. Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida voizlikka xos fazilat va xususiyatlarga alohida to‘xtalib, u xalqni o‘z nutqiga qarata oladigan, o‘z ortidan ergashtira oladigan donishmand kishi bo‘lishi kerakki, qalbida ma‘naviy, ruhiy bo‘shliq bo‘lgan har qanday odam esa bunday voizning suhbatidan olam-olam ma‘naviy zavq olib, ko‘ngli ko‘tarilsin, deydi.

Alisher Navoiy asarlarida nutq odobining talablari quyidagicha sanaladi:

- ✓ Tilni, so‘zni qadrlash, uni hurmat qilish.
- ✓ Yaxshi so‘zlay olish (nutq) san’atdir, noyob hunardir.
- ✓ Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biriuning nutqidir.
- ✓ Kishining nutq uning aqliy kamolotidan darak beradi.

- ✓ So‘zlaganda dil va tilni bir tutish zarur.
- ✓ So‘zlaganda o‘ylab, tushunib gapirish kerak.
- ✓ Xushmuomala, shirinso‘z bo‘lish.
- ✓ Chin, to‘g‘ri so‘zlash, nutqda halol bo‘lish.
- ✓ Ezgu so‘zli bo‘lish lozim.
- ✓ Tildan tuhmat uchun foydalanmaslik kerak.
- ✓ Ko‘p so‘z, ezma vaysaqi bo‘lmaslik.
- ✓ So‘zlaganda sharoitni, suhbatdoshinni hisobga olish, beo‘rin so‘z aytmaslik.
- ✓ Suhbat sirlarini saqlash, bo‘shog‘iz bo‘lmaslik.
- ✓ Gapirganda qaytariqlardan qochish kerak, chunki ularfikrning ta‘sirini susaytiradi.

Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do‘sti bo‘lgan mashhur voizlardan Husayn Voiz Koshifiy asosan ilmiy, siyosiy, ahloqiy, tashviq va targ‘ib ruhida va‘zlar aytgan. Voiz Koshifiy Husayn Boyqaro Xurosonga podshohlik qilgan yillarida davlatning bosh voizi hisoblangan. Husayn Voiz va‘zlarining ta‘sirchanligi, xalqchilligi, jozibadorligi haqida ma‘lumotlar bor.

O‘rtta Osiyo notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o‘sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san’ati ustalarining nadimlar, qissago‘ylar,

masalgo‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, maddohlar qasidaxonlar deb yuritilishi ham anash shundan dalolat beradi.

Ikkinchı savolning bayoni

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdanqiziqib keladilar. Qadimgi Gretsiya (Yunoniston) da va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi, notiqlikni san’at darajasiga ko‘tardi. Yetuk inson bo‘lishi uchun albatta, notiqlik san’atini egallash shart qilib qo‘yiladi. Ana shu ehtiyoj tufayli notiqlik nazariyasi

yaratildi. Eramizning 335-yilida Aristotelning «Ritorika» si yaratildi. Unda notiq oldiga quyidagilarni vazifa qilib qo‘ydi:

- materialni har tomonlama tayyorlash;
- materialni joylashtirish rejasini belgilash;
- materialni o‘zlashtirish, nutq qurilishini to‘g‘rilash;
- notiqning nutq materialini o‘rganishi;
- materialni so‘z bilan ifodalash;
- nutqni talaffuz qilish, ya‘ni nutq jarayoni.

Bu talablar hozir ham o‘z kuchini saqlab kelmoqda. O‘sha davr sud notiqligida yuksak muvaffaqiyatlarga erishdi, notiqlik san’ati nazariyasiga ulkan hissa qo‘shdi. T.Sitseronning «Notiq haqida», «Notiq», «Brut» asarlari hozir ham ma‘lum qimmatga egadir. Rim notiqlik maktabining yana bir buyuk vakili Mark Fabiy Kvintiliandir. U o‘zining «Notiq bilimi haqida» kitobida bilimdonlikni notiqliqning birinchi sharti qilib qo‘yadi. Kvintilian notiqlikka doir bilimni juda yoshlikdan o‘rgana boorish kerak, deydi. Nutqning tinglovchi uchun tushunarli bo‘lishiga katta ahamiyat beradi. U: «Sen shunday so‘zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsin», - degan edi. Xullas, qadimgi Yunoniston va Rimda madaniy notiqlik nazariyasi rivojlantirildi. Bu nazariya keyinchalik Yevropada nutq madaniyatiga bag‘ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo‘ldi. Rossiya tarixida notiqlik san’atiga bo‘lgan e’tibor, asosan Pyotr I davrida ncha kuchaydi.



XVII - XVIII asrlarga kelib, rus notiqligida, asosan beshta yo‘nalish mavjud edi:

- 1. Yuqori doiradagi dvoryanlar orasida mavjud bo‘lgan saroy notiqligi.**
- 2. Diniy notiqlik.**
- 3. Xalq notiqligi (Xalq qo‘zg‘oloni rahbarlarining)**
- 4. Harbiy notiqlik**
- 5. Diplomatik notiqlik.**

M.V.Lomonosovning xizmatlari tufayli rus tili nutq madaniyati borasida jiddiy nazariy fikrlar o‘rtaga tashlandi, uning amaliy ahamiyati nimada ekanligi ko‘rsatib berildi, rus tilining lisoniy boyliklari asosida ijodiy rivojlantirildi. M.V.Lomonosovning «Rus she’riyati qoidalari haqida maktublar» (1739), «Rus grammatikasi» (1755-1957), «Nutq madaniyati bo‘yicha qisqacha qo‘llanma» (1748) kabi asarlari rus tilini ilmiy o‘rganishni boshlab beribgina qolmasdan, rus ilshunosligining keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug‘ullaning o‘ziga xos mavqega ega. Taniqli siyosatshunos olim Nazrullo Jo‘rayev o‘zining «Agar ogohsen...» nomli kitobida haqli ravishda yozganidek, «TSivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o‘rnashgan. TSivilizatsiya, jumladan Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq tarzida vujudga kelgan. Yurtimizda axloq benihoya serqamroq, qiyosi yo‘q tushuncha sifatida ardoqlanib kelingan. Ma‘nili va bejirim gapira bilish, nutqdagi ma‘qul va noma‘qul so‘zlarni ilg‘ay olish, so‘zning orqa o‘ngini, munosib o‘rnini farqlay bilish, nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiyligi axloqining ma‘naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan». Va‘zxonlikning, balog‘at (chechanlik, notiqlik) san’atining usuli bilan nutq oldiga qo‘yilgan talablar mukammallahib bordi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘ariy,

Zamahshariy kabilar tilga, lug‘atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag‘ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o‘zining «Geodeziya» asarining kirish qismida fanlarning paydo bo‘lishi va tarmoqlanib ko‘payishi haqida so‘z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir. Inson nutqi o‘z tuzilishi materialiga ko‘ra rostni ham, yolg‘onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg‘ondan ajratadigan «mezon» ni yaratadi. Bu mantiq fani edi. Inson nutqida shubhali o‘rinlar sezilsa, ma‘lum «mezon» yordamida ular tuzatiladi. Olim mantiqni o‘rganmaganlarga: «Agar u dangasalikni

tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bog‘lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she’r o‘lchovi) va mantiq (logika) ni mutolaa qilganda edi, so‘z zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bulardi», - deydi. Demak, Beruniy nutqning ikki xil -nasr, nazm ko‘rinishi borligini ko‘rsatadi. Nutqning bu turlari ma‘lum qoidalar asosida shakllanadi.

Beruniy shakl va mazmun birligiga katta ahamiyat beradi. SHakl mazmunga xizmat qilishi kerak. Mazmunsiz har qanday chiroyli shakl ham el orasida e’tibor qozommaydi. Nutqning nasriy shaklida ham nazmiy shaklida ham mazmun bosh mezondir. Nutq o‘zining har ikki shaklida ham so‘zlovchi o‘z oldiga qo‘ygan ma‘noni ifodalashi shart. Olim yozadi: «So‘ngra so‘z mana shu ikki qismda (nasr va nazmda) ham so‘zlovchi maqsad qilgan ma‘nodan iborat bo‘lib qoladi». Nasriy va nazmiy nutqda mazmun (ma‘no) bor yoki yo‘qligini bilish tuzilgan gaplarni birbiri bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Bu vazifani mantiq fani o‘z bo‘yniga oladi. «Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalaning zarur bo‘ladi. Ularning birortasiga ham ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta‘sir qilmay iloji yo‘q». Har qanday

tilning o‘z grammatik qurilishi, grammatikasi, uning o‘z tartib -qoidalari bo‘lishi, bu qoidalarning shu tilda tuzilgan nutq uchun ahamiyati beqiyos bo‘lgani holda boshqa til uchun nozarur bo‘lishi mumkin. Beruniy arab tilshunosi bilan fors tilshunosi orasidagi munozarani keltiradi. Fors tilini arab tilidan afzal ko‘rvuchi tilshunos shunday deydi: «Eganing raf’da (bosh kelishikda), to‘ldiruvchining nasbda (tushum kelishigida) bo‘lganidan va sendagi tilning boshqa sabab va ajoyibliklaridan nima foyda bor. Men arab tiliga muhtoj emasman!». Olim bunda munozarachi bir tomondan haq bo‘lsa, boshqa tomondan nohaqligini aytadi. «Uning bu xitobi o‘ziga nisbatan to‘g‘ri, lekin mutlaqo to‘g‘ri emas», - deydi. Bu bilan olim har bir tilning afzalligi o‘sha tidda so‘zlovchilar uchui zarur, degan fikrni tasdiqlaydi. Beruniy arab tiliga xos balog‘at san’ati xususida so‘zlaganda yuqoridagi fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. U balog‘a (t) (notiqlik) arablar nutqiga xosligi, bunday nutq texnikasi arablar uchun fazilat ekanligini bayon etadi. Arab nutqida balog‘aning mavjudligi «Qur’on» targ‘ibotida muhim ahamiyat kasb etadi. Balog‘a arab nutqining ziynatidir. Ammo undan foydalangan bir kishining yuqori mansabga erishuvi va boshqa shunday kishining kambag‘allikda yashashiga balog‘a aybdor emas, deydi, bunday xol boshqa sabablarga asoslangan bo‘lib, «balog‘aning fazilatini tushurmaydi». Boshqa tillarda balog‘ani egallaganlarning obro‘ topmaganligiga sabab, «balki balog‘aning arablar tilidan boshqa tillarga ko‘chirishda bozori yurishmaganidir», - deydi. Ulug‘ Vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy (870-950) to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va tugal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo‘rligi haqida shunday deydi:

«Qanday qilib ta‘lim berish va ta‘lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi) ga kelganimizda, bu haqida bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substantsiya - narsalar) va aktsidentsiya (hodisalar) ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman».

Ikkinchchi ilm grammatikadir; U jismlargaga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substantsiya (narsa) na aktsidentsiya (hodisa) ning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir; Ma‘lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logic figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat bergenlar.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997) ham o‘zining «Mafotixul - ulum» («Ilmlar kalitlari») asarida o‘sha davr nutq madaniyatining ba‘zi bir masalalari -devonxona ish qog‘ozlari, ularning shakllari, ishlataladigan istilohlar (terminlar); shuningdek adabiyotshunoslik fani istilohlari, ularning ta‘rifi haqida ma‘lumot beradi. Asarning beshinchi bobida aruz va qofiya ilmi hamda she’riyatda ishlataladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilatlari va nuqsonlari ustida so‘zlaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, X asrdayoq ulkamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan. Uning nazariyasi, mukammal ishlangan edi.

Qadimgi SHarq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnama» da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomo‘z gaplar aytilgan bo‘lib, ular hozir ham ma‘lum darajada ahamiyatini yo‘qotmagandir. «Qobusnama» Kaykovus tomonidan 1082-1083 -yillarda yaratilgan bo‘lib, 44 bobdan iborat. Uning 6-7 boblari so‘z odobi haqidadir. Asar muallifning farzandiga qilgan nasihatlari sifatida yozilgandir. U farzandini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: «... yaxshi so‘zlashga o‘rgan va muloyim so‘zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so‘zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So‘zni o‘z joyida so‘zla, joyida aytilmagan so‘z, agar u yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon ko‘rinadi». «Kishi suxandon va

notiq bo‘lishi lozim». Har bir notiq o‘z nutqi ustida ko‘p mashq qilishi xalq oldida nutq so‘zlaganda yoqimli va bamani gapirishi, xalqning e’tiborini qozonishi zarur. «Xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Haloyik sening so‘z bilan baland darajaga erishganiningni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar, ... har kishining aholi o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi». Kaykovusning notiq so‘zning ma‘nolarini har tomonlama o‘rgangan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi: «Ey, farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgin, ularga rioya qilgin, so‘zlaganingda ma‘noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma‘noga ega ekanini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar!. SHunday kishini notiq (suxanguy) deymizki, uning har so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ham ma‘lum bo‘lsin. O‘ylamasdan so‘zlama, har bir so‘zni o‘ylab gapir, to aytgan so‘zingdan pushaymon bo‘lmagaysan. Agar so‘zni va ilmni yaxshi bilsang ham, hech bir so‘zni buzma to‘g‘ri ta‘rifla. So‘zni bir xilda gapir». Kishi kamtar bo‘lishi kerak, o‘zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozim, mahmadonalik qilish, ko‘p gapirish donolik belgisi emas... «Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so‘zing bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi.».

So‘zning qadri, undan foydalanish, kam so‘zlab, ko‘p ma‘no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham ibratli fikrlar bildirganlar.

Ulug‘ shoir Yusuf Xojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan «Qutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash haqida: «Bilib so‘zlasa so‘z bilig sanalur» degan edi. Qisqa so‘zlash, so‘zlarga iloji boricha ko‘proq ma‘no yuklash haqida:

Ugush so‘zlama so‘z biror so‘zla oz,

Tuman so‘z tugunni bu bir so‘zla yoz.

Mazmuni: So‘zni ko‘p so‘zlama, kamroq so‘zla. Tuman (ming) so‘z tugunini shu bir so‘z bilan yech. Gapishtadan maqsad so‘zlovchi ko‘zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to‘g‘ri, ta‘sirchan yetkazishdan iborat. SHunday ekan, nutqning o‘g‘rili, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda hovliqmasdan, so‘zning ma‘nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi:

Til asig‘i talim bor, basingma uqush, -Ara o‘gdilur til, ara ming sukush.

Necha mundog‘ ersa bilib so‘zla so‘z,

So‘zing bulso‘ kursu karaguka ko‘z.

(Tilning foydasi talyadir, ortiqcha hovliqma,

Goho til, maqtaladi, goho sukiladi.

Modomiki shunday ekan, so‘zni bilib so‘zla,

So‘zing ko‘r uchun ko‘z bo‘lsin (u) ko‘ra bilsin.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham so‘zlaganda nutqni o‘ylab shoshmasdan tuzishga, keraksiz yaramas so‘zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so‘zlashga chaqiradi. Noto‘g‘ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagan, deb so‘zlovchini ogohlantiradi:

Uqub so‘zla so‘zni eva so‘zlama,

So‘zing kizla, keding, boshing kizlama.

(So‘zni o‘qib so‘zla, shoshib gapirma (keraksiz, yaramas) so‘zlarni yashir, Yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma). O‘z zamonasining buyuk shoirlaridan biri bo‘lgan Amir Hisrav Dehlaviy (XIV) nutqni ta‘sirli emotsiyal va shu bilan barobar mazmundor tuzishga da‘vat qiladi:

So‘zlariningda bo‘lsa fikru o‘y yoniq, bo‘lsin har so‘zingda bir nuqta aniq. Yana nutqda aytildigan fikrni ko‘ngilda pishitib, ravon qilib aytilsa, u mazmundor va ohangdor bo‘lishi haqida quyidagicha fikr bildirilgan:

Nazm aytsam, aytaman ta‘b o‘lchovida o‘lchabon, O‘lchanib aytilsa nuqta, bo‘lmas o‘lchov besamar.

O‘zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo‘lgan buyuk Alisher Navoiy notiqlik san’atini o‘z davrida yuksak darajaga ko‘taribgina qolmay, nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug‘ullangan. U «Mahbubul-qulub» asarining 24 - bobini voizlikka bag‘ishlagan, «Muhokamatul lug‘atayn» va «Majolisun nafois» asarlari esa bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, o‘zbek tilining boshqa tillar o‘rtasida tutgan o‘rnini belgilab berishga hamda o‘zbek nutqi madaniyatini o‘rganishga qaratilgan Navoiy ijodi tufayli o‘zbek adabiy tili XV asrda olamga mmashhur adabiy asarlar yaratishga kodir til ekanligini namoyish qildi. Uning asarlari ayniqsa, gazallari o‘zbek adabiy tilida nutq madaniyati amaliyotining rivojiga bebaho hissa bo‘lib kushildi. Alisher Navoiy o‘zining «Muhokamatul lug‘atayn» asarida har bir tilning katta yoki kichikligidan qat’iy nazar, o‘ziga xos ijobiy tomonlari borki, ularni boshqa biror tildan topib bo‘lmaydi, degan fikrni aytib, fors tili shuhrat topgan til bo‘lishiga qaramasdan, turkiy tilda bo‘lgan ba‘zi bir imkoniyatlar unda yo‘qligini bayon etadi va dalil sifatida o‘sha davr o‘zbek tilida amal qilgan 99 dona fe’lni keltirib ular fors tilida yo‘q ekanligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiyning «Muhokamatul lug‘atayn», «Mahbubul kulub», «Nazmul jovohir» asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalarini bo‘lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo‘shdi.

(Navoiyning yuqoridagi asarlaridan parchalar o‘qib tahlil qilinadi). XV asrda Xirotda yashagan atoqli alloma Husayn Voiz Koshfiy ham nutq haqida qimmatli fikrlar bildirgan:

«Bilgilki, odamzotning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. So‘z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jum turgan ma‘qul», - deydi va uhbat qoidalarini ikkiga ajratadi.

I. Yoshi ulug‘larning suhbat odobi qoidalari oltita:

1. Har kimning ahvoliga qarab munosib so‘z aytsin;
2. Dag‘allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin;

3. Gapi rayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin;
4. Ovozini baland ko‘tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin;
5. Odamlarga naf’i tegadigan ma‘noli gaplarni gapirsin;
6. Agar so‘zning qimmati-qadri bo‘lmasa uni tilga olmasin, chunki ulug‘larning so‘zi bamisoli urug‘dir, agar urug‘ puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qaerga ekmang unib chiqmaydi;

II. Yoshlar suhbat odobi sakkizta:

1. So‘ramagunlaricha gapirmasin;
2. Gapi rayotganda ovozini baland ko‘tarmasin;
3. Gapi rayotganda o‘nggu sulga qaramasin;
4. G‘arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin;
5. Qattiq gapirmasin va betga choparlik qilmasin;
6. Pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin;
7. Odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmasin;
8. Ko‘p gapirmasin. CHunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.

O‘zbek badiiy nutqi tarixida Z.M.Bobur alohida o‘rin tutadi. SHoirning nazmi va «Boburnoma» si nutqning go‘zal namunalaridir. Dunyo olimlari «Boburnoma» ni XV asrning eng yaxshi prozaik asari deb tan olishlari beziz emas, albatta. «Boburnoma» nihoyatda go‘zal va ravon tilda yozilgan asardir. Bobur o‘zi hammabop yozishi bilan birga, boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, Boburning Humoyunga yozgan xatini eslash yetarlidir. (Xat o‘qilib, tahlil etaladi). Huningdek, keyingi asrlarda ijod qilgan Ogahiy, Komil Xorazmiy, Munis Xorazmiy, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiyy, Furqat, Avaz O‘tar o‘g‘li, Fitrat, Behbudiy, So‘fizoda, Hamza kabi mutafakkirlarning asarlarida o‘zbek mumtoz adabiy tili me’yorlari amaliy jihatdan mukammallahib bordi va ularning asarlari nutq madaniyati rivojiga bebahohissa bo‘lib qo‘sildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, SHarq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o‘rganish, uning lug‘aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so‘zlashni o‘rganish, nutqning ichki (mazmun) va tashqi «shakl» ko‘rinishiga birdek e’tibor berish, go‘zal va ta‘sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o‘rinli ishlatish vazifalarini qo‘yadilar va ularning ijrosini chuqur tahlil etadilar. Demak, nutq madaniyatining tarixi qadimiy ekan, uning boyligi ham bitmas tiganmasdir. Bu boyliklardan o‘rinli foydalaning jozibali nutq ifodasini hosil qiladi. Bu nutqimizning yuksak namunasi bo‘lib, adabiy til boyligidan saralab olingan so‘zlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Nutq jarayonida aniq qoliplari ishlab chiqiladi, takomillashtirilib boriladi. Mavjud lingvistik adabiyotlarda notiq, notiqlik san’ati, voiz, voizlik, voizlik san’ati kabi tushuncha va atamalarga duch kelamiz. Xalq orasida: so‘zga chechan, so‘zga usta, so‘z ustasi, so‘zamol, so‘zamollik, so‘zni boplaydi, gapni do‘ndiradi, gapga usta, chiroyli gapiradi singari iboralar bor. Keltirilgan so‘z va iboralarning barchasi inson nutqining, inson nutqi kamolotining darajasini, umumiy jo‘n nutqdan farqlanadigan nutq namunalarini ifoda qiladi. Hamma ham agar u nutqiy nuqson bilan tug‘ilmasa gapiradi. Ammo hamma ham bir xilda gapga chechan, o‘ta chiroyli gapiruvchi bo‘lavermaydi. Nutqiy chechanlik - notiqlik alohida qobiliyatdir. Mumtoz ma‘nodagi notiqlik - bu alohida farqulotda nutqiy san’atdir.

Uchinchi savolning bayoni

CHinnakam notiqlar notiqlik mahoratiga tabiiy qobiliyat bilan bir qatorda o‘z tili, nutqi ustida tinimsiz ishslash natijasida erishadilar.

O‘tmish va o‘tmishga oid adabiyotlarda alohida nutqiy mahorat bo‘lgan notiqlik ko‘rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan arqlanilgan. CHinnakam san’at, alohida qobiliyat ma‘nosidagi notiqlik barcha kishilar uchun ham xos bo‘lmagan.

Har qanday nutq «notiqlik» namunasi (san’at sifatida) va uning egasi chin ma‘noda «notiq» (san’atkor ma‘nosida) degan gap emas. Notiqlik qadimiy

davrdan beri alohida mahorat, san'at sifatida insondagi maxsus, noyob qobiliyat tarzida talqin etib kelinadi. SHu tufayli notiqlikni (ular orasidagi bog'liqlikni inkor etmagan holda) nutq madaniyatidan farqlash lozim . Har qanday og'zaki nutq shakli nutqiy mahorat ma'nosidagi notiqlik bo'lavermaydi. So'zlash madaniyati haqida gap yuritiluvchi va hatto lektorlar, targ'ibotchilar (bular orasida ham haqiqiy ma'nodagi notiqlar kam uchraydi) mo'ljallangan asarlar ham bizningcha «Notiqlik san'ati» nomi bilan atalavermaslik kerak. O'zbek tilshunosligi va san'atshunosligida notiqlik san'ati va uning o'tmishi yetarli ishlangan emas. SHu tufayli o'tmish SHarq notiqligi bilan hozirgi ma'nodagi nutq madaniyati sohasi orasidagi ko'pgina o'xhash hamda farqli tomonlar biz uchun qorong'idir. Nutq madaniyati sohasi va uning maqsadini ommaga yetkazishda o'tmish notiqligining ijobiy tomonlaridan keng foydalaning zarur. Ushbu notiqlikning ko'pgina ko'rsatmalari, qoidaviy holatlari, taniqli notiqlarning shaxsiy qobiliyat va faoliyatilari nutq madaniyatini tarbiyalashda yaxshigina namunaviy tashviqot quroli bo'lishi mumkin. Bu masala S.Inomxo'jayevning «O'tmish sharq notiqligi» kitobida yaxshi ko'rsatilgan. Ma'lumki, notiqlik san'atida tinglovchini, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiq nutqi chiroylari, jozibali bo'lishi shart. CHiroylilikka erishish uchun nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jumlalar jimmadorligiga katta e'tibor beriladi. Ushbu ma'noda mana bu satrlar ancha o'rinli aytilgan: «Notiqlik avvalo chiroylari gapirishdir. Ammo nutqning faqat chiroylari bo'lishi hali yetarli emas, har qanday be'mani safsatalarni ham juda chiroylari qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi». G.O.Vinokur o'zining «Kultura yazo'ka» asarida nutq madaniyatining notiqlik bilan bog'liq tomonlariga alohida tuxtaladi: «Notiqlik nutqi deganda men har qanday monologik og'zaki nutqni emas, balki tinglovchilarni ma'lum harakatga chorlovchi yoki ularda qandaydir g'oyalar, tasavvurlar tizimini uyg'otishga qaratilgan maxsus vazifa bajaruvchi nutqni tushunaman».

Hozirgi kunda notiqlik tushunchasi va notiq atamasi alohida mahorat va san'at ma'nosida emas, balki jo'n, ommaviyroq ma'noda tushunilmoqda va qo'llanmoqda. Hozirda nutq so'zlagan har qanday shaxsni notiq deb yuritiladi. Natijada notiq atamasi o'z asl ma'nosidan uzoqlashdi va u rasmiy yoki norasmiy so'zga chiqqan har bir nutq egasini anglatadigan bo'ldi. Notiq va notiqlik tushunchalari doirasining bunday kengayishi, ommaviylashuvi notiqlik san'ati sohasi haqida yozilgan ilmiy ishlarda ham «notiqlik» va «notiqlik san'atini» oddiyroq va kengroq ma'noda tushuning va tushuntirishga olib keldi. Bunga ko'ra, notiqlik san'ati endilikda qandaydir nutqiy mahorat (noyob qobiliyat, san'at) emas, balki har qanday odam egallashi mumkin va lozim narsa sifatida talqin etiladi.

Keltirilgan mulohazalardan keyin nutq madaniyati bilan notiqlik san'ati orasidagi munosabatni belgilash muayyan qiziqish uyg'otishi aniq. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati umumiyligi, o'xshash tomonlarga ega. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi kishilar nutqiy faoliyatining foydali, ta'sirchan, o'tkir bo'lishi uchun ko'rashadi, insonning nutqiy madaniyatini uning nutqiy hayotini ustirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham notiqlik ham nutqiy odob, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziklangan holda ish ko'radi. Ammo shunga qaramasdan bizningcha nutqiy san'at ma'nosidagi notiqliknini, ya'ni farqulodda nutqiy mahorat va qobiliyat bo'lgan notiqliknini ommaviy nutq (notiqlik) dan farqlash lozim. Ba'zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir. Notiqlikda qobiliyat va mahoratning mehnat bilan qo'shilib ketganini ko'rish mumkin. Har bir xalqning o'tmish madaniy hayotida bu xalqdan yetishib chiqqan va chin ma'noda notiq degan mo'tabar nomga sazovor bo'lgan shaxslarning unchalik ko'p emasligi ham aslida ana shu omil tufaylidir. Nutq madaniyati tushunchasi aynan notiqlik san'atining o'zi emas, ammo u otqlik mahoratiga nisbatan olganda, qandaydir o'ta oddiy tushuniluvchi hodisa ham emas.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiyligida ko'rindi. Ammo shunga qaramasdan nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir narsa emas. Ular orasida ba'zi muhim farqli tomonlar, belgilar bor. Bular quyidagilardir:

1.Nutq madaniyati chinnakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning me'yordi bilan bog'liqtsir. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum lahja yoki shevada ham chinnakam notiqlik san'atini namoyish qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik til materialining xarakteriga qarab emas, nutqning ta'sirchanligiga, nutqiy san'atga qarab belgilanadi.

2.Notiqlik - bu nutqning og'zaki shaklidir. Notiqlik san'ati - og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir.

3.Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiyligida qurilishi ko'zda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi, orzusi barchaning, butun xalqning nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Mumtoz ma'nodagi notiqlik esa alohida shaxslarning nutqiy mahoratini, san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan, nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadga safarbar qilishni ko'zda tutadi. Ya'ni notiqlik san'atida tinglovchilarni ma'lum maqsadga jalb qilish asosiy o'rin tutadi.

4.San'atkor notiq nutqi asosan ko'pchilik tinglovchiga keng auditoriyalarga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni birdan ortik shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni o'z ichiga qamraydi.

5.Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan so'zamol shaxs bo'lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san'atkor ma'nosidagi notiq bo'lmasligi, bo'la

olmasligi mumkin. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo‘lishi shart.

6.Nutq madaniyati ko‘pchilikni, keng xalq ommasini ko‘zda to‘tib ish ko‘rvuchi sohadir. Bu ma‘noda nutq madaniyati keng omma uchun mo‘ljallangan talabdir, ammo notiqlik - bu avvalo qobiliyat, shaxsiy qobiliyatdir. Alohida san’atkorlik ma‘nosidagi notiqlik nutqiy san’atni, nutqiy go‘zallikni hisobga oladi. Nutq madaniyati esa kishilarning barchasini san’atkor notiq qilishni ko‘zda tutmaydi. U, asosan, ona tilida yoki o‘zga bir tilda to‘g‘ri, madaniy gapira olish va yoza olish faoliyatini tarbiyalashni maqsad qilib oladi.

7.Nutq madaniyati - bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya‘ni adabiy tilni va uning me’yorlarini o‘rganing va bu me’yorlarni qayta ishlash ishi bilan shug‘ullanadi. Notiqlik san’ati esa bunday ilmiy - me’yoriy faoliyatni ko‘zda tutmaydi.

8.Notiqlik, ko‘proq nutqning mazmuniga mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga e’tibor qiladi, nutq madaniyati sohasi esa ko‘proq nutqning til qurilishi -lisoniy tuzilishiga e’tibor qiladi.

9. Notiqlik, asosan, aniq bir shaxs - notiq yoki guruhlar -notiqlar nutqi haqida qayg‘uradi. Bunda u notiqni tinglayottanlar, ya‘ni keng ma‘noda tinglovchilar ommasi nutqini ham ko‘zda tutmaydi. Nutq madaniyati esa, bundan farqli ravishda umuman kishilarning nutqiy faoliyatini, nutq madaniyatini ko‘zda tutadi. SHu sababli nutq madaniyati maqsadiga ko‘ra va nutqiy faoliyati nuqtai nazaridan keng maqsadli soha notiqlik esa tor sohasidir.

10. Notiqlik san’ati notiq uchun oldindan qanday so‘zlash sxemasi va rejasini bermaydi va bu tip nutq doimo ham oldindan tayyorlangan, tayyorgarlik qurilgan nutq emas, nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a‘zolarini ona tili, ya‘ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosi talabiga

Notiqlik san'ati dastlab:



Misr



Ossuriya



Vavilon



Hindistonda paydo bo'lgan



Aristotel
(384-322)



Arastu nomi bilan
O'rta Osiyoda
mashhur bo'lgan
Aristotel eramizdan
awalgi, 384-yilda
Makedoniya yarim
orolidagi Xalqidik
Stagirda tug'ilgan



U "Ritorika" asarini uch
kitobdan iborat qilib
yaratadi. Chiroyli
so'zlash, ishontirish
metodlari haqidagi fikr
mulohazalar birinchi va
ikkinchi kitobda bayon
etilgan bo'sha, uchinchi
kitobda nutq mantiqiga
katta e'tibor beriladi

Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 2003
- 2.A.Xo'jayeva. Notiqlik san'ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

4 -MAVZU; TIL VA NUTQ.

Asosiy savollar

- 1.Til vositalari va ularni qo'llash shartlari.**
- 2.Trop va uning turlari.**
- 3.Nutq odobi**

Birinchi savolning bayoni

Dunyoda har bir millatning o‘z ona tilisi bor va u har bir millat uchun qadrlidir. Darhaqiqat, ona tili millatni yuksak va buyuk ma’rifat, madaniyat sari yetaklaydi. Azal-azaldan xalqimiz o‘z ona tilini e’zozlab, ko‘p asrlik hayotiy tajribalari davomida sayqallab kelgan. Keyingi yillarda tilimiz taraqqiyoti bilan bog‘liq keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib, 1989-yil 21- oktabr O‘zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilingan kunni olishimiz mumkin. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimizning rivojlantirishi, taraqqiyot etishi omili bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunonchi, "Eskirgan so‘z" tamg‘asi bositgan ona tilimizning bisotidagi qanchadan-qancha so‘zlar til maydoniga chiqdi. Fan, texnika, iqtisod, sport, tibbiyot, huquq, madaniyat, ma’rifat va boshqa sohalarga oid talaygina so‘zlar tilimizga kirib keldi, ish yuritish tili o‘zbek tiliga aylantirildi. Bularning barchasi 0ona tilimizga bo‘lgan xurmat-ehtiromni belgisidir. Bundan tashqari o‘zbek tilining xalqaro til maydoniga chiqayotgani har birimizga yuksak g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Tilimiz taraqqiy etishi uchun avvalo nutqimizga ahamiyat berishimiz zarur. Chunonchi, jahon maydonlarida turli xil sohalarda ayniqsa sport va diyosatda ravon nutq so‘zlamoq va o‘zbek tilining naqadar go‘zal ekanligini ko‘rsatib bermoq lozim. Til qanchalik ulug‘vor bo‘lmasin uni yuzaga chiqaradigan vosita nutq hisoblanadi. O‘zbek tilida nutq so‘zlaganimizda iloji boricha bir xillikdan qochish lozim, zero tilimiz turli xil so‘zlarga boydir. Bunga misol qilib mutafakkir

bobomiz Alisher Navoiyning dunyo bo'yicha eng ko'p so'zdan foydalanganini olishimiz mumkin. Alisher Navoiy so'zlardan mohirona foydalangan holda o'zbek adabiyotiga ham asos soldi. So'z san'ati, notiqlik, nutq madaniyatiga qadim-qadimdan alohida e'tibor qaratilgan. Bu sohada g'arb allomalari so'z bilan ta'sir ko'rsatish, kishilarni ishontirish va o'z ortidan ergashtirish mahorati haqida qarashlarini bayon qilgan bo'lsa, sharq mutafakkirlarida aksincha, ular nutq madaniyatini, asosan, suhbat odobi, tinglash madaniyati sifatida e'tirof etgan. So'z mulkining sultoni Hazrat Navoiy o'z asarlarida notiqlik va nutq madaniyatiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Navoiyning tilshunoslik va notiqlikka oid qarashlari nafaqat "Muhokamat ullug'otayn" asari, balki "Xamsa", "Chor devon", g'azal, ruboiy, qit'alarida ham ifodalangan.

So'zlovchi yoki yozuvchi o'zi bayon qilayotgan tinglovchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib borishga harakat qilishi shart. Ko'pincha biror narsa belgi xususiyatini tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shunday vaqtarda so'zlovchi yoki yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda uzundan-uzoq gaplarni qatorlashtirishdan qochib, boshqa vositalardan foydalangan holda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriy vositalar deyiladi.



Tasviriy vositalarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llashda quyidagi shartlarga rioya qilinadi:

1. Tasviriy vosita turini, tabiatini va xususiyatini yaxshi bilish.
2. Tasviriy vositadan o‘rinli, me’yorda foydalanish.
3. Tasviriy vositani qo‘llashda muayyan tizimga amal qilish.
4. Tasviriy vositaning ruhiy tasvirini hisobga olish.
5. Tasviriy vosita bilan mazmunning uyg‘unligini ta‘minlash.

Ikkinchı savolning bayoni

Til – ma‘lum kishilar jamoasi a‘zolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o‘ziga xos belgilar sistemalaridan biri bo‘lib, jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an’analarni avloddan-avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Nutq – ifodalangan ma‘lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir.

Matn – u yoki bu holda tugallangan mazmun va nutqning birligini o‘zida shakllantirgan hamda ifodalangan og‘zaki yoki yozma asarga aytildi. Fikrni og‘zaki bayon etganda o‘qituvchi suhbat, muhokama, munozara usullaridan foydalanadi. Fikrni yozma bayon qilish bayon, saylanma bayon, konspekt, referat, sharh biologiyasi, avtobiografiya, tavsifnomalar, intervyu, ma‘ruza, lektsiya, hisobot, maktub, kundalik kabi shakllardan iborat.

Ifodalilik, ekspressivlik va aniqlikni ta‘minlash uchun biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘cherish, o‘xshatish yoki so‘zlarni shu maqsadda umuman ko‘chma ma‘noda ishlatish troplar deyiladi.

1. Epitet – (gr.izohlash) – badiiy ifodalikni kuchaytirish uchun ishlatiladi: oltin kuz, baxmal qir, po‘lat ot kabi.

2. O‘xshatish – narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berish;

Yoqt payola, suvgaga tushgan mushukday, xuddi shunday va hokazo.

3. Metafora – (gr.ko‘chim) – obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma‘noda ishlatish.

a) soda metafora: gumbaz, ilon, lochin

b) kengaygan metafora; zangora kema, oq oltin, po‘lat qush kabi.

4. Metonimiya – (gr. Boshqacha nom berish) Tashqi va ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisalarning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko‘chiriladi.

Metonimiya ko‘rinishlari quyidagicha:

a) Narsa (idish) ichidagi narsaning ma‘nosi o‘sha narsa (idishga) o‘tkaziladi:
Bir tovoq (palov) bir kosa (lag‘mon), bir payola (choy).

b) Muallifning nomi asarning nomi bilan qo‘llanadi: Hamzani o‘qimoq,
Cho‘ponni yodlamoq kabi.

c) Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajarishdagi vosita, qurol bilan almashtiriladi: A.Qahhor – qalami o‘tkir yozuvchi, uning qo‘li yengil.

d) Biror narsa u yasalgan material bilan almashtiriladi: Atlas kiydi, qog‘ozini tekshirishdi va h.

e) Ma‘lum mamlakatda, davlatda yoki ma‘lum o‘rinda yashab turgan kishilar ma‘nosi shu yerga, davlat yoki mamlakatga ko‘chiriladi: Majlisga butun qishloq yig‘ildi va h.

f) Aniq tushuncha nomi o‘rnida mavhum ma‘noli ot qo‘llaniladi: Majlis raisga qaradi: yig‘ilish qaror qildi va h.

5. Cinekdoxa – narsalarning son yoki butun qismlari orasidagi munosabatning nazarda tutilishi.

Sinekdoxaning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

a) Butun o‘rnida qism qo‘llanadi. Mo‘ylov kulib qo‘ydi.

Uning, har qalay, yopig‘I bor.

b) Qism o‘rnida butun qo‘llanadi:

Besh qo‘l baravar emas. Dasturxonga qarang.

c) Jins o‘rnida tur ishlataladi: pushka-quroq, bedana-qush, sazanbaliq kabi.

6. Allegoriya (gr. Piching, kinoya) – mavhum tushunchalarni aniq narsa bilan almashtirish. Ko‘rpangga qarab oyoq uzat.

7. Simvol – hayotiy voqeа, tushuncha va narsalar ifodasi uchun shartli ravishda ko‘chma ma‘noda ishlataladigan so‘z: tong – yoshlik, tun – baxtsizlik, qora – motam.

8. Ironiya (gr. kesatik) – biror shaxs yoki uning qiliq‘I, hodisa ustidan kulish: Kam bo‘lmang! Qayt! Bopladingiz!

9. Antifraza – biror shaxs yoki narsaga xos bo‘lgan u yoki bu xususiyat kulgili ohang bilan inkor qilinadi: shirin odam, nimjon ayol (semiz) kabi.

10. Sarkazm – (gr. Achchiq) shaxs, narsa yoki hodisaning salbiy tomonini ko‘rsatish: farishta ayol, bejirim nusxa, yoqimli ish kabi.

Uslubiy figuralar

Tinglovchi yoki o‘quvchiga umumiylig hissiy ta‘sir ko‘rsatuvchi sintaktik qurilmalar uslubiy figuralar deyiladi.

1. Antiteza (gr. Qarama-qarshi qo‘yish) – qarama-qarshi tushunchalarni fikr, obraz, narsalarni, shaxslarni xarakterlarini qiyoslash yoki bir xil narsa-hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlash. Ko‘zlarda yosh, lablarda kulgu, yangicha aza, yangicha bazm kabi.

2. Gradatsiya – (lot. Zinapoya) – narsa, belgi, xususiyat yoki harakatning biridan ikkinchisiga kuchliroq yoki kuchsozroq ma‘no ottenkali sinonimik yoki bir xildagi so‘zlar vositasida kuchaytirib yoki kamaytiribboorish orqali tasvirlashdir. Yuvib tarab, sepib, o‘pib, quchib, opichlab. Ey baxtlarni balog‘atga yetkazgan ona.

3. Ko‘p bog‘lovchilik va bog‘lovchisizlik – nutqqa keskinlik, shoshilinchus, tezlik xarakterini kiritish uchun notiq yoki yozuvchi gapda lozim bo‘lgan bog‘lovchilarни ataylab tushirib qoldiradi yoki sokinlik, ta‘kidlash ma‘nosini kiritish uchun bog‘lovchilarни muayyan tartibda qo‘llaydi:

Mening xalqimni ro‘yobga chiqargan, shod va baxtiyor qilgan, non va osh, kiyim va ustibosh, e’tibor va obro‘ bergen narsa bu do‘stlikdir.

Uchinchi savolning bayoni

Nutq odobi insonning ahloqini belgilovchi mezondir. Ahloq fan sifatida o‘rta asrlarda yuzaga keldi. Kishining odobi, eng avvalo uning nutqida ko‘rinadi. Nutq odobi – aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarni tinglovchiga hurmat qilgan holda, bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi:

Paronimlarni bilish, ulardan tovush yaqinliklariga e’tibor berish; tor muhitda ishlatiladigan dialektalizm so‘zlarning ma‘nolari yaxshi anglatgan holda nutqqa kiritish.

O‘qituvchi o‘z nutqidan keng foydalanadi. O‘quvchilarga voqealari, shaxslar haqida ma‘lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog‘liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta‘sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi o‘z ovozini kuchini, yoqimliligini bilishi zarur.

O‘qituvchining ovozidan quyidagi xususiyatlar bo‘lishi lozim.
jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);

Asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma‘lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazishda qo‘llanadigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko‘rinishda bo‘lganda uni texnikasini ham ikki xil ko‘rsatish mumkin:

Og‘zaki nutq texnikasi.

Yozma nutq texnikasi.

Og‘zaki nutq texnikasi tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga ovozdan foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan nutq faoliyatining ma‘nosi bilan, nutq ishlatilayotgan so‘z ma‘nolarini bilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar notiq o‘zi fikr yuritmoqchi bo‘lgan nutq predmetining yaxshi bilsa, unga mos so‘zlar tanlasa va o‘zi tanlagan so‘zlarning ma‘nolariga vazifalar yuksala, nutqning aniq bo‘lishi muqarrardir.

Nutqning sifati ma‘nosidan aniqligining o‘zi nimalardan iborat? Aniqlikni-nutq borlik®, nutq – tafakkur munosabatlari asosida aniqlasa bo‘ladi.

Ish qog‘ozlarga xos bo‘lgan xususiyatlar.

Yozma nutq ham huddi og‘zaki nutq kabi tinglovchi uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, o‘quvchiga tez va butun mohiyati bilan yetib borishidan yozuvchi ham, o‘quvchiga ham minnatdor. Shuni nazarda tutganda yozma nutq texnikasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) har qanday yozma nutq xat boshidan, bosh harf bilan boshlanishi kerak, har bir gap mazmunan nisbatan tugallangan bo‘lishi, yorqin fikr anglatishi kerak;
- c) ma‘lum bir fikr bayon etilgandan so‘ng, nutqni tarkibiy qismi bo‘lgan boshqa fikr xat boshidan boshlanishi zarur.

Xat boshilar (abzatslar) bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan bo‘lishi lozim.

d) Dialoglardan tashkil topgan yozma nutqda har bir shaxsni gapi teri orqali yoziladi;

e) ko‘chirma gaplar, ko‘chirmalar, o‘z ma‘nosida ishlatilmagan so‘zlar, birikmalar qo‘shtirnoq ichiga olinadi;

f) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan, undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar teri yoki qavs bilan ajratiladi;

g) ot kesim, izohlovchi, undalma, ajratiladigan bo‘laklar tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

h) nutqning xat boshidan yirik qismlarga boblarga bo‘lib ko‘rsatiladi. Ish qog‘ozlarga ham yozma nutq hisoblanadi.

Ularning yozilishi ham nutqqa xos umumiyligi talablardan chetga chiqmaydi.

Tasvir. Nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali xarakterlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko‘rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi.

Hikoya qilish. Bo‘lib o‘tgan va yuz beradigan voqealarning batafsil so‘zlash hikoya qilish hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma‘lum qisqartirishlar bilan bayon etilishimumkin.

Hikoyalar turlari va ularni o'rgatishning izchilligi. Hikoya o'quv materialini bolalar uchun tushunarli tarzda bayon etish imkonini beruvchi og'zaki metodlardan biri. Hikoyada turli mazmundagi bilimlar obrazli shaklda taqdim etiladi. Bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, ona shahri haqida bo'lishi mumkin. Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foy- dalanish mumkin. Hikoya - biror voqe, hodisani kengaytirib bayon qilishdir. Hikoya tasviriy va syujetli bo'lishi mumkin.



Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 2003
- 2.A.Xo'jayeva. Notiqlik san'ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

5- MAVZU: NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATI

Asosiy savollar

- 1.O‘qituvchi nutqining kommunikativ sifatlari**
- 2. Nutqning dolzarbligi**
- 3. Nutqning dolzarbligi**
- 4. O‘qituvchining kommunikativ ta‘sir etish usullari**



Birinchi savolning bayoni

O‘qituvchi mantiqiyligini ta‘minlaydigan to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylilik, ifodalilik, boylik soflik kabi qator sifatlar mavjud bo‘lib, ularning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchiga etkazish, shu yo‘l bilan unga thsir qilishdan iborat bo‘lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta‘sirchanligini yuzaga keltiradi.

Nutqning to‘g‘riliği nutq madaniyati haqidagi ta‘limotning markaziy masalasiidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to‘g‘rilik mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi. Zotan, to‘g‘ri bo‘lmagan nutqning aniq yoki mantiqiyligi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas.

Aytish joizki, nutqning to‘g‘riliqi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo‘lib, maktab ona tili ta‘limining asosiy maqsadi ham o‘quvchilarda aynan to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To‘g‘rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me’yorlariga to‘la mosligi asosida yuzaga keladi. Amaldagi adabiy til me’yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to‘g‘ri nutq bo‘la olmaydi.

Adabiy me’yor til unsurlaridan til sistemasi qonuniyatlariga uyg‘un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an'anaga muvofiq holda foydalanish qoidalaridir. Adabiy me’yorning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatdagi nutqiy amaliyot va atoqli yozuvchilar, so‘z ustalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xuddi shu amaliyotda barqarorlashgan so‘z qo‘llash doimiy qoida shaklini oladi. Qizig‘i shundaki, adabiy til me’yori nutqiy amaliyotdan olinadi va yana shu amaliyotni boshqarishga xizmat qiladi. Til me’yorlari milliy til birligi, butunligining bosh omillaridan hisoblanadi. Ayni shu me’yorlar ko‘p shevali o‘zbek tili egalarining nutqiy muloqotini birlashtiradi.

Ayni paytda ta‘kidlash joizki, ada|biy me’yorlarni mutlaq o‘zgarmas, davrlar o‘tishi bilan hech bir o‘zgarishga uchramaydi, deb bo‘lmaydi. Adabiy til me’yorlari ayni paytda dinamik hodisa hamdir. Til o‘zining ijtimoiy tabiatiga muvofiq jamiyat rivoji bilan bab-baravar takomillashib borar ekan, tilning me’yorlari ham o‘zgarib, mukammallashib boradi.

O‘zbek adabiy tilida asosan quyidagi me’yorlar farqlanadi:

- 1) leksik me’yorlar;
- 2) Talaffuz me’yorlari;
- 3) So‘z yasalish me’yorlari;
- 4) Morfologik me’yorlar;
- 5) Sintaktik me’yorlar;
- 6) Uslubiy me’yorlar.



Bu me’yorlar mutaxassislar tomonidan til qonuniyatları, shuningdek, tarixiy an’analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorланади ва tegishli davlat organi tarafidan tasdiqlanadi.

Badiiy so‘z ustalari so‘zlarni boshqa uslubga ko‘chirib qo‘llar ekanlar, turli xil estetik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradilar. Badiiy nutqda adabiy tilning grammatik, uslubiy yoki boshqa me’yorlardan badiiy-estktik maqsad bilan chekinilishi adabiy til me’yorlarining nainki buzilishi, balki badiiy nutqning mutlaqo o‘ziga xos me’yorlarini voqe bo‘lishi tarzida baholanadi. Nutqning to‘g‘riliqi sifati badiiy uslubda ana shunday o‘ziga xos bir tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy nutqda kuzatiladigan adabiy til me’yorlaridan chekinish holatlari va buning oqibatida yuzaga keladigan estetik ta‘sirning qimmatini idrok etmoq uchun, albatta, adabiy til me’yorlarini puxta bilmoq lozim.

Nutqning aniqligi. Kishilar o‘rtasidagi muloqotni ta‘minlay oladigan nutq to‘g‘ri bo‘lish bilan birga aniqlik sifatiga ham ega bo‘lishi shart. Agar nutq aniq bo‘lmasa, so‘zlovchi yetkazdirmoqchi bo‘lgan muayyan fikr tinglovchi tomonidan to‘lasicha va aynan anglanishi mahol. U holda fikr chala yoki yanglish tushunilishi mumkin.

Real voqelik, tabiat va jamiyatdaganarsa va hodisalarning nutqda to‘g‘ri va yaqqol ifodalanishi aniq nutqning asosiy mohiyatidir. Shuning uchun ham aniqlik kommunikativ sifati nutq va voqelik o‘rtasidagi mutanosiblik zaminida belgilanadi. Bunda asosan, nutqdagi asosiy birlik sanalmish so‘zning to‘g‘ri qo‘llanishi nazarda tutiladi.

Demak, nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma‘nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat’iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir. Ayni nutq malakasining shakllanishida tavsiflanayotgan voqelikni bilish, tildagi so‘z ma‘nolari sistemasini yaxshi anglash, nutq mazmuniga e’tibor bilan qarash hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Ana shunda ifoda uchun eng uyg‘un va almashtirib bo‘lmaydigan aniq so‘zni topish mumkin. Aniq nutqda, avvalo, voqelikdagi narsa va uning nomi bo‘lgan so‘z bir –biriga mos bo‘lishi shart. Nutqni aniq tuza olish uchun, eng avvalo, so‘zning leksik ma‘nosini to‘g‘ri anglay bilish lozim.

Nutq tuzuvchi nutq predmeti va tildagi ma‘nolar sistemasini yaxshi bilsa hamda konkret nutq jarayonida bu predmet va ma‘nolarni to‘g‘ri aloqalantira bilish

ko‘nikmasiga ega bo‘lsagina, uning nutqi aniq bo‘lishi mumkin. Aytish mumkinki, aniq nutq uchun nutq tuzuvchining so‘z qo‘llash mahorati jiddiy ahamiyatga molik.

O‘zbek tilida aniq nutq yaratishga ko‘maklashuvchi vositalar juda ko‘p. Nutq predmetini, ifodalanmoqchi bo‘lgan narsa-hodisani butun ikir-chikirlarigacha, turfa nozikliklarigacha ifodalash imkonini beruvchi sinonimlar qatori mavjudki, ular orasidan nutq predmeti ifodasi uchun eng uyg‘unini tanlash orqali ham nutqning aniqligi ta‘minlanadi. Aniq nutq tuzish uchun qo‘llanilishi chegaralangan so‘zlarning ma‘nolarini etarli darajada bilish bilan bir qatorda ularning ishlatilish o‘rinlarini ham aniq tasavvur etish zarur. Nutqning aniqligi sifati badiiy nutqda mutlaqo o‘ziga xos tarzda, obrazning aniqligi va o‘rnliliga tarzida namoyon bo‘ladiki, bu badiiy adabiyotning mohiyati bilan bevosita aloqador.

Nutqning mantiqiyligi. Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to‘g‘ri va to‘liq anglanilishi uchun zaruriy bo‘lgan sifatlardan biridir. Mantiqiylikdan mahrum bo‘lgan biron-bir nutq kishilar o‘rtasidagi tayinli aloqani ta‘minlay olmaydi. Nutqning mantiqiyligini to‘g‘rilik va aniqlik sifatlaridan ajralgan holda ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki to‘g‘ri va aniq bo‘lmagan nutq hech qachon mantiqiy bo‘lishi mumkin emas. Zotan, to‘g‘ri va aniq bo‘lmagan nutqdan mantiqiylikni izlab topish mumkin emas. Adabiy til me’yorlariga zid tarzda tuzilgan va tegishli birliklar noo‘rin tanlangan nutqqa mantiq begona bo‘lishi tabiiy.

Ikkinchı savolning bayoni

Fikr tarkibi va qurilishining to‘g‘ri ifodalanishi nutq mantiqiyligining asosi deyish mumkin. Nutqda til vositalarining mantiq va to‘g‘ri tafakkur qonuniyatlariga mos tarzda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini baholashning bosh o‘lchovi hisoblanadi. Shunga ko‘ra mantiqiylik sifatini nutqda so‘zlar va gaplar o‘rtasidagi semantik aloqalarning fikrning mantiqiy mohiyatiga hamda uning rivojlanib borishiga qat’iy mosligi tarzida ta‘riflash maqsadga muvofiqdir.

Aytish mumkinki, nutqning mantiqiyligi struktura nuqtai nazaridan ko‘proq tilning semantik sathi bilan bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, nutq tuzuvchi nutqning mantiqiyligiga erishish uchun til birliklarining sintagmatik imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim. Lekin buning o‘zigma yetarli emas. So‘zlovchi, eng avvalo, bayon etmoqchi bo‘lgan fikrini, bildirmoqchi bo‘lgan xabarini va u bilan bog‘liq tafsilotlarni, ayni paytda mantiq qonuniyatlarini yetarli darajada tasavvur etmas ekan, u mantiqli nutq tuza olmaydi. Bu o‘rinda nutq tuzuvchining tafakkur qobiliyati juda muhimdir. Ko‘rinadiki, nutqning mantiqiy bo‘lishi uchun ham lisoniy, ham g‘ayrilisoniy omil ishtirok etadi.

Mantiqiy nutq tuzish uchun so‘zlovchi fikr predmetini atroflicha bilishi, mantiqiy tafakkur qoidalaridan boxabar bo‘lish kabi g‘arilisoniy talablar bilan bir qatorda til birliklarining leksik-semantik mohiyati, ularning sintagmatik xususiyati kabi lisoniy bilimlarni ham nazaridan qochirmasligi kerak.

Umuman, nutqning mantiqiyligi fikr rivojining izchilligi, tushunchalar va fikrlar o‘rtasidagi munosabatlarning mantiqiyligi, nutq predmetining aniqligi, fikr libosining fikricha majburiyatsiz loyiqligi asosida yuzaga keladi. Mantiqiylikdan mahrum bo‘lgan matn nutqiy muloqot uchun yarashiqsiz va yaroqsizdir.

Nutqning sofligi. Har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning asligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o‘z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me’yorlardan kelib chiqadi. Soflik sifati nutqni shunday baholash me’yorlaridan hisoblanadi. Aytish lozimki, nutqning bu kommunikativ sifati adabiy til va nutq Bilan jamiyat munosabatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra nutqning sofligi nutqning adabiy til me’yorlariga va jamiyatdagi ma‘naviy – axloq qoidalariga yot bo‘lgan unsurlardan xolililigi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida baholash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqining sofligi uning ma‘naviy-ma‘rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko‘rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiysi sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

- 1) Shevaga xos so‘z, ibora, grammatik shakllar, urg‘u va talaffuz;

- 2) O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar);
- 3) Jjargon va argolar;
- 4) Dag'al, haqorat so'z va iboralar (vulgarizmlar);
- 5) «Ishlamaydigan» yoki parazit so'zlar;
- 6) Idoraviy so'z va iboralar (kanselyarizmlar) va sh .k.

Nutq tuzuvchi o'z nutqining sofliги haqida qayg'urar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qo'llashdan tiyilishi lozim. Ma'lumki, shevaga xos so'zlar adabiy tilninng leksik me'yorlaridan tashqarida, shuning uchun ham uning nutqda ishlatilishi soflik sifatining buzilishiga olib keladi. Hatto nutqning to'g'ri tushunilishiga ham halaqit beradi.

Ayni paytda ta'kidlamoq joizki, badiiy adabiyot tili mutlaqo o'ziga xos nutq uslubi sifatida shevaga xos so'z va boshqa birliklarning muayyan maqsad bilan qo'llanishiga imkon yaratadi. Sheva so'zлari va grammatik shakllari, ya'ni dialektizmlar badiiy nutqda aniq estetik vazifani ko'zda tutgan holda qo'llaniladi. Ta'kidlash kerakki, dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va aynan qanday turlarining tanlanishi bilan ham bog'liqdir.

Tabiiyki, turg'unlashgan nutqiy qoliplardan qutulish uchun, avvalo, tafakkurdagi qoliplardan voz kechish, mustaqil va ijodiy tafakkur malakalarini oshirib borish zarur. Bunga, ayniqsa, maktabda alohida ahamiyat berilishi kerak. Rasmiy uslubdan boshqa usulublarda qo'llangan tayyor nutqiy qoliplar o'quvchining ijodiy tafakkur ko'nikmalarining tarkib topishi, barqarorlashishiga halaqit beradi. Sof nutqning go'zal namunalari bo'lmish har jihatdan pishiq – puxta badiiy asarlarni muntazam mutolaa qilib borish o'z samarasini beradi.

Nutqning boyligi. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan faq qiladigan unsurlaridan qay darajada foydalilanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al nutq hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi.

Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli «liboslar» topish va kiydirish lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zahirasi mavjud bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, notiq etarli darajadagi so‘zlar, ularning ma‘nolari, so‘z birikmasi va gap modellari, jumlaning intonasiya va melodika turlari zahiralariga sohib bo‘lmog‘i talab etiladi. Leksik, semantik, grammatik, intonasion jihatdan rang-baranglik nutqning boyligini yuzaga keltiradi.

O‘zbek tili har jihatdan, xususan, lug‘at xazinasi nuqtai nazaridan benihoya boy va rivojlangan tildir. Shuning uchun ham bu qadim tilda adabiyot yaratilgan.

Tilimizda muayyan bir tushunchani ifodalashning bir qancha xilma-xil imkoniyatlari mavjudki, ularni ishga solish, nutqning boyligini ishga solish, nutqning boyligini ta‘minlashga xizmat qildirish uchun muntazam e’tibor va sa‘y-harakat lozim bo‘ladi. Shu e’tibor susaydimi, nutqning boyligi tushunchasining mohiyatiga putur etaveradi.

Tilimizdagi sodda va qo‘shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qoliplari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo‘lgan millionlab jumlalar boy nutq tuzish uchun imkoniyatdir.

Uslublar nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo‘lsa, nutqning boyligini ta‘minlash uchun eng qulay makon badiiy uslub ekanligi shubhasiz. So‘zlashuv uslubiga oid nutqda leksik, semantik va intonasion rang-baranglik notiqning mahoratiga ko‘ra muntazam yuzaga chiqishi mumkin. Ilmiy va rasmiy nutqda esa boylikka qaraganda mantiqiylik va qoliplashganlik ustuvorlik qiladi.

Aytish mumkinki, badiiy nutq o‘z tabiat, mohiyati va maqsadiga uyg‘un holda boylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Qashshoq nutq esa hech qachon estetik ta‘sir quvvatiga sohib bo‘la olmaydi, estetik quvvatsiz esa badiiy nutq o‘zining bosh vazifasini bajarishi mushkul.

Nutqning ifodaliligi. Nutqning bu sifati ba‘zan ta‘sirchanlik tarzida ham talqin etiladi. Ammo ta‘sirchanlik keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u yaxlit yaxshi nutqqa xosdir.

Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o‘quvchi ongiga ta‘sir etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda esa nutqning muayyon bir sifati emas, balki barcha kommunikativ sifatlari u yoki bu darajada ishtirok etadi. Zotan, to‘g‘ri yoki aniq bo‘lmagan, boy yoki mantiqiy bo‘lmagan, sof yoki jo‘yali bo‘lmagan nutqning ta‘sirchanligi haqida gapirib bo‘lmaydi.

Ovoz. Ba“zalarga tovush tug,,ma berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. Kishi tovushini kuchli, egiluvchan, jarayonli qila olishi mumkin. O,,qituvchi tovushining o,,ziga xosligi nimada? Avvalo, bu tovushning kuchliligi hamda uning kuchli nutq apparati organlarining aktivligiga bog,,liq. Tovushning uchuvchanligi, bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir. Gipkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushni yengil o,,zlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir. Diapazon – tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi. Tembr – tovush buyog,,i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqligi, o,,ziga xosligi. O,,qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, albatta, tovush gigiyenasiga amal qilish kerak. O,,qituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqtı tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt so,,zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo,,lib qolsa, qisqa va sekin gapisirishi kerak. Dars jadvali qo,,yilishida shunga e“tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so,,ng nutq apparati charchaydi, shundan so,,ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Ko,,p stajli, ya“ni tajribasi ko,,p o,,qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo,,llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e“tibor berish kerak. Diksiya – so,,z, bo,,g,,in, tovushning aytilishidagi to,,g,,ri va aniqlik. Diksiyani takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishslash bilan bog,,liq. Maxsus mashqlar boshqariladi. Ritmika – ayrim bo,,g,,inlarni aytishdagi to,,liq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish etapi.

Nutq tezligi o,,qituvchining individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog,,liq bo,,ladi. Turli millatlarda nutq tempi turlicha bo,,ladi. Ruslarda minutiga 120 so,,z atrofida, ingilizlarda 120-150 so,,zgacha.

Tadqiqotlarga ko,,ra 5-6-sinflarda o,,qituvchi minutiga 60 so,,z, 9-11 sinflarda 75 so,,z gapirishi to,,g,,ri bo,,ladi. Mavzuning murakkab qismini o,,qituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Qoida, qonunlar aytganda, xulosada nutq sekinlashadi. Nutq texnikasi. O,,quv vaqtining ko,,p qismi (1/4, 1/2) da o,,qituvchining nutqi bilan boqliq bo,,ladi. Shuning uchun o,,quv materialini o,,quvchilar tushunishi o,,qituvchi nutqi mukammalligi bilan bog,,liqdir. Ba''zilar tovush va uning tembri tug,,ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to,,liq qayta qurish mumkinligini aniqlamoqda. Bugungi kunda nutq texnikasi bo,,yicha ishslashning teatr pedagogika tajribasi asosida nutqiy nafas, tovush, diksiya, ritmika kabi komplekslarini ishslash ko,,zda tutiladi. Nafas. Nafas organizmga hayot ta''minlab turishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat qiladi. Nutqiy nafas fonosiol nafas deyiladi (fono-tovush). Kundalik hayotda nutqimiz dialogik tarzda bo,,lib, nafas qiyinchilik tug,,dirmaydi. Darsda o,,qituvchi ko,,p so,,zlagan, ma''ruza o,,qigan vaqlarda o,,zgarmagan nafas hamda o,,rganmagan nafas qiyinchilik tug,,diradi: yuz qizarib ketishi, charchab qolish holatlari bo,,lishi mumkin. Nafas jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab nafasning 4 ta tipi ajratiladi: yelka va ko,,krak qafasining yuqori qismini ko,,taruvchi muskullar ishtirok etadi. Bu kuchsiz, yuqori nafas bo,,lib, o,,pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi; ko,,krak orqali nafasni qovurg,,alar orasidagi muskullar amalga oshiradi. Diafragma kam harkatda bo,,lib, nafas chiqarish kuchsiz; diafragmali nafas – ko,,krak hajmining o,,zgarishi, diafragma qisqarishi hisobiga bo,,ladi; diafragma va qovurg,,a orqali nafas – diafragmaning har tomonlama hajmi o,,zgarishi, qovurg,,alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas to,,g,,ri bo,,lib, bu nutqiy nafas uchun asos bo,,lib hisoblanadi. Yosh o,,qituvchilar uchun nafas olish texnikasi ustida qisqacha to,,xtalishga to,,g,,ri keladi: Yuqori nafas – yelkalar va ko,,krak qafasi muskullarining ko,,tarilishi va tushishi orqali amalga oshadi. Bu kuchsiz, yuzaki nafas olishni paydo qiladi, bunda o,,pkaning yuqori qismigina faol ishlaydi. Ko,,krak qafasi bilan nafas olish – qovurg,,a oraliqlari va muskullar orqali amalga oshadi. Bunda ko,,krak qafasi hajmining ko,,ndalang qismida o,,zgarish bo,,ladi.

Diafragma harakatining kamligi tufayli, nafas olish yuzaki bo,,ladi. Diafragma orqali nafas olish – ko,,krak qafasi hajmini uzunasiga o,,zgarishi natijasida diafragma qisqaradi, buning asosida qobirg,,a aro muskullarning qisqarishi kuzatiladi.

Diafragma qobirg,,a orqali nafas olish-diafragma hajmini ko,,ndalang va uzunasiga qisqarishi qobirg,,a oraliq amalga oshadi. Bu eng to‘g’ri nafas olish bo‘lib, hisoblanganligi uchun nutq nafasining asosini tashkil etadi. O,,qituvchilar orasida tabiatan yoqimli, chiroyli ovozli kishilar ko,,p. Lekin ovoz qanchalik yoqimli bo,,lmasin, yillar davomida maxsus mashqlarsiz buziladi, eskiradi, qariydi. Har bir kishining ovozi esa o,,ziga xos jarangdor, kuchli va qattiq va h.k bo,,ladi. Ovoz buzilishning to,,rt sababi aniqlangan: Har kungi ovoz zo,,riqishi tufayli; Ovoz apparatining zaifligi tufayli; Gigiyena qoidalariga amal qilmaslik; Ovoz apparatidagi tug,,ma zaiflik. Ovoz apparatining zo,,riqishi natijasida ovozning buzilishi o,,qituvchilarda 50% tashkil etishi aniqlangan. Bu baland ovoz bilan gapirishning oqibatidir. Insonning ovoz apparati uch qismidan: generator, energetik va rezanator qismlardan iborat bo,,ladi. Ovoz generatsiyasi –ovoz tugunchalari va og,,iz bo,,shlig,,idagi to,,siqlarda paydo bo,,ladi, buning natijasida shovqinli tovushlar yuzaga keladi. Rezanator tizimida – halqum, burun-halqum, og,,iz-bo,,shlig,,i, nutq ritmi va dinamik rivojlanishi ta“minlanadi. energetik tizim– tashqi nafas olish bilan bog,,liq bo,,lib, havo to,,lqinlari va miqdorini tashkil etadi va tovushning kelib chiqishiga sabab bo,,ladi. O,,qitish samaradorligini oshirish va ijobjiy tarbiyaviy ta“sir ko,,rsatish uchun o,,qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ham ega bo,,lishi lozim. Xususan, adabiyot, rasm, tarix o,,qituvchilarigaaktyorlik qobiliyati bo,,lishi zarur. Ma“lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni harakterlayotganda aktyorlik, o‘quvchilarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa rejissyorlik malakalari zarur. Ular aytilganlardan tashqari o,,qituvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi-o,,quvchilarning aql-idroki emas, balki ularning his tuyg,,ulariga ham ta“sir ko,,rsatish, ularga olimga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo,,lish tajribasini to‘liq berishga yordamlashadi. Shunday qilib, o,,qituvchi yuqorida qayd etib

o‘tilgan pedagogik texnika ko„nikmalarini o„zida tarbiyalasa, u yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash, ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi. Yuqorida qayd qilib o„tilgan kasbkorlik malakalari o„qituvchining o„quv va maxsus fanlar bo„yicha bilimlari, pedagogik mahoratni egallahsga intilish, o„z kasbiga qiziqish va burch hamda mas“uliyatni his qilish asosida egallanadi. Va ular yoshlarni o„qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ„ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi. Maktabshunos olimlarning ta“kidlashicha, yuqorida qayd qilib va tasniflab o„tilgan pedagogik texnika malakalarini yakka holda emas, butun tarzda qo„llansa, kutilgan maqsadga erishiladi.

Bu xususiyatlar pedagogning individual psixik fiziologik fazilatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o„qituvchining yoshi, jinsi, mijozи, fe“latvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatiga bog„liqdir. Shunday qilib, o„qituvchi-tarbiyachi o‘zida yuqoridagi malakalarni tarbiyalasa, ularning mazmunini chuqur o‘zlashtirsa, nutq texnikasini egallahning imkonini bo„ladi va u o„qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi. Nutq tushunchasi o„qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog„liq. O„qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki pedagog va o„quvchi muloqoti uchun emotsiyonal psixologik muhit yaratishga, ular o„rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta“sir ko„rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o„qituvchining nutqiy nazokati ham ko„zda tutiladi. O„qituvchining nutqi ma“lum talablarga javob berishi, ya“ni kerakli kommunikativ sifatlarga mos bo„lishi kerak. Nutq bir necha normalarga mos bo„lishi kerak: zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga. Pedagog nutqning to„g„rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o„qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi. Maqsadga muvofiq pedagogik nutq o„zining mantiqiyligi, ishonchligi, kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi. Nutq funksiyalaridan biri – bilimni to„liq holda berilishini ta“minlashdan iboratdir. O„qituvchi nutqining kommunikativ o„ziga xosligi bilan bilimni o„quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o„rtasida to„g„ridan-to„g„ri aloqa bor. Nutq buni ta“minlashi yoki qiyinlashtirishi

mumkin. O,,qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o,,quvchining ongi, sezgisiga ta“sir qilishi, ularni o,,ylash faoliyatiga undashi kerak. O,,qituvchi nutqi ikkinchidan o,,quvchining samarali o,,quv faoliyatini nutqi avvalo darsda samarali o,,quv eshituvchini ta“minlashi kerak. O,,quvchi o,,qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko,,rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o,,zidagi bilim bilan unga munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi. Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish bolalarni charchatadi. o,,quv - bilim jarayonning samarali bo,,lishiga darsda o,,qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta“sir qiladi. O,,qituvchi ko,,pincha «jim o,,tir», «o,,tir», «tugat», «yop» kabi norozilikni bildiruvchi so,,zlarni ishlatib o,,quvchining javobini bo,,ladi. «Har doimgidek hech narsa bilmaysan», «sen buni qayerdan ham tushunarding» kabi gaplarni aytadiki, bular o,,qituvchi o,,quvchi munosabatini buzilishiga, aqliy faollik pasayishiga, nopedagogik vaziyatlar paydo bo,,lishiga olib keladi. Nutqning - o,,qituvchi o,,rtasidagi mahsuldor o,,zaro munosabatni ta“minlashdan iborat. Nutq o,,quvchi - o,,qituvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: o‘qituvchi o‘quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo,,yadi, qanday ogohlantiradi, xohishini qanday bayon qiladi; nutqi impotensiysi, yuz ifodasi, qarashi, ham bolaga ta“sir ko,,rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada katta bo,,ladi. Ko,,p narsa o,,qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qo,,rquvgaga asoslangan, o‘yinga, do‘stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi sotsial xarakterlariga ham bog,,liq bo,,ladi. Og,,zaki nutqning yana bir xususiyati uning improvizatsiya xarakterida ekanlidir. Tajribali o,,qituvchi tekstga yoki konspektga qaramasdan gapiradi, o,,quvchi uni tinglay turib, so,,z va ifodalar birdan tutilayotganligini ko,,radi. Shunday holat vujudga keladiki, go,,yoki o,,qituvchi bu haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o,,quvchilar bilan ochayotgandek bo,,ladi

Nutq tinglovchi yoki o‘quvchining quruq qulog‘ini emas, balki qalb qo‘rg‘onini, aql qal’asini zabit etmog‘i uchun, eng avvalo, uning tarkibi va qurilishi

diqqatni tortadigan, qizg‘in qiziqish uyg‘otadigan bo‘lishi lozim. Bu esa ayni ifodalilik sifatining mohiyatini talqin etadigan xususiyatdir. Demak, ifodalilik nutqning tarkibiy tuzilishi va boshqa lisoniy xususiyatlariga ko‘ra tinglovchi yoki o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatdir.

Tabiiyki, tashviqot xarakteridagi ma‘ruza yoki dars jaorayonidagi bayon nutqida ham ifodalilik alohida zaruriyatga aylanadi. O‘qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o‘z nutqining ifodaliligidagi e’tibor bermasa, ifodalilikni ta‘minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo‘ladi va natijada bunday nutq o‘quvchi diqqatini torta olmaydi.

Mavzu aslida qanchalik qiziqarli bo‘lmasin, mazkur ifodalilik sifatidan mahrum nutq sababli o‘quvchida tayinli qiziqish uyg‘onmaydi, dars tinglovchi uchun zerikarli bir yumushga aylanadi. O‘z-o‘zidan bunday darsning tezroq tugashini kutadi.

Uchinchi savolning bayoni

Tilda ifodalilikni yuzaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko‘p va xilma-xil. Bunday imkoniyat hech bir istisnosiz tilning barcha sathlarida mavjud. Tilning ovush qurilishi, so‘z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonasiya, uslub kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bu manbalarning mohiyati, tabiatи va ularni unumli ishga solish usullaridan xabardor bo‘lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta‘minlashga qiyalmaydi.

Nutqning ifodalilik sifatini yuzaga keltiradigan ko‘chimlar, tasviriy vositalar juda ham xilma-xil, rang-barangdir. Tabiiy, nutqning ifodaliligini o‘ylanar ekan, albatta, qator tasviriy vositalarning me’yorini ham unutmaslik kerak. Muayyan bir matnda bu tasviriy vositalarning barchasidan foydalanishga urinish nutqning ifodaliligidagi, ta‘sirchanligiga salbiy ta‘sir etishi tayin. Keragidan ortiq qo‘llangan vositalar nutqning chuchmallashuviga olib keladi.

Tilning faqat leksik sathigina emas, balki sintaktik sathi ham nutq ifodaliligin ta‘minlashda benihoya keng imkoniyatlarga ega. Sintaktik qurilmalarning rang-barangligi, sinonimikasi ifodalilikni kuchaytirishga qanchalik xizmat qilsa,

muayyan bir sintaktik birlikning atayin qilinadigan takrori ham bu jihatdan shunchalik diqqatga sazovor.

Ifodalilikni yuzaga keltirishda sintaktik figuralar, gapdagi so‘z tarkibi, intonatsion vositalarning rolini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Ifodali nutq tuzish malakasini shakllantirishda tildagi barcha vositalar – leksik-semantik, leksik-sintaktik, sintaktik, intonasion vositalarning imkoniyatlarini to‘g‘ri va to‘la tasavvur etish muhimdir.

2.Nutqning dolzarbliги

“Aloqa” so‘zi ma‘ruzachidan tinglovchilarga ma‘lumot uzatishni anglatadi. So‘zlarni to‘g‘ri tushunish va tushunish uchun, spikerning nusxalari qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerakligini aniqlash kerak. Tinglovchilarga eng yaxshi ta‘sir ko‘rsatadigan maxsus xususiyatlar mavjud. Keling, ularni yaxshiroq bilib olaylik.

1. Nutqning mantiqiyligi. Takliflar izchil bo‘lishi kerak. Odatda, odam ma‘lum bir mavzu haqida o‘z fikrlarini baham ko‘radi, lekin keyin boshqa narsani eslab, boshqa mavzularga o‘tib ketadi va butunlay boshqa narsa haqida gapira boshlaydi. Bunday xatti-harakatlar yomon ta‘mga ega. Nutqning kommunikativ sifat sifatida mantiqiyligi mantiqiy xulosaga bitta mavzuni kiritish, suhabatdoshingizga ovoz berish va keyin ikkinchi rivojlanishni boshlash kerakligini anglatadi.

2. Nutqning dolzarbliги. Har safar biror narsa haqida hikoya qilingan bo‘lsa, hozirgi vaqtida bu mos keladimi-yo‘qmi haqida o‘ylash kerak. Afsuski, odamlar doimo vaziyatni o‘z vaqtida baholaydilar. Misol uchun, bir kishi, suhabatdoshining hayotda nima qilayotganini bilmasligi mumkin, lekin ayni paytda o‘z kasbida o‘z tanlovida tanqidni ifodalaydi. Bundan tashqari, ish kunida sizning hamkasblaringizga anikdornalar aytib, ularni chalg‘itishga hojat yo‘q. Bundan tashqari, ijro paytida gaplashmasligingiz kerak. Nutqning kommunikativ sifatiga moslik, siz hech narsa demaguningizdan oldin har doim so‘zlariningizni tarozida tortish kerakligini ko‘rsatadi.

3. Tinglovchi tinglovchining nutqiga qiziqish bildirishi uchun intonetatsiya, talaffuz, aksan va boshqalar bilan ishslash kerak. Nutqning kommunikativ sifati sifatida tezkorlik maxsus vositalar - ritorik raqamlar va yo'llar bilan saqlanadi. Ular matnni yorqin, aniq va esda qolarli qilishlariga yordam beradi. Izga tushunchalar majoziy ma'noda so'zni ishlatalishdir va ritorik raqam tinglovchilarga hissiy ta'sirlarni kuchaytirish hisoblanadi.

4. Nutqning to‘g‘riliği. Ushbu maqola chiziqlarning to‘g‘ri talaffuzini, grammatik jihatdan to‘g‘ri jumlalarni qurishni, ishlarni kuzatishni o‘z ichiga oladi. Nutqning kommunikativ sifat sifatida to‘g‘riliği zamonaviy adabiy me’yorlarga muvofiq keltirilgan. Go‘zal va to‘g‘ri gapishtish uchun, odamning doimiy gapiradigan tilning klassik qoidalarini yaxshi bilish kerak. Buning uchun lug‘atlar, grammatik qo‘llanmalar va turli o‘quv qo‘llanmalari mavjud.

5. Nutqning boyligi. Insonning o‘zi qanchalik ko‘p ish qilsa, uning fikrlarini ifodalash osonroq bo‘ladi. Bu gap nutqni murakkab va uzoq so‘zlar bilan to‘ldirish kerak degani emas. Fikrlaringizni aniq ifodalashni o‘rganish uchun siz sinonimlarni tanlashni o‘rganishingiz kerak. Bu ortiqcha bo‘lmaydi va san'at asarining ko‘proq kitoblarini o‘qish istagi - to‘g‘ri so‘zlar o‘z-o‘zidan qoldiriladi va ularni eslab qolish shart emas. Nutqning boyligi, uning kommunikativ sifati sifatida, go‘zal va malakali tarzda jumlalarni chiqarish va boshqalarga etkazish uchun yordam beradi.

6. Nutqning sofligi. Sizning suhbатdoshingizni boshqa shaxs bilan yozib olishingiz va natijalarni tahlil qilishingiz tavsiya etiladi. Nutqda shikoyat so‘zları, lahjalar va parazitar so‘zlar yo‘q. Buni har qanday iflos unsurlardan ozod qilish, savodli odamlar aytganidek tinglash va ular bilan ko‘proq muloqot qilishga harakat qilish kerak. Nutqning poklik sifati sizning odamlarga ega bo‘lishni o‘rganishingizga yordam beradi va tezda ular bilan umumiy til topishadi.

Nutqning kommunikativ fazilatlari muloqotni tashkil etishga yordam beradi va uni samaraliroq qiladi. Buning uchun faqat har bir sifatni ishlab chiqish kerak. Aniqlik sifati badiiy nutqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki badiiy asar badiiy tafakkur mahsulidir. Badiiy nutqda obrazlilik birinchi planda bo‘lganligi

uchun so‘z ma‘nosidagi siljishlar, ko‘chishlar ko‘p kuzatiladi. So‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko‘pincha ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmaydi. Badiiy nutq o‘zining ta‘sir etishdan iborat asosiy maqsadiga erishish uchun so‘zning turlicha qo‘llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma‘nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi. Badiiy nutqda so‘zlar o‘z va hatto ko‘chma ma‘nolaridan tashqari o‘ziga xos yangidan-yangi ma‘no qirralarini kashf etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta‘minlashi mumkin: Miryoqub g‘ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kului, injener esa burungi kular yuzini ham no‘qtalab oldi. Bu gapdagi g‘ururining kaltaklanishi va kular yuzini no‘qtalamoq birikmalaridagi ajratilgan so‘zlar kasb etgan ma‘no nozikliklari bilan matnga aniqlik, ta‘sirchanlik baxsh etgan (g‘ururni azobli darajada poymol qilish, keskin va tamoman to‘xtatmoq). Demak, nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma‘nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat’iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir.

Hurmatli byuro a‘zolari! Men Bashirjon akani uzoq yillardan beri bilaman. U kishi juda g‘alati, o‘ziga xos odam. Adabiyotchilar tili bilan aytsak, o‘ziga xos bir tip. Bashirjon o‘tirgan yerida qimirlab qo‘ydi. U tip so‘zini tif deb tushunib: Yolg‘on! Umrimda tif bilan og‘rigan emasman!-deb qichqirmoqchi ham bo‘ldi. (N.Aminov. Yelvizak)

To‘rtinchi savolning bayoni

Chunki aynan pedagogik voqelikda o‘z-o‘zini tahlil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o‘zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan “Men-kontseptsiyasi”ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiyalaridan biridir.

O‘z-o‘zini tahlil etish usullari quyidagilarga e’tibor qaratishni talab etadi:

- 1) ijtimoiylikka yo‘naltirilgan o‘zaroharakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o‘ziga xosliklari, qadriyatlari tizimi kabilarni ob’ekt sifatida ko‘rib chiqish;

2) o‘z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;

3) noma'lumdan ma'lumni ajratib olish;

4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O‘z-o‘zini tahlil etish o‘z-o‘zini anglashdan avval kelib, aynan uning asosida shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko‘rinishga o‘tadi. O‘z-o‘zini anglash natijasida shaxsda o‘zining kimligini anglash, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini tushunib etish, boshqalarning ko‘z o‘ngida kim sifatida gavdalanishini his etish kabilar shakllanadi. O‘z-o‘zini anglash o‘z-o‘ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarni o‘zida aks ettiradi.

Ma'lumki, o‘z-o‘zini anglash usullari ham mantiqiy, ham emotSIONAL darajada o‘z-o‘zini tahlil etish natijasida olingan axborotlarni aniqlashtirish va umumlashtirishni talab etadi.

Ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi tomonidan pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining u yoki bu xatti-harakati o‘qituvchi nazoratida bo‘lib, ijobiy jihatlari rag‘batlantirib boriladi yoki aksincha nojo‘ya xatti-harakati to‘xtatib qo‘yiladi.

Istiqbol – ta‘sirchan pedagogik usul bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma‘lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo‘ladi. Ushbu usul maktab o‘quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo‘lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag‘batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta‘sirning eng an'anaviy usuli bo‘lib, o‘quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta‘sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so‘zsiz bajarilishi uchun o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Nomaqbul xatti-harakat, tartibbuzarlik, o‘z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta‘sir ko‘rsatishni ta‘minlaydi,

uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarini o'rganish pedagogik ta'sir etishda ikki metod: ishontirish va uqtirishdan keng foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Ishontirish - o'quvchilarga xatti-harakatlarning to'g'riliqi va zarurligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorlarning noto'g'riliqini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida o'quvchilarda yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular esa o'quvchilar va ularning atrofidagilar uchun me'yor (mezon) bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, oqibat natijada o'quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga, ya'ni o'quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo'nalgan bo'ladi. Lekin ishontirish va uqtirishning texnologik mexanizmlari turlichadir.

O'sib borayotgan yoshlar ijtimoiy muhit va tabiat bilan ham o'zaro ta'sirlanadilar. Bu o'zaro ta'sir natijasida ularda ishonch, yangi bilimlar va munosabatlar, axloqiy me'yorlar majmui vujudga keladi.

Ishontirish haqiqiy va soxta bo'lishi mumkin. Haqiqiy ishonch realvoqelikka mos keladi va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshiradi. O'zining haqiqiy ishonchiga sodiq bo'lishi uchun kishi hatto o'limiga ham rozi bo'ladi. Masalan, Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalangan askarlarimizning jang maydonida ko'rsatgan matonatlari.

Soxta ishonch esa, avvalo sinf jamoasi, qolaversa, jamiyat uchun zararli bo‘lgan odatlarning shakllanishiga olib keladi. Soxta ishonch o‘quvchilarning o‘zi va atrofidagilar ta‘sirining umumlashuvi natijasida vujudga keladi.

Ayrim o‘quvchilarda soxta ishonch hosil bo‘lishining sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- 1) faqat a‘lo bahoga o‘qish - bu bilim olishda ko‘r-ko‘ronalik, quruq yodlashga olib boradi;
- 2) o‘zini o‘ta itoatkorona tutish - bu o‘quvchi faoliyatini nihoyatda past bo‘lishiga olib keladi. Me’yordagi o‘quvchi o‘qituvchidan ba‘zan tanbeh olib turishi kerak;
- 3) o‘qituvchini aldash-bu o‘quvchini o‘ta aqli va topqirligidan dalolat beradi;
- 4) mакtab ichki tartib-qoidasini buzish faqat kuchli xarakterga ega bo‘lgan o‘quvchigagina xos bo‘lib, u o‘quvchi tomonidan tanqid qilib turiladi;
- 5) haddan tashqari ko‘p mehnat qilish - bu kerak bo‘lmagan tirishqoqlidir. Yuqorida keltirilgan ishonchning bunday turi o‘quvchida shakllanib, astasekin boqimandalik, o‘qish va mehnat faoliyatida sustkashlik kayfiyatini sodir qiladi.

Soxta ishonchni bartaraf qilish uchun o‘quvchi quyidagi uch yo‘nalishda ish olib borishi kerak:

1. Sinf jamoasida sog`lom ijtimoiy fikrni shakllantirish.
2. Muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy hayotiy tajriba yaratish.
3. Soxta ishonchni asosiy tarzda inkor qilish.

Soxta ishonchni o‘zgartirishning quyidagi usullari mavjud:

1) o‘quvchini o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga undash. Uning fikriga qarama-qarshi fikrda bo‘lgan kishi bilan yaqindan tanishish (masalan, bola o‘qishni xohlamaydi, lekin uning tanish o‘rtog`i ko‘p o‘qiydi va biladi, ammo o‘zining “quruq yodlovchi” yoki “o‘ta bilimdon” qilib ko‘rsatmaydi);

2) noto‘g`ri qarashlar va ishonch oqibatda nimalarga olib kelishini ko‘rsatish (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo‘lib, o‘z hayotini barbod qilgan, o‘z erki, g`ururi va vijdonini yo‘qotgan kishilar haqida so‘zlab berish. Buning uchun

hayotiy misollar, badiiy asarlar, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish mumkin);

3) soxta ishonchni yoqlab, himoya qiluvchi o‘quvchi fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni hayratga soluvchi holatga yetkazish. Masalan, barcha o‘quvchilar o‘qituvchilarni aldash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslik nimalarga olib borishi mumkin).

Ishontirishning biron tashkil etuvchisiga amal qilmaslik ham tarbiyaviy ish samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday holatda o‘quvchida faqat bilish shakllangan xolos. Inson o‘zini qanday tutishi lozimligini bilishi, aynan shunday tutishi lozimligini tushunishi, lekin o‘zini bunga majbur qilolmasligi mumkin.

Demak, bu uning irodaviy sifatlari rivojlanmaganligini, xulq-atvor qoidalariga amal qilish malakasi tarkib topmaganligini anglatadi. Ishontirish bilimlar, qarashlar va xulq-atvor me’yorlari tizimi bo‘lib qolmay, balki ularni shakllantirish usullari hamdir. Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki noto‘g`ri fikrlar o‘zgaradi.

Munozara, tortishuv, suhbat, o‘qituvchi hikoyasi va uning shaxsiy ibrat namunasi ishontirish shakllari bo‘lib hisoblanadi. Ishontirish o‘quvchilarga ta‘sir etish metodi sifatida yuqori samara berishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) ishontirishning shakli va mazmuni, o‘quvchilar yosh davriga mos bo‘lishi lozim (kichik maktab yoshida ertak, rivoyat va fantastik hikoyalar misolida, so‘ngra esa borliq dunyoni o‘rganish inson ma‘naviy dunyosini o‘rganish);

2) ishontirish o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘quvchining haqiqiy hayot tarzini o‘rganish zarur;

3) ishontirish umumiyligi tarzdagi qoida va printsiplardan tashqari aniq dalil va misollarni ham o‘z ichiga olishi zarur (o‘qitishdan ko‘rgazmalilikka e’tibor berish);

4) ishontirish jarayonida ba‘zi holatlarda barcha bir xil xabardor bo‘lgan dalil va xulq-atvorni muhokama qilishga to‘g`ri keladi. Bu, o‘z navbatida dalilning haqqoniyligi to‘g`risidagi ikkilanishlarni yo‘qqa chiqarishga va umumiyligi to‘g`ri xulosa chiqarishga yordam beradi;

5) boshqalarni ishontirar ekan, o‘qituvchi o‘z fikriga qat’iy ishonishi zarur.

Ishontirish jarayonini tashkil etishda o‘quvchi ruhiy qiyofasining o‘ziga xosligini e’tiborga olish lozim. Buning uchun pedagog o‘quvchi oliy asab tizimining tipini, uning ta‘lim-tarbiya va kamolotining rivojlanish doirasini bilishi zarur. Masalan: bola kuchli muvozanatlashgan (sangvinik) asab tizimi tipiga ega bo‘lsin. Unda tormozlanish jarayoniga nisbatan qo‘zg`alish jarayoni kuchliroq bo‘ladi. Bu holda o‘qituvchi ishontirish jarayonini o‘quvchi asab tizimini ortiqcha qo‘zg`alishiga yo‘l qo‘ymaydigan, qo‘shimcha hissiyot sodir qilmaydigan tarzda olib borishi kerak.

Fikr sezgi va irodaviy xislatlar bir butun yaxlitlikni tashkil etgandagina, ishontirish metodi haqiqiy harakatlantiruchi kuchga aylanishi mumkin. Bu metodni qo‘llashda ishontirish tarkibi bilish, sezgi, hissiyot, xulq-atvorga amal qilish maqsadga muvofiq.

Ishontirish natijasi o‘qituvchining so‘z mulkiga ham bog`liqdir. Pedagogning so‘zi va ishi ham bir bo‘lishi kerak. So‘z bilan og‘zaki ta‘sir o‘tkazish o‘qituvchining madaniy saviyasida va o‘quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning “aql-zakovati, fikr-tuyg‘ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma‘lum darajada so‘zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi” (Aziz Yunusov). So‘z bilan og‘zaki ta‘sir o‘tkazishni amalda o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llovchi o‘qituvchi o‘z hissiyotlarini, ijodiy ta‘sirlanishini boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi va o‘z his-tuyg‘ularini faqat ta‘lim–tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o‘quvchi qalbini noo‘rin so‘zlar bilan jarohatlab qo‘ymasligi, so‘zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. So‘z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o‘qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: “So‘zlarning ma‘nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo‘lasiz”.

O‘qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so‘z bilan og‘zaki ta‘sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-

pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so‘zlar, notiqlik san’ati asosida ta‘sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta‘qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o‘quvchining erkin mulohazalarini ma‘qullash yoki nojo‘ya harakatlari uchun ayblash so‘zning og‘zaki ta‘sir etuvchi komponentlaridir. So‘z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma‘lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta‘sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko‘rishi lozim.

Ishontirish metodini qayta tarbiyalash, ya‘ni qarash va munosabatlarni shakllantirishda qo‘llash, u yoki bu xislatlarni namoyish qilish zarur bo‘lgan maxsus vaziyatlar yaratish orqali amalga oshirilishi ham mumkin. Tasodifiy vaziyatlar quyidagi yo‘llar bilan yaratiladi: darsda o‘quvchiga kutilmagan savol berish, darsdan tashqaridagi noto‘g`ri xatti-harakatiga iqror bo‘lishiga majbur qilish, o‘yinda esa harakat qilishga undash. Maktab hayotida tasdiqlanganidek, ba‘zan o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga sharoit bo‘limgani uchun ham tarbiyasi og`irlar qatoriga qo‘shilib qolar ekan. Undan darsda ona-sonda so‘rashadi: o‘qituvchi uning bilimiga ishonmaydi, dars paytida unga e’tibor berishga vaqtidan qizg`anadi. Agar o‘quvchiga tez-tez murojaat qilinsa, unga o‘z fikrini bayon qilish taklif etilsa, uning xulqida shakllanib qolgan stereotiplar astasekin o‘zgara boshlaydi.

Uqtirish – kishilarning muloqot faoliyati jarayonida o‘zaro ta‘sir etishlari vositalardan biridir. Uqtirishning o‘ziga xosligi, inson ruhiyatiga uning o‘ziga sezdirmasdan ta‘sir etishi, shaxs psixikasi, tarkibiy tuzilishiga beixtiyor kirib borish va kundalik hayotdagi qiliqlar, intilishlar, motivlar va yo‘l- yo‘riqlarda aks etishidir.

Har qanday pedagogik ta‘sir etishda uqtirish elementi mavjud bo‘ladi. To‘g`ri tashkil etilgan uqtirish o‘quvchilarning ongli ravishdagi faolligini oshirishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

So‘z yordamida o‘quvchida tetiklik yoki qo‘rquv, xursandlik yoki xafalik, o‘ziga ishonch va ishonmaslik, qiziquvchanlik yoki zerikish, boshqalarga ishonish

yoki ulardan hadiksirash kabi sezgilarni vujudga keltirish mumkin. O‘qituvchining yomon kayfiyati to‘lqin kabi bir zumda o‘quvchilarni qamrab olishini ham faqat uqtirish bilangina tushunish mumkin. Yoki asabiylashgan xarakterga ega bo‘lgan guruh rahbari tez orada asabiy holat guruhda muloqot me’yoriga aylanib qolganligidan taajjublanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘z-o‘zini tahlil etish va o‘z-o‘zini anglash pedagogda o‘zi va boshqalarning u haqidagi tasavvuri sifatidagi kasbiy “Men qiyofasi”ning shakllanishiga olib keladi.



Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O‘qituvchi, 2003
- 1.A.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

6-MAVZU: MAKTAB RAXBARLARI VA PEDAGOG XODIMLARNING MUOMILA ODOBI, XULQI VA NOTIQLIK SAN'ATI

Asosiy savollar:

- 1. Muloqot haqida tushuncha**
- 2. Muloqotning kommunikativ tomoni**
- 3. Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish**
- 4. Muloqot kishilarning bir-birini tushunishi**

Muloqot tushunchasini kommunikatsiya tushunchasidan farqlash lozim. Kommunikatsiya tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi, bularning barchasi kommunikatsiyaga misol bo'ladi. Muloqot faqat insonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin. Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir

Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Yangi tug'ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o'z psixik taraqqiyoti bo'yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi.

Muloqotning kommunikativ tomoni birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o'y-xayollar, his kechinmalar bilan o'rtoqlashadilar. Bunda o'y-fikrlar, his-kechin-malarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin.

Ammo shuni e'tiborga olish kerakki insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas. Chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat uzutiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotni shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon deb hisoblashi mumkin emas.

Verbal kommunikatsiya

Inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi. Nutq – inson tomonidan qo'llaniladigan tovush signallari yoki yozma belgilardan iborat bo'lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. U jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi.

Til muomala vositasidir

Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo'lishi kerak. Til so'z belgilari yig'indisidan iboratdir. So'zning ma'nosи uning mazmuniy tomonidir.

Birinchidan, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy-tarixiy tajribasini belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilib olmaydi. U ota-onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiyl bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiyl bilimlarning bu ozginagini qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu erda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi, ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lмаган о'зга кишilarning bevosita tajribalarini belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lда o'rtog'im uchrab menga: «oshxona yopilgan», deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu erda til o'zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikatsiya

usuli yoki olamning xatti-harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir.

Uchinchidan, har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning «shaxsiy» o'z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o'laroq, o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirish va umumiyl fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu erda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to'qnash keldik. So'z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniadi.

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoxud quroldir, nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o'zidir. Bu jarayonda nutq faoliyatining faol va passiv turlari farqlanadi. So'zlovchining nutqi faol nutq, tinglovchining nutqi passiv nutq hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo'linadi. Tashqi nutq – yozma va og'zaki nutqqa, og'zaki nutq esa monolog va dialogik nutqqa bo'linadi.

Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlarini tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim xususiyatlari paydo bo'ladi, ya'ni mazmundorlik, tushunarllilik, ifodalilik, ta'sirchanlik ko'rsatiladi. buyuk frantsuz yozuvchisi antuan sent ekzyuperi «**Muloqot – shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi**», deb yozgan edi. So'zning mohiyati haqida Sa'diy shunday deydi:

«Aqllimisan yoki ahmoq kattamisan yoki kichik buni bir so'z aytmaguncha bila olmaymiz» degan edi.

xalqimizda shunday ibratli ibora bor «inson aql farosati uning nutqining aniqligida namoyon bo'ladi».

Noverbal kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko'z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal

kommunikatsiya – so’zni to’ldiradi, kuchaytiradi va ba’zan uning o’rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo’q degani, ruslarniki teskarisi bo’ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo’ladi. Masalan, bolalar ko’pincha kattalarga ta’sir etish, ularga o’z hohish va kayfiyatlarini o’tkazishda yig’idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so’z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir.

Noverbal kommunikatsiyaga belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo’l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pantomimika (qo’l, oyoq, tana harakatlari) kiradi.

Muloqot kishilarning bir-birini tushunishi bирgalikkagi faoliyatning muvaffaqiyatli ro’y berishi ko’p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotganini, har bir ishtirokchida boshqa ishtirokchi haqida qanday tasavvurlar shakllanayotganligiga bog’liq. Bu esa muloqotning pertseptiv tomonini o’rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni muloqotning ajralmas qismi bo’lib, u muloqotning pertseptiv tomonini tashkil etadi

Pedagogik muloqot – bu muloqotning o’quv tarbiyaviy jarayonlarni hissiy foni va vosita, mazmunini tashkil etadi.

Muloqot muvaffaqiyatli bo’lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo’lishi, ya’ni sub’ekt o’zaro ta’sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o’zi uzatgan axborotni retsipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo’layotganligini qayta axborot ma’lumotlariga asos-lanib bilib oladi. Muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o’qituvchi o’quvchilarini qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa, pedagogik munosabat yaxshi bo’lmaydi

Muomila madaniyati

- Muomla madaniyatida asosiy e’tibor nutqining kommunikativ sifatlari qaratilad:
- -to’g’riligi

- -aniqligi
- -mantiqiyligi
- -ifodaliligi
- -boyligi
- -sofligi

Muloqot bosqichlari

Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti;

Boshqalar bilan muloqot;

Avlodlar o'rtasidagi muloqot

Muloqot ko'rinishlari

- Rasmiy;
- Norasmiy;
- Shaxsiy;
- Ijtimoiy yo'naltirilgan;
- Guruhdagi predmetga yo'naltirilgan

Muomala — odamlar o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan, inson yuragini ko'zguda aks etgandek namoyon etadi. Muomala muloqot jarayonida eng asosiy o'rinni egallab keladi. Kishining so'zidan, muomalasidan uning qanday odam ekanligini bilib olish qiyin emas. Inson kamolotida, hayot rivojida, ish yuritishda, odamlar sihat - salomatligini muhofaza qilishda muomala asosiy omildir.

Muomala — axborot jarayoni. Muomala jarayonida so`zlovchi va tinglovchi o`rtasida ikki tomonlama axborot uzatish va qabul qilish holati yuz beradi.

Muomala — o`zaro muomala - munosabatda so`zlashuv katta axamiyatga ega bo`lib, uni me`yorigayetkazib so`zlashish o`ziga xos san`atdir. Bu san`atni mukammal o`rganish, so`zlash odoblariga o`z vaqtida rioya qilish, allomalarimiz merosidan doimiy ravishda xabardor bo`lishni taqozo etadi. Kishida so`z boyligi so`zlash odobi qancha yuqori bo`lsa, uning jamiyatdagi o`rni shuncha yuksak bo`ladi, o`ziga xos mavqega ega bo`ladi.

Muomala — demak, so`z san`atini mukammal o`rganish - davr talabi va xayot taqozosi, ya`ni xar bir inson uchun zarurdir. Shu bilan birga ona tilini mukammal o`rganmoq, xalqimizning boy intellektual merosidan xabardor bo`lmoq xar bir insonning muqaddas

Muomala — tilni bilgach, uni ishlata bilish san`atini egallamoq inson uchun zarurdir.

Shirinso`zlik va go`zal nutq xech qachon o`zidan o`zi paydo bo`lmaydi. Bunga erishmoq uchun tinimsiz mexnat qilib, ona tilimizni chuqur bilishga asos bo`ladigan, o`tmish merosimizni o`rganish, bugungi til yangiliklaridan xabardor bo`lish bilan birga chiroyli va go`zal nutq so`zlashni xam mashq qilib borishi lozim. Tinimsiz adabiy kitoblarni o`qib borish kerak. Muomala insonning kimligini ko`rsatuvchi omildir. Muomala madaniyatini mukammal o`rganish, nafaqat so`zlovchining xotirini shod qiladi, balki tinglovchining xam ko`nglini va kayfiyatini obod qiladi.

Muomala madaniyati - inson ziynati

Alisher navoiy esa bu borada tiling birla ko`nglingni bir tut, deb fikr bildirgan. Bu so`zlar zamirida ham juda chuqur mazmun-mohiyat bor, albatta. Shuningdek, moxandas gandi o`z tilini idora qilolmagan odamda haqiqat bo`lmaydi, deb ta`kidlagani ham bejiz emas.

Mahmud qoshg'ariy odobning boshi - til, deganlaridek,insonning madaniyatini yuksaklikka chiqaruvchi, unga obro' keltiruvchi ham, shubhasiz tildir. Darhaqiqat, muloyimlik va shirinso`zlilik hikmatning boshi. Bu xislat faqat yuksak fazilatlar egasi bo`lgan odobli insonlarda mujassamdir. Insonning go`zalligi avvalo, uning tilida va hatti-harakatida bilinadi. Yaxshi so`z va chiroyli muomala har qanday odamga ziynat bag'ishlaydi.

Inson ulg'aygan sari qalban pokizalikka ehtiyoj sezadi. Mansab, martaba, mashhurlik, sohta obro' ortidan quvish va boshqa ustunliklarga erishishga moyillik o'rnini asta-sekin muloyimlik, mulohazakorlik, to'g'rilik va halollik egallaydi

Agar biz ma'nan pokiza bo`lsak, turli tartib-qoidalar, pandu nasihatlarsiz ham hayotda yaxshi inson darajasiga ko'tarila olamiz. Zero, buyuklar aytib o'tganidek:

So'z qattig'i el ko'ngliga

Ozor aylar,

Yumshog'i ko'ngillarni

Giriftor aylar.

Rivoyat qiladilar: qadimda bir podsho o'z xizmatkorlariga «menga ko'y go'shtining eng shirin joyidan pishirib keltiring», deb buyruq beribdi. O'ylab o'ylariga eta olmagan xizmatkorlar vazirga murojaat etibdilar. Vazir ham jumboqni echa olmay boshi qotibdi va o'zining aqli, dono, ko'p kitob o'qib ulg'aygan qizidan so'rabdi. Qiz: «Qo'yni so'yib, uning tilini podshohimizga pishirib keltiring», debdi. Xuddi shunday qilishibdi. Ertasiga podsho «Qo'y go'shtining eng achchiq joyidan pishirib keltiring», debdi. Xizmatkorlar yana hayron qolishibdi. Vazirning qizi esa: «yana bir qo'yni so'yib, tilini pishirib beringiz», debdi. Shunday qilishibdi. Podsho bunday aqlning kimdan chiqganini surishtirib bilgach, qizga, uning aqlu-farosatiga ofarinlar aytib, katta to'y-tomoshalar bilan uni o'g'liga olib beribdi.

Agar qiz bola go'zal, xushqomat, zebi-ziynatlari ham joyida bo'lsa-yu, muomalasi qo'pol, zardali yoki beandisha bo'lsa, bitta so'z bilan atrofdagilar dilini og'ritsa — ishoning, uni hech kim, hech qachon go'zallar safiga qo'shmaydi, undan ko'ngli qoladi. Yana kishi odatda libosiga qarab kutib olinishini, biroq kuzatuv aqlga qarab ekanligini eslang. Hech narsa kishi aqlini muomalachalik namoyon etmaydi. Qizlar o'zlariga qanchalar oro bermasinlar, muomala madaniyatini, muomala san'atini bilmasalar hech qachon o'zgalar hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lolmaydilar. Yigitlar muhabbatini qozonish uchun ham avvalo qizlarda muomala madaniyati yuksak bo'lishi lozim.

Yoshlikdan noo'rin, qo'pol, ibosiz so'zlarni tilga olmaslikka odatlangan ma'qul. Chiroyli, ma'noli, kishi ruhini ko'taradigan so'zlar bilan fikrni izhor qilishga, deyarli hammaga sizlab gapishtirishga o'rgansangiz hayotda, mehnatda o'z o'rningizni topib ketasiz. Muomalasi shirin ayolni «dilbar ayol», deyishadi. Ishoning, shunday unvonli ayol, albatta, baxtli bo'ladi. Muomalani bilmaslik, tilni tiya olmaslik, o'ylamay-netmay so'zlash oqibatda yomon xatolarga, fojealarga olib

kelishi mumkin. Buvilar, onalar siz tengilarga o'git aytganda «kelin baxti — tilida!», «oldin o'yla — keyin so'yla!» kabi hikmatlarni ko'p aytadilar. Muomala madaniyati, uni egallah zarurati haqida murabbiylar ko'p gapishtadi. Muomala ahillik, totuvlik, do'stlik manbai. Yaxshi muomala bilan ne-ne dillar qulfiga kalit topiladi, ne-ne orzularga yo'l ochiladi.

Lekin muomalada ham me'yordan chiqmaslik zarur. Haddan tashqari shirinso'zlilik, tilyog'lamalik, aytgan so'ziga avvalo o'zi amal qilmaslik — har qanday odamni obro'sizlantirib qo'yadi. Fikringizni shoshmasdan, o'ylab, samimiyat bilan aytishni o'rganing. Jahlni yutib, aql ishlata digan, yo bir gapdan qoladigan, o'rni kelganda haq gapni aytishdan cho'chimaydigan odamlar lafzi halolligi, muomalasi yaxshiligi bilan obro'-e'tibor topadilar. Yaxshi muomala — bahtu saodatning kaliti

■ “*Aqllimisan, yoki ahmoq, kattamisan yo kichik, buni bir so'z aytmaguningcha bila olmaymiz*”

(Sa'diy)

“Ovoz bilan gapiramiz, tana bilan suhbatlashamiz”

(publitsiy)

«Yaxshi suhbatdosh — yaxshi gapishtni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir».

(Deyl Karnegi)

Nizo va muloqot usullari

- O'zgalarning uy xoxishlariga xAMDARDLIK bildiring.
- Odamlarni ruhlantiradigan gaplar toping.
- O'z g'oyalaringizni bo'rttirib, ta'sirchan qilib ifodalang.
- O'zgalarni befarq qoldirmang, dadil xarakat qiling

Suhbat paytida o'zni tutish qoidalari

1-qoida.

hayajonlanmang.

O'zingizni erkin his qiling.

Auditoriyaga kirishdan oldin hayajonni jilovlab oling.

Odamning ko'zlariga qarang.

Tabassum qiling.

2-qoida.

Xushmuomala bo'ling.

Notiqlik san'ati va nutq madaniyatini yaxshi egallagan rahbar so'zamolligidan, so'zning qudratidan foydalanib, korxona-tashkilotni yaxshi boshqarishi mumkin bo'ladi. Lekin, ochiq aytish kerakki, notiqlik san'ati va nutq madaniyatini egallah oson ish emas. Ayniqla, texnika, aniq fanlar, jismoniy madaniyat yo'nalishida o'qigan rahbarlar nutqi, hammasiniki emas, ba'zilariniki, bugungi kun talabiga umuman javob bermaydi.

Notiqlik faqat rahbar uchungina emas, balki barcha soha-o'qituvchilar, tibbiyo't xodimlari, qolaversa, ota-onalar, bog'cha tarbiyachilari uchun ham, nihoyatda kerakli va zarurdir. Har bir ota-ona farzandiga tarbiya berishi uchun ham u farzandiga o'z fikrini to'g'ri, sodda, tushunarli tarzda uqtirishi lozim bo'ladi.

Jamiyatdagi barcha kasb egalari uchun ham notiqlik zarur. Insonlar bilan muloqot qilmaydigan notiqlik, nutq kerak bo'lmaydigan kasb yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Notiqlik qobiliyati, iste'dodi bo'limgan kishi, bizningcha, o'qituvchi bo'limgani, boshqa kasb egasi bo'lgani yaxshi. O'qituvchilik faqat havasdan iborat emas. O'qituvchilik katta mas'uliyat, katta sharaf. Ustoz otangdan ulug', degan gap xalqimiz tomonidan kashf etilgan. O'qituvchida, ustozda, murabbiyyda hamma narsa – so'z, til, did, ko'rinish, muomala, insoniylik go'zal bo'lishi kerak.

Ko'p so'zlab kishi dono bo'lmaydi,

Ko'p eshitib, dono barchaga bosh bo'ladi,

- deydi Yusuf Xos Hojib.

Hikmat. Bir hakimdan so'radilar: "Aqlli kishi kim? Hakim dedi:
"So'zni me'yo'ri bilan so'zlagan, hayot qadrini anglagan, butun kuch va qudratini ilm va kamolot hosil qilishga sarflagan kishidir"", deydi Majididdin Havofiy.

So'zda kerak ma'noyu ma'nida zavq,
So'zlaguvchida so'z uchun dardu shavq,
degan edi Haydar Xorazmiy.

Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi Muhsiniy" asarida o'z tajribasidan kelib chiqib, shunday yo'zadi: "Sendan til odobi qanday bo'ladi?", deb so'rasalar, shunday javob ber: yaxshi fikrni ifodalash uchun og'izni ochish lozim, yo'mon gap uchun og'izni berk tutgin. Agar sendan: nimalardan tilni tiyish darkor, desalar, shunday degin: birinchisi, yo'lg'on gapishtidan, zero, yolg'onchilik odamning o'ziga dushmandir; ikkinchisi, va'daga xilof ish qilishdan, chunki bu ikki yuzlamachilikdir; uchinchisi, g'iybat va bo'htondan. Zero, bu fosiqlar ishidir; to'rtinchisi, janjaldan, xusumatdan, maqtanchoqlikdan, yomon duo va haqoratdan, odamlarning ranjishiga sabab bo'ladigan kulgu va masxaralashdan tilni tiymoq lozim.

"Mahzan al-ulum" – "Ilmlar xazinasi" kitobida: "So'zlash odobi shundayki, so'zni kam so'zlasin, chunki laqmalik tentaklikning nishonlaridan biridir". Buzurgmehr: "Bir kishini ko'rdingki, nihoyatda ko'p gapirmoqda, bilgilki, u devonadir!", degan edi. Kishi demoqchi bo'lgan narsasini aql tarozusida yaxshilab tortmagach, uni bayo'n qilish nomaqbuldir.

Hakimlar: "Ko'p o'yla, so'ng so'zla", deyishgan. Ehtiyo'j paydo bo'lmasdan bir so'zlagan so'zni takror gapirmsasin. Biror kishi biror voqeani bayo'n qilishga kirishsa, eshituvchining bundan xabari bo'lsa-da, xabardorligini undan yashirsin. Chunki gapiruvchi xijolat chekishi mumkin. O'zga kishidan so'rалган so'zga javob bermasin. Agar savol ko'pchilikka tashlansa, u mazkur savolga javob berishga qodir bo'lsa ham, hammadan avval javob berishga shoshilmasin. Biror kishi javob aysa, qoniqarli bo'lmasa yo'ki unga qo'shimcha qilishga qodir bo'lsa, ohista javobini aysin. Kattalarga kinoyali so'z

aytmasin. Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zni misollar vositasida ravshan qilsin. Munozarada chegaradan tashqari chiqmasin. Har bir kishiga uning fahmi etadigan darajada so'zlasin. Bir hakimdan so'radilar: "Nega sen gapirishdan ko'ra ko'proq eshitasan? U dedi: "Chunki menga ikkita quloq, bitta til hadya etilgan" dedi. Bu fikrlar notiqlik san'ati va nutq madaniyatini egallashi zarur bo'lgan nafaqat rahbarga, balki barchaga kerak bo'ladigan hikmatli fikrlardir.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati rahbar faoliyatida katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Chunki jamiyat taraqqiy etgani sayin nutq madaniyati ham rivojlanib, takomillashib, ta'sir doirasi kengayib bormoqda. Rahbarning bilim darajasi, salohiyati uning nutqida, amalga oshirilayo'tgan bunyo'dkorlik ishlarida ko'rindi. Rahbar jamiyat taraqqiyo'tini boshqarishga katta hissa qo'shadigan shaxs. Rahbarlik faqat buyruq berish, ish buyurishni o'zigagina emas, balki o'rnak ko'rsatish, namuna bo'la olishni biladigan, ko'ngil so'rashni, o'z qo'l ostidagilarga g'amxo'rlik qila olishni, keragida qattiqqo'l, keragida ko'ngilli bo'lish qo'lidan keladigan keng mushohada, o'ta aqlli, sinchkov, fahm-farosati o'tkir, fizionomiyanı yaxshi bilgan va yaxshi o'zlashtirgan, notiqlik san'ati va nutq madaniyatiga har doim amal qiladigan shaxsga yarashadi.



II.AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

1-MAVZU: NUTQ MADANIYATI – AMALIY JIHATDAN NUTQNING XILMA-XIL MUAMMOLARINI TADQIQ QILUVCHI FAN

Asosiy savollar:

- 1.Bir tilda so‘zlash va yozish**
- 2.Fikrni soda, aniq va tushunarli ifodalash**
- 3.Nutqning qisqaligi, ixchamligi, aniqligi va milliyligini ta‘minlash**

Tayanch so‘z va iboralar: me’yor, me’yoriy ko‘rinishlar, imlo, urg‘u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so‘z turkumlarida me’yor, so‘zlarning bog‘lanish qonuniyatları, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, so‘z tartibi, nutqiy kamchiliklar – og‘zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar,

Ishni bajarish tartibi:

1. Tildagi mavjud til hodisasining nomi.
2. Nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning ya‘ni aniq nutqiy ko‘rinishning nomi.
3. Madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo‘lgan aniq tasavvurlarning nomi.
4. Tilshunoslikning ilmiy tadqiqoti bo‘lgan ob’ektiv nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlar va muammoning nomi.
5. Nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadigan tilshunoslik sohasini nutq madaniyati nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Notiqlik san’ati dastlab qaerda shakllangan?
2. Notiqlikning san’at darajasiga ko‘tarilishiga kimlar sabab bo‘lgan?
3. Qadimgi Yunon va Rim notiqligi haqida nimalar bilasiz?
4. Notiqlik oldiga qo‘yiladigan qanday talablarni bilasiz?

Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O‘qituvchi, 2003
- 2.A.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

2-MAVZU: ADABIY NORMA VA NUTQ MADANIYATI. XALQ OG‘ ZAKI IJODIDA NUTQ ODOBI MASALALARI

Asosiy savollar:

- 1.Me’yor tushunchasi.**
- 2.O‘zbek adabiy tili me’yoriy ko‘rinishlari.**
- 3.Nutq jarayonida me’yorning buzilishi va ularni tuzatish yo‘llari.**

Tayanch so‘z va iboralar: me’yor, me’yoriy ko‘rinishlar, imlo, urg‘u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so‘z turkumlarida me’yor, so‘zlarning bog‘lanish qonuniyatları, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, so‘z tartibi, nutqiy kamchiliklar – og‘zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar, varvarizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, jargonizmlar, orfografik va punktuasion me’yorlar buzilishi.

Ishni bajarish tartibi:

- 1.Til va nutq tizimida me’yor o‘ziga xos o‘rniga ega ekanligini izoxlash.
- 2.Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila olish tarixi haqida fikr bildirish.
- 3.Til hodisalarini uning me’yoriy jihatlarini tadqiq etish.
- 4.Yana tilning milliy xususiyatlarini ifodalash.
- 5.Tildan foydalanishdagi an’anaviy me’yorlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib turishini ifodalash.



Nazorat savollari.

1. Nutqning asosiy xususiyatlari qaysilar?
2. Adabiy til me'yirlari haqida gapiring.
3. Nutqning aniqligi deb nimaga aytamiz?
4. Nutqning mantiqiyligi nima?
5. Nutqning sofligiga nimalar putur yetkazadi?

3-MAVZU: G‘ ARB MADANIYATI TARIXIDA NOTIQLIK SAN’ATINING O’RNI

Asosiy savollar:

1. **Qadimgi dunyo notiqlik san’ati.**
2. **Afina va Rimda notiqlikning qadrlanishi.**
3. **Gretsiya notiqlik san’atining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan buyuk zotlar.**
4. **Rim Respublikasining mashhur notiqlari.**

Tayanch tushunchalar: Notiqlik, notiqlik tarixi, san'ati mohiyati, mazmunli, ixcham, badiiy yetuk, o'ziga jalg etish, nutq madaniyati va notiqlik san'ati, yunon notiqligi, Rim notiqligi, Sharq notiqligi

Ishni bajarish tartibi:

1. Notiqlik tarixini o'rganadi
2. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati, uning ilk manbalari
3. Qadimiy davrlardagi notiqlik san'ati va notiqlik haqida malumotlar to'plash.
4. Yunon notiqligi o'rganish
5. Rim notiqligi o'rganish

Nazorat uchun savollar:

1. Notiqlik san'ati dastlab qaerda shakllangan?
2. Notiqlikning san'at darajasiga ko'tarilishiga kimlar sabab bo'lgan?
3. Qadimgi Yunon va Rim notiqligi haqida nimalar bilasiz?
4. Notiqlik oldiga qo'yiladigan qanday talablarni bilasiz?



Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 2003
- 2.A.Xo'jayeva. Notiqlik san'ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

4-MAVZU: SHARQ MADANIYATI TARIXIDA NOTIQLIK SAN'ATINING O'RNI

Asosiy savollar:

- Notiqlik san'atining Sharq mamlakatlarida vujudga kelishi.**
- Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'ati va uning o'rni.**
- Alisher Navoiy davri notiqligi.**
- Sharqda notiqlik san'ati iste'dod egalari.**

Tayanch tushunchalar:

Va‘z, odatd, jamoat, diniy yoki nasihatimiz nutq, voiz, va‘z qiluvchi, va‘z aytuvchi, va‘zxon, vazgo‘y., notiq, yig‘ilish, majlis, miting, shaxs; so‘z san'ati,

Ishni bajarish tartibi:

1. G‘arb faylasuflarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.
2. Sharq mutafakkirlarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.
3. Biror mashhur donishmandning notiqlik haqidagi fikrlarini slaydlarda ifodalang va izohlang.
4. Notiqliknинг paydo bo‘lishi nimalar bilan bog‘liq?
5. Buyuk yunon notiqlaridan kimlarni bilasiz?

Nazorat uchun savollar:


1. Notiqlik nima sababdan yunonlar orasida keng rivojlangan?
2. Rim notiqligining o‘ziga xosligi nimalarda ko‘ringan?
3. Rim notiqligining vakillari kimlar va ularning qaysi jihatlariga qida ma‘lumotlar qolgan?
4. O‘rta Osiyo notiqligining paydo bo‘lishi va uning o‘ziga xosliklari nimalarda ko‘rinadi?
5. Sharq olimlarining notiqlik va nutq odobi to‘g‘risidagi qanday

fikrlarini bilasiz?

6. Sharq va G‘arb notiqlarining qanday o‘xshash va farqli jihatlarimavjud bo‘lgan?



O‘z o‘ziga ishonch hosil qilish va Notiqlik san’ati




Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O‘qituvchi, 2003
- 2.A.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

5-MAVZU: NAVOIY IJODIDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI MASALALARI

Asosiy savollar:

1. O‘zbek shoiri va mutafakkiri ijodida nutq madaniyatining yorilishi.
2. Ulug‘ shoirning tilga munosabati.
3. Alisher Navoiyning Nutq madaniyati va voizlarga munosabati.
4. Alisher Navoiyning «Mahbubul qulub» («Ko‘ngillarning sevgani»)



Tayanch tushunchalar: notiqlik turlari, siyosiy- ijtimoiy notiqlik; akademik notiqlik; sud notiqligi; ijtimoiy-maishiy notiqlik; diniy notiqlik, dialogoik, monologik nutq.

Ishni bajarish tartibi:

1. Kaykovus nutq madaniyati haqida fikrlarini ayting.
2. Qadimgi Yunonistonda notiqlik san’ati haqida qanday qarashlarbo‘lgan.
3. Siseronning notiqlik haqida qanday asari mavjud.
4. Alisher Navoiy chiroyli so‘zlash, so‘zning sehrli kuchi haqida yozgan she’rlaridan keltiring.

Nazorat uchun savollar:

1. So‘zning qadr-qimmatini, kuch-qudratini munosib ravishda yuksak anglashni, tushunishni kimdan o‘rganamiz?
2. So‘z madaniyatining bobokaloni Alisher Navoiy tilga qanday baho bergen?
3. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning nutq madaniyati va notiqlik san’atiga oid fikrlarini ayting.

Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O‘qituvchi, 2003
- 2.A.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

6-MAVZU ;YOZMA NUTQ MADANIYATI.O‘ZBEK TILIDA ISH YURITISH

Asosiy savollar:

- 1.Nutq aloqasi ikki shaklda og‘zaki va yozma.
- 2.Og‘zaki nutq haqida va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
- 3.Yozma nutq me’yorlari.
4. Suhbat va uning oldiga qo`yilgan talablar

Tayanch iboralar:

Suhbat, muhokama, munozara, yozma nutq, ogzaki nutq, tashviqiy nutq, tanqidiy nutq, tabrik nutqi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Mavzudan chetga chiqmaslik.
2. Mazmunni ochuvchi, fikrni isbotlovchi dalillarning yetarli bo`lishi.
3. Dalillardan mantiqan xulosa chiqarish.

4. Nutqning ifodali tizimli, hayajonli bo`lishi.
5. Nutq shaklining ixcham, qiziqarli bo`lishi.
6. Nutq egasining vazmin, og`ir bo`lishi.

Nazorat savollari.

1. Suhbat oldiga qanday talablar qo`yiladi?
2. Muhokama nutqi oldiga qanday talablar qo`yiladi?
3. Munozara nutqi oldiga qanday talablar qo`yiladi?
4. Notiqlik va uning oldiga qo`yilgan talablar haqidama‘lumot bering.

Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O‘qituvchi, 2003
- 2.A.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

7-MAVZU: O‘QITUVCHINING NUTQ TEHNİKASI VA UNING XUSUSIYATLARI

Asosiy savollar:


1. Nutq texnikasida ovozning o‘rni
2. Nutq jarayonida nafas olish va nafas chiqarish
3. Tovushlarni aniq talaffo‘z qilish

Tayanch so‘z va iboralar

Texnika, nutq texnikasi, odob, fikr ifodalash shakllari, og‘zaki nutq, matn, yozma nutq shakllari, o‘qituvchining ovozi, o‘qituvchining talaffuzi, o‘qituvchining diktsiyasi.

Ishni bajarish tartibi:

1. O‘qituvchi odobi degani nima tariflab bering.
2. Fikrni qanday ifodalash usullarini aytib berish
3. O‘qituvchining nutq odobi bilan o‘zining odobi haqida qanday bog‘liqlik borligini izoxlash
4. O‘qituvchi nutq texnikasiga nimalar jiradi bosqichlar bilan izoxlang



Nazorat savollar:

1. Nutq texnikasi deganda nimani tushunasiz?
2. O‘qituvchining talaffuzi qanday bo‘lishi kerak?
3. Nutq texnikasi necha xil bo‘ladi?
4. Kognitiv ta‘lim tizimi afzalliliklari nimada?

Adabiyotlar.

- 1.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O‘qituvchi, 2003
- 2.A.Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati. T., 2006.
- 3.N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: 2009.

III. TOPSHIRIQLAR



1.topshiriq. Nutqning to`g`riliqiga putur yetkazuvchi, leksik me`yordan tashqari bo`lgan so`zlarga 20 ta misol yozing.

2.topshiriq.

Quyida berilgan so`zlarning o`rniga tavsiya etilgan, o`zbek tilining leksik me`yoriga aylangan so`zlarni toping: Avtor, gonorar, gruppa, ministr, oblast, programma, plan, redaktor, sekretar, tekst, tema, raport, rayon, komitet, apteka, ostanovka, programma, ,bilet

3.topshiriq.

1. “Sabr”, “toqat”, “chidam”, “bag`rikenglik”, “tolerantlik” so`zlari ishtirokida gaplar tuzing.

2. “Bosh”, “o`rtoq”, “yuz” so`zlarining sinonimlarini toping va ularni qo`llab gap to`zing.

4.topshiriq. Matbuot sahifalaridagi g`aliz va chalkash, nutqning aniqligi buzilgan namunalardan misollar keltiring.

5.topshiriq. “*Intervyu*”.

Maqsad – biron bir rahbar, olim, artist, muallim yoki istalgan boshqa soha vakilidan intervyu olish. Intervyu kimlarga namoyish etish uchun olinayotganidan

kelib chiqib, suhbat maqsadi va strategiyasini belgilang. Maqsad va strategiyadan kelib chiqib 4-5 ta asosiy savollarni tayyorlang. Mazkur savolnoma asosida sherik bilan suhbat o`tkazing (namuna sifatida jurnal, gazetada chop etilgan intervylardan foydalanish mumkin).

6.topshiriq. “*Ommabop nutq*”.

O`z sohangiz, kasb-koringizga mos mavzular asosida ommabop og`zaki nutq tayyorlang.

7.topshiriq. *Matnni kengaytiring, bozor to‘g‘risida 200 ta so‘zdan iborat matn yozing.*

Shunday qilib, bozor – bu Tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan joy. U bo‘lmasa Tovar va xizmatlarning oldi-sotdisi yo`z bermaydi, takror ishlab chiqarish sodir bo‘lmaydi. Bozor Tovar va xizmatlarni taklif etuvchilar taqdirini belgilovchi toshu tarozi, oily hakam bo‘lib hisoblanadi.

8.topshiriq. *Berilgan gaplarda nutqning qaysi kommunikativ sifati buzilgan? Ushbu gaplarning to`g`ri variantlarini yozib chiqing.*

Bolajonlar, endi o`rgangan so`zlaringizni bir chizib beringlar-chi? deb vazifa topshiradi.

Hikoya va suhbatdan tashqari, o`zbek tilini yaxshi o`rganish, unga qiziqishni uyg`otish maqsadida til o`rganishga oid o`yinlar, kichik-kichik she’rlar, badantarbiya va ashulalar berib boriladi.

O`n kishiga mo`ljallangan mazkur maxsus joylarning har birida o`ntadan odam o`yinlarni bemalol tomosha qilishi mumkin.

Imzoga qo`l qo`yish mahalida gurs etib yerga quladi.

9.topshiriq. “*Rolli nutq*”.

Bunda biron predmet nomidan nutq tayyorlanadi. Tasavvur qiling, siz soat, qog`oz, o`yinchoq yoki avtomobilsiz. Agar siz qog`oz bo`lsangiz, qanday

holatlarga tushishingiz, qanday voqealarni boshingizdan kechirgan bo`lishigiz, bunda qanday tuyg`ularni his etishingiz mumkin. Shu haqda so`zlab bering

10-topshiriq.

1. Yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo`ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulaedan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta`sir qilmay qolmaydi(abu Rayhon Beruniy)
2. Agar so‘zni va ilmni yaxshi bilsang ham hech bir so‘zni buzma to‘g‘ri ta‘rifla. So‘zni bir xil gapir.(Kaykovus)
3. Bilib so‘zla, so‘z bilig sanalur.(Yusuf hos-Hojb)
4. So‘zlariningda bo‘lsin fikr u o‘y yoniq, bo‘lsin har so‘zingda bir nuqta aniq.(X. Dehlaviy)
5. Agar tilni asramoq ko‘ngulga mehnatduri, ammo so‘zni siypamoq boshqa ofatduri.(A. Navoiy)

11.topshiriq

1. Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.(Ko‘chma ma‘noda qo‘llangan)
2. Odamning qo‘li-gul(Ko‘chma ma‘noda). Xalqim eking gul(o‘z ma‘noda), yashasin tobora obod shahrimiz.(S. Zunnunova)
3. Nimani aniq tasavvur etolmasang uni shu qadar chalkash o‘z ma‘nosida gapirasan noaniq va chalkash ifoda faqat fikrning belgisidir.
4. Nodonlardek yuzlab so‘zni qilma qator, donolardek bir so‘z degil lek ma‘nodor.(S. Sheroyi).(o‘z ma‘noda)

12.topshiriq. “*Nutq va muomala odobi – o`qituvchi nutqi madaniyatini belgilovchi fazilat*”. Ushbu mavzuda yozma nutq tayyorlang. Nutqingizda nutq madaniyatining o`ziga xos xususiyatlarini namoyon qiling.

13.topshiriq. “Mening ibratli ustozim”

Sizga ta‘lim bergen va berayotgan ustozlaringiz orasida o‘z nutqini ko`rkam yuz ifodalari hamda xatti-harakatlar bilan qo`shib namoyon etuvchilar bormi? Ularning sizga yoqqan tomonlarini so`zlab bering.

IV.MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI



MUSTAQIL TA‘LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ✓ darslik va o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha fan boblari va mavzularni o‘rganish;
- ✓ tarqatma materiallari bo‘yicha ma‘ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- ✓ maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari bo‘yicha yoki mavzulari ustida ishslash;
- ✓ talabalarning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;
- ✓ faol va muammoli o‘qitish uslublaridan foydalanidigan o‘quv mashg‘ulotlari.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Kurs bo‘yicha mustaqil ish hajmi 60 soat belgilangan. Mustaqil ish topshiriqlaridan tashqari uyga vazifa sifatida asat tahlili, ko‘rgazmali qurot tayyorlash, Internetdan ma‘lumot olish va uni tahlil qilish, ma‘ruza yozish, esse yozish, seminarlarga tayyorgarlik ko‘rish kabi ishlar belgilangan.

Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta‘lim davomida talabalar o‘quv dasturiga kirmagan mavzularni qo‘shimcha adabiyotlar asosida mustaqil o‘rganadilar. Mustaqil ta‘lim ikki usulda: Referat va nazorat ishi ko‘rinishida bajariladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma‘ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;

- talabalarning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;

- faol va muammoli o‘qitish uslublaridan foydalanadigan o‘quv mashg‘ulotlari.

1. Nutq madaniyati tarixi
2. Notiqlik sana‘ti to‘g‘risida
3. Buyuk allomalarimizning til, nutq, so‘z haqidagi fikrlari.
4. Nutq madaniyati fanining predmeti va vazifalari.
5. Til nomasi.
6. Nutq madaniyati fanining boshqa faknlar bilan aloqasi.
7. Til va nutq.
8. Ichki nutq.
9. Tashqi nutq.
- 10.Til madaniyati va nutq madaniyati
- 11.Nutq faoliyati
- 12.O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqati va nutqiy faoliyati.
- 13.Nutqning og‘zaki va yozma shakillari. Ularning xususiyatlari.
- 14.Kishilarining so‘zlashish faoliyati monolog.
- 15.Kishilarining so‘zlashish faoliyati diolog
- 16.Kishilarining so‘zlashish faoliyati polilog.
- 17.Nutqning uslubiy turlari.
- 18.So‘zlashuv uslubi.
- 19.Rasmiy uslub.
- 20.Ilmiy uslub.
- 21.Publisistik uslub.
- 22.Badiiy uslub.
- 23.O‘qituvchi nutqining fazilatlari.
- 24.Til sistemasi. Uzus
- 25.Til normasi.


- 26.Umumiy norma.
- 27.Adabiy norma
- 28.O‘qituvchi nutqining to‘g‘riligi
- 29.Talaffuz normalari.
- 30.Kelishik normalari .
- 31.Egalik qo‘simsasidan foydalanish normalari.
- 32.O‘qituvchi nutqining sofligi.
- 33.O‘qituvchi nutqining aniqligi.
- 34.O‘qituvchi nutqining mantiqligi
- 35.O‘qituvchi nutqini ifodaliligi
- 36.O‘xshatish
- 37.Metofora
- 38.Sinkdoxa
- 39.Metonimiya
- 40.O‘qituvchi nutqining boyligi
- 41.O‘qituvchi nutqining o‘rinliligi
- 42.O‘qituvchi nutqining norma va maqsadga muvofiqligi
- 43.Nutq odobi
- 44.Ovozdan foydalanish va nutq texnikasi
- 45.Ovoz, nutq va eshitishning o‘zaro munosabati
- 46.Nutq apparati
- 47.Nutqda nafasdan foydalanish
- 48.Qo‘sish va nutq, ularga xos xususiyatlar
- 49.Aktyorlik (sahna) talaffuzi
- 50.Nutq sur’ati va nutqiy to‘xtam (pauza)
- 51.Nutqiy asar
- 52.Matn
- 53.Tasvir vositalari.
- 54.Hikoya qilish
- 55.Mulohaza

MAVZU BO‘YICHA TAQDIMOTLAR

MADANIYAT





O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI



NUTQ MADANIYATI VA BOSHQA FANLAR



NOTIQLIK SAN'ATI TARIXI



QADIMGI SHARQ NOTIQLARI

QADIMGI SHARQ NOTIQLARI

**BAHOVUDDIN
VALAD**

BEHBUDIY

**JALOLIDDIN
RUMIY**

IBRAT

**XUSAYIN
KOSHIY**

FITRAT

MUYIN VOIZ

CHO'LTON

**ALISHER
NAVOIY**

**ABDULLA
AVLONIY**

QADIMGI SHARQ VOIZLARI



UYG'ONISH DAVRI NOTIQLARI



OZBEK TILI MEYURLARI

O'ZBEK TILI ME'YORLARI

O'ZBEKTILINING
DIAKRON –
TARIXIY
ME'YORI

O'ZBEKTILINING
SINXRON –
ZAMONAVIY
ME'YORI

O'ZBEK TILINING UMUMIY NORMASI

O'ZBEK TILINING XUSUSIY NORMASI

O'ZBEK ADABIY
TILI ME'YORI

DIALEKTAL
MEYOR

SO'ZLASHUV TILI
ME'YORI

IJTIMOIY
DIALEKTLAR VA
ARGOLAR ME'YORI

NOTIQLIK TURLARI

<i>Notiqlik turlari</i>	<i>Nutq ko'rinishlari</i>
I. SIYOSIY-IJTIMOIY NOTIQLIK	<ul style="list-style-type: none"> ➤ <i>Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy mavzudagi ma'ruzalar.</i> ➤ <i>Anjumanlardagi hisobotma'ruzalari.</i> ➤ <i>Siyosiy nutq.</i> ➤ <i>Diplomatik nutq.</i> ➤ <i>Siyosiy axborot.</i> ➤ <i>Harbiy vatanparvarlik nutqi.</i> ➤ <i>Tashviqotchi nutqi.</i> ➤ <i>Ilmiy-ommabop nutq.</i>
II. AKADEMIK NOTIQLIK	<ul style="list-style-type: none"> ➤ <i>O'quv yurtlari ma'ruzalari.</i> ➤ <i>Ilmiy ma'ruza.</i> ➤ <i>Ilmiy axborot.</i>
III. SUD NOTIQLIGI	<ul style="list-style-type: none"> ➤ <i>Qoralovchi nutqi.</i> ➤ <i>Jamoatchi qoralovchi nutqi.</i> ➤ <i>Oqlovchi nutqi.</i> ➤ <i>Jamoatchi-oqlovchi nutqi.</i> ➤ <i>O'z-o'zini himoya qilishnutqi.</i>
IV. IJTIMOIY-MAISHIY NOTIQLIK	<ul style="list-style-type: none"> ➤ <i>Madhiya (yubiley, maqtovnutqlari)</i> ➤ <i>Ta'ziya (motam) nutqi.</i> ➤ <i>Tabrik nutqi.</i>
V. DINIY NOTIQLIK	<ul style="list-style-type: none"> ➤ <i>Xutba.</i> ➤ <i>Va'z.</i>

NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI



NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI



NUTQ TAYYORLASH BOSQICHLARI

NUTQ TAYYORLASH BOSQICHLARI



GLOSSARIY

Va‘z (arab-pand-nasihat). – odatda jamoat o‘rtasida, masjidlarda so‘zlanadigan diniy yoki nasihatimiz nutq.

Voiz – diniy mazmunda va‘z qiluvchi, va‘z aytuvchi, va‘zon, vazgo‘y. Nasihat omuz yoki tashviqyi nutq so‘zlovchi, notiq. Voizni eshitimli qiluvchi omillardan biri hayotiy va ibratli hikoyatlar va baytu g‘azallar bilan omixta gapirishdir. Albatta, me’orni unutmaslik lozim.

Notiq - yig‘ilish, majlis, miting va shu kabilarda so‘zga chiquvchi shaxs; so‘z san’atini egallagan, so‘zamol kishi. Notiqlik san’at. Bu-isbot talab qilmaydigan, baxsga o‘rin qoldirmaydigan haqiqat.

Nutqiy etiket – so‘zlashuv (muomala) madaniyati odamlarga bildirajak munosabatlarning tashqi ko‘rinishiga xos hulq-atvor qoidalari yig‘indisi, ya‘ni barcha uchun majburiy bo‘lgan nutq faoliyatiga oid qoidalardir.

Til – o‘zgaruvchan ijtiomiy hodisa, uning me’yorlari ham adabiy barqaror bo‘lmay, tilning (adabiy til) taraqqiyoti bilan o‘zgarib boradi. Nutq madaniyati adabiy tilning me’yorlarini puxta egallah va ulardan nutqda foydalanish layoqati darajasi demakdir.

Rag‘batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan, ma‘lum o‘quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarни o‘qitish va tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta‘lim metodi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘sirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) – tarbiya maqsadiga erishish yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta‘sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

ADBIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma‘nfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi. -Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
5. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. T. 14. - Toshkent: O‘zbekiston, 2006.

ASOSIY ADABIYOTLAR

- 1.Ortiqov, A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. T., 2002.
2. P.Nosirov. O‘zbek nutq madaniyati. T., O’quv qo’llanma. 2004.
3. R.Rasulov, N.Xusanov, Q.Mo’ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O’quv qo’llanma. T., “Iqtisod-moliya”. 2010.
4. U.Saidov. Boshqaruv va notiqlik san’ati. T., “Akademiya”. 2010.
5. Yo.Tojiev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo’ldosheva. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. (ommabop qo’llanma) T., 1994.
6. Yo.Tojiev, M.Mallaboev. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. I qism. T., 2006. II qism. T., 2008.
7. N.B.Nuraliyeva. O’qituvchi nutqi va madaniyati. (O’quv-uslubiy majmua) G., 2023.
8. U.Alibekov, Sh.Mamatov. Notiqlik san’ati. (uslubiy qo’llanma). G., 2016.
9. B.Umurqulov. Poetik nutq va so’z. “O‘zbek tili va adabièti” jurnali. 1980. №1. 63-68 betlar.

10. B.Umurqulov. Poetik metafora va uning she'riy nutqdagi ahamiyati. "O'zbek tili va adabièti" jurnali. 1980. №6. 35-38 betlar.
11. M.Asomiddinova. Nutqning ikki ko'rinishi. "O'zbek tili va adabièti" jurnali. 1987. №1. 49-53 betlar.
12. A.Mamatov. O'zbek nutq madaniyati ocherklari. "O'zbek tili va adabièti" jurnali. 1990. №2. 67-70 betlar.
13. R.Mahmudov. Notiqlik san'ati tarixidan. Husayn Voiz Koshifiy. "San'at" jurnali. 1990. №3. 14-15 betlar.
14. Ma'naviyat yulduzları. (Markaziy Osièlik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashrièti. T., 1999.
15. H.Ne'matov. So'z, uning til va nutqdagi o'rni. "O'zbek tili va adabièti" jurnali. 1988. №6. 38-42 betlar.
16. R.Mahmudov. O'rta Osiè allomalarining ilmiy merosi. (O'quv qo'llanma) T., "Mumtoz so'z". 2019.
17. Tohir Malik. Umidimiz yulduzları. T., "Yangi asr avlodi". 2016.
18. Tohir Malik. Odamiylik mulki. T., "Sano-standart". 2016.
19. A.Saidov. Immanuil Kantning falsafiy-huquqiy merosi va zamonaviy yurisprudentsiya. T., 2012.
20. Vatandosh allomalarimiz. Insoniy fazilatlar haqidagi hikmatli so'zlar. T., "Yangi asr avlodi". 2016.
21. Hikmatlar shodasi. T., "O'zbekiston". 2016.
22. H.Boltaboev, M.Mahmudov. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. T., "Mumtoz so'z". 2013.
23. Tarbiya entsiklopediya. (Ota-onalar va murabbiylar uchun entsiklopediya) T., "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashrièti. 2010.
24. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati. T., G'afur G'ulom nomidagi nashrièt-matbaa ijodiy uyi. 2007.
25. R.Jumaniezov. Badiiy so'z mahorati. T., "Adolat". 2005.
26. R.Mahmudov. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati. (o'quv uslubiy majmua) G., 2015.

27. E.Begmatov. Notiqlik mahorati. T., 1979.
28. E.Begmatov va boshqalar. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. T., 1988.
29. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.
31. S.Karimov. O'zbek tili fonostistikasi. T., 2016.
32. Yo.Tojiev, R.Boboxonov. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 2017
33. N.B.Nuraliyeva "Umumiy pedagogika va psixologiya" o'quv qo'llanma. T.,2024 yil
34. N.B.Nuraliyeva "Uzluksiz malaka oshirish jarayonida boshlang'ich talim o'qituvchilarini kreativ kompetentligini rivojlantirish" o'quv qo'llanma. T.,2023 yil

ILOVALAR

BO'LAJAK RAXBARGA TAVSIYALAR

1.Nutqingiz rejasi varaqning birinchi betiga yozilsin. Rejani bir necha varaqqa yozmang, adashib ketasiz.

2.Ommabop yo'sinda so'zlanayotgan muayyan nutqingiz taxminan o'ylangan va tayyorlangan bo'lishiga erishing.

3.Tajribali notiqgina o'zining ommabop nutqini o'z tajribasiga tayangan holda ko'pchilik oldida dadil nomoyon etishi mumkinligi yodingizda bo'lsin.

4.Ommabop nutq oldidan albatta chuqur o'ylab, anglab, uni tinglaydigan auditoriya va gapiradigan gap o'zingizga bog'liq ekanini his etib olmog'ingiz shart.

5.Agar reglament belgilangan bo'lsa, nutq mazmunini qisqartiring: ko'p yomon gapirgandan ko'ra, oz va soz so'zlang.

6.Har bir nutqning boshlanishi, o'rtasi va oxiri bo'ladi. Eng muhimi, nutqingiz oxirini qanday tugatishni esda sanglang.

7.Agar sizga reglament belgilangan bo'lsa, yaxshisi nutqingiz rejasini tuzing. Rejada asosiy punktlar saqlansin: aniqlik talab qiluvchi xabarlar vaqt, statistik ma'lumotlar va iqtiboslar (sitata), murakkab yoki kam tanish bo'lgan so'zlar terminlar va hakozolar.

8.Siz notiqsiz, birinchi jumlani va nutqning xulosasini o'ylashga majbursiz, qolgan gaplarni o'z yo'nalishida bog'lab boraverishingiz mumkin. Agarda juda o'zingizga ishonsangiz, chiqish qilish oldidan rejani unitishingiz, undan foydalanmasdan tashlab yuborishingiz mumkin. U holatda nutqingiz yanada go'zal chiqadi.

9.Rasmiy hujjatlarni, notanish matnlarni o'qib berishingiz mumkin. Nutqning boshqa turlari esa o'qiganlaringizni mustahkamlaydi. Ya'ni, yuqorida ko'rsatilgan matnlardan tashqari qo'shimcha nutq matnini yozish shart emas. Chunki yozgan matnlaringiz gapirishingizni qiyinlashtiradi. Tajribasiz notiq yozilganlardan nimanidir tushirib qoldirishdan qo'rqib, battar xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

10.Ommaviy auditoriyada chiqish qilayotgan notiq o'ziga ishongan, jismoniy ko'rinishi dadil, jasur va vazmin hamda tashqi ko'rinishi bilan jozibali

bo'lmosg'i lozim. Shuning uchun omma oldida chiqish qilishdan oldin tashqi qiyofangizni go'zal bo'lishiga intiling.

11.Ko'pchilik, jumladan, tajribali notiqlar ham gapisirish oldidan hayajonlanadi. Bu hayajonlanish tabiiy va foydali. Agar hayajonlanish bo'lmasa, demak, notiq o'z nutqiga mas'uliyatsiz, auditoriyaga e'tiborsiz.

12.Juda qattiq hayajonlanish zarazli. Undan qochish kerak. Chiqish qilish oldidan yaxshi narsalarni o'ylab nutq mazmunidan o'zingizni chalg'iting. Auditoriya haqida vahima qilmang. Agar buning iloji bo'lmasa yoki chalg'ish yordam bermasa, qo'llaringizni elka kengligida qo'yib, barmoqlaringizni buking. So'ngra sakrab, bir qancha harakatlar qilib, orqaga chalqaying. Agar buni eplay olmasangiz oyoqlaringiz barmoqlarini kuchli harakat qildiring.

13.Nutq oldidan va gapisayotgan paytingizda suv ichmang – suv yuragingizga keraksiz yuk bo'ladi va ovozingizni bo'g'adi. Chiqish qilish oldidan keraksiz gaplardan gaplashmang.

14.Gapirig vaqt kelganda tashqi ko'riningizni to'g'rilib, dadil qadamlar bilan nutq so'zlash lozim bo'lgan joyni egallang.

15.Ustingizni kiyim-kechaklaringiz keng yoki o'rta tor bo'lmasin, poyafzalingiz oyoqlaringizni siqib qo'ymasin, galstugingiz bo'yningizni bo'g'ib qo'ymasin. Liboslaringizdagagi kenglik va torlik erkin gapisirizingizga va o'zingizni erkin tutishingizga xalaqt beradi.

16.O'zingizni to'g'ri tuting, elkangizni biroz buring. Iyagingizni biroz ko'tarib boshingizni to'g'ri tuting. Oyoqlaringiz elka kengligida bo'lsin. Qo'llaringizni qorin ustida siqib ushlamang, buklamang, barmoqlaringizni chalkashtirmang, qo'llarni orqaga qilmang, cho'ntakka tiqmang, oyoqlaringizni chalishtirmang.

17.Notiq qotib turmasligi, qo'llarini erkin tutishi, gapisayotgan paytda qo'llarini silkitmasligi, juda qotirib gavdaga yopishtirib ham turmasligi lozim. Gapisirish tempini, ovozini mazmunga qarab o'zgartirib turishi kerak. Nutq yumshoq va ishonchli bo'lishi, lekin juda cho'zilib ketmasligi kerak.

18.Gapisayotganda og'izni me'yorida ochib gapisirish, me'yorida nafas olish va chiqarish lozim. Ovozni auditorianing katta-kichikligiga qarab moslash, o'ta baland ovozda qichqirib gapirmaslik kerak.

19.Ovozni yuqoriga va pastga yo'naltirmang, tinglovchilarga to'g'ri yo'naltiring.

20.Imkoni boricha mikrofondan foydalanmang: mikrofon auditoriyadagilar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishga xalaqt beradi.

21.Auditoriyaga tabassum bilan yuzlaning, ular diqqat bilan sizga boqmoqda. Ularga kuchli nazar va xush kayfiyatda ko'rinasiz.

22.Kichik jimlik qiling. Agar shovqin boshlansa, jimlikni cho'zing va birdan auditoriyaga qattiq nazar tashlang.

23.Nutqingizni yumshoq va engil qilib boshlang. Kuchli zarb bilan boshlameng, bo'lmasa, nutqingizni yakunlashga kuchingiz etmay qoladi, tinglovchilarning ham toqati toq bo'ladi.

24.Gapirayotganingizda unutmang, sizni eshitishni istagan odamlarga murojaat qilyapsiz, nimani yozsangiz ham sig'diraveradigan qog'ozga emas.

25.O'zingizni tutib ishonch bilan gapirsangiz sizni ham zavq bilan tinglashadi.

26.Temp oralig'ini saqlagan holda baland ovozda gapiring. Keng va muhim ma'lumotni qisqa vaqtga sig'dirishga urinmang. Shoshib gapirgan notiq ma'lumot berishdan qo'rjadi va minbardan tushirib yuborishlarini kutadi.

27.Gapirayotgan vaqtingizda auditoriyani kuzating. Tinglovchilarning diqqati sizga qaratilgan. Biroq nutqingiz davomida bir shaxsga hadeb murojaat qilavermang, chunki har bir tinglovchi qaysi nuqtaga qarayotganingizni, kimga qarab gapirayotganingizni, kuzatib turibdi.

28.Og'zaki ommabop nutqingiz ko'pchilikdan kuchli: notiq ko'pchilikning diqqatini tortadi, fikrini qo'zg'aydi. Kuchli auditoriyani to'lqinlantiradi.

29.Katta auditoriyadan qo'rwmang, kichik auditoriyadan qo'rqing. Auditoriya qancha katta bo'lsa, ishontirish shuncha oson bo'ladi.

30.Ortiqcha gapirmang notiq nimaniki gapisra, omma shuni gapiradi, nimani o'ylasa, shuni o'laydi. Shuning uchun notiq nima gapirishini hamisha o'ylab gapiradi. Lekin u nimani o'ylasa hammasini gapirolmaydi. Gapisib ulgurmeydi.

31.Insonsevar bo'ling – iloji boricha qisqa gapiring, nutqning ommabop jaranglashi tinglovchilarning butun borlig'iga ta'sir qiladi. Ayni damda tinglovchilar aytilayotgan narsalarning o'zлari uchun eng kerakli ekanligini anglaydi.

32.Iloji boricha adabiy tilda gapirishga odatlaning, chet el so'zlaridan imkon darajasida kamroq foydalanishga harakat qiling.

33.Ba'zi notiqlar bir so'zni qayta-qayta takrorlaydilar. Siz bunday yaramas odatdan qoching.

34.Nutqingizni so'z bilan emas, jumla bilan bezashga odatlaning. Jumlalar bir-biriga mantiqan bog'lansin. Boshlagan jumlangizni yakuniga etkazing. Gapirayotgan jumlalaringizning uzun-qisqaligini auditoriya va xonaning kengligiga qarab tuzing. Auditoriya qancha katta binoda bo'lsa, gapirayotgan jumlalaringizning o'rtacha uzunligi shuncha qisqa bo'lishi kerak.

35.Nutqda so'z va jimlikning (pauza) o'rni galma-galdan almashinib turishi kerak. Jim turishda auditorianing fikrlaringizga berayotgan bohosini anglaysiz. Ammo to'g'ri kelgan joyda tinimsiz jimlik ham yarashmaydi. Jimlik auditoriyadan javob kutayotgan paytingizda kerak.

36.Ommabop nutq ohangga bog'liq: ohang jumlalarga a'zo bo'lган so'zga sayqal beradi. Nutq mazmuniga notiqning munosabatini belgilovchi ohang tabiiy va ishonchli bo'lishi kerak. Hech qachon jumlalar ohriga surmang.

37.Notiq ommabop nutq so'zlayotganda o'zini bulbulday his etmasligi kerak. Siz odamlarning foydasiga gapiryapsiz, o'zingizni ko'z-ko'z qilish uchun emas. Shuning uchun hamma vaqt nutqingiz ustida ishlang, uning auditoriyaga ta'sirini kuzating. Odamlarning ma'lum guruhi sizni qo'llash-qo'llamasligini aniqlang sizga e'tiborlimi yoki parishonxotirmi, qiziqib eshityaptimi yoki ahamiyatsiz, do'stonami yoki zo'rma-zo'raki ekanini kuzating. Notiq gapirayotganda auditoriyada nima bo'layotganini ko'rib turishi va o'z vaqtida auditoriya holatini izga solib turish kerak.

38.Agar auditoriyada shovqin ko'tarilsa, ovozingizni balandlatmasdan, aksincha, pasaytiring yoki jimgina auditoriyaga diqqat bilan varang.

39.Zaldagi qochiriq gaplardan qo'rwmang. Nutq so'zlayotganingizda diskussiyaga yo'l qo'y mang. Mo'ljaldagi gaplaringizning hammasini aytishingiz shart.

40.Nutq davomidami yoki undan keyinmi sizga beriladigan savollarga javobni aniq, tushunarli, qisqa qiling, to'liq javob berish shart emas.

41.Har qanday nutqning yakuni dadil va mustahkam bo'lsin. Yakunlovchi ohangda ovozni ko'tarib kerakli gaplarning hammasini aytganingizni sezdiring, auditorianing diqqat-e'tibori uchun minnatdorchilik bildirishni unutmang.

OTA-ONALARING FARZANDLAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI QOIDALAR

1. Farzandlaringizning savollariga imkon qadar sabr-toqat bilan, haqqoniy va to'g'ri javob bering.
2. Uning jiddiy savollarini jiddiy qabul qiling.
3. Uning sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishiga alohida xona yoki burchak ajratib bering.
4. Unga qandaydir yutuqlarga erishgani uchun emas, qanday bo'lsa, shundayligicha yaxshi ko'rishingizni anglating.
5. Unga o'z rejalarini tuzishiga ko'maklashing.
6. Unga mehnati natijalarini yanada yaxshilashga yordam bering;
7. Qo'ni-qo'shni, qarindosh urug'larning farzandlari bilan yaxshi muloqat o'rnatishiga ko'maklashing.
8. Oqilona axloq qoidalarini ishlab chiqib, farzandingizning unga amal qilishiga harakat qiling.
9. Hech qachon boshqa bolalardan ko'ra yomonroqsan, kuchsizroqsan, kamroq bilasan va h.k. deb aytmang.
10. Uni tahqirlab jazolamang.
11. Sevimli mashg'uloti uchun kerakli kitob va boshqa ashyolarni olib bering.
12. Uni erkin fikrlashga o'rgating.
13. Uni muntazam ravishda kitob o'qishga undang.
14. Uni kichiklikdan kitobga oshno qilib tarbiyalang.
15. Uni fantaziya qilish va turli tarixiy voqeа-hodisalarни o'ylab topishga qiziqtiring.
16. Farzandingiz bilan har haftada yakkama-yakka suhbatlashish uchun albatta vaqt toping.
17. Oilaviy reja va sayohatlarda ishtirok etishiga imkon bering.
18. Uni xatolari uchun koyib o'tirmang, balki xatolarni bartaraf qilishga undang.

19. She'r, hikoya yoki qo'shiq yodlagani, odob-axloqi, o'qishdagi yuqori natijalari uchun maqtab turing.
20. Turli yoshdagi katta kishilar bilan erkin muloqotda bo'lishga o'rgating.
21. Besabab va shunchaki maqtashdan saqlaning.
22. Unga nisbatan doimo samimiy bo'ling.
23. Bolangiz o'zicha qaror chiqarishiga imkon bering.
24. Uning shaxs bo'lib shakllanishiga ko'maklashing.
25. Unga foydali teleko'rsatuvlarni ko'rishga imkon bering.
26. Farzandingizning sog'lom fikrlashiga ishoning hamda shunga undang.
27. Garchi natijasi ko'ngildagidek bo'lmasligini bilsangiz ham uning mustaqil ishlashiga imkon yarating.
28. Bolangizning jamoat ishlarida faol ishtirok etishini, to'garak mashg'ulotlariga qiziqishini oshiring.
29. Farzandingizni o'rinsiz tanqid qilib, o'z-o'ziga bo'lgan hurmatini pasaytirmang, aksincha uning bilimlaridan foydalanib, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini orttiring.
30. Bolangizning o'zi qiziqqan faoliyat turi bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlang.
31. Farzandingizning sihat-salomatligini nazorat qiling.
32. Farzandlaringizning yo'l-harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishlarini doimo uqtirib boring.
33. Farzandlaringizning kunlik ish rejimini birgalikda ishlab chiqib, uning amalda bajarilishini ta'minlang.
34. Oilaviy kutubxonangizning bo'lishini ta'minlang. Bu o'qilgan kitoblari haqida suhbatlar uyushtiring (Eng qiziqarli voqealardan bir nechtasini hikoya qiling).
35. Farzandlaringizning do'st-dugonalari haqida suhbatlar qiling.
36. O'g'illaringizning duradgorlik, dehqonchilik, kompyuter savodxonligi va chorvachilik; qizlarigizning esa pazandalik, tikuvchilik, gullar parvarishi ishlari bilan shug'ullanishiga ko'maklashing.

37. O'g'il-qizlaringizga ibratli hikoyat, rivoyatlarni o'qib borishlarini tavsiya qiling.
38. Farzandlaringizning tug'ilgan kunlariga o'quv qurollari, badiiy adabiyotlar sovg'a qiling.
39. Farzandlaringizning o'zi va o'zgalar uchun naf beradigan kasblarning biror turini tanlashlariga jiddiy ahamiyat qarating.
40. Oilada iqtisodiy, ekologik, go'zallik, jismoniy va boshqa tarbiyaning turlariga alohida ahamiyat qarating.
41. Farzandlaringizga elektr, gaz asboblaridan oqilona foydalanish zarurligini, tushunmagan holda foydalanmasliklarini uqtiring.
42. Ularning sinalmagan kishilar bilan muloqot qilmasligini, ruxsatsiz xavzalarda cho'milmasliklarini qat'iy ravishda nazorat qiling.
43. Spirtli ichimliklar va tamaki maxsulotlaridan iste'mol qilishni qat'iy taqiqlang hamda tushuntirish ishlarini olib boring.
44. Ularga jussalariga nisbatan og'ir yuk ko'tarmasligini, iqlimga qarab kiyimlar kiyishlarini uqtiring hamda duradgorlik asboblaridan foydalanishda ehtiyyotkor bo'lishlarini tushuntiring.

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
<i>Абстрактный</i>	
Abstract	
Kirish	5
Входить	
Enter	
I.MA'RUZA MAVZULARI BO'YICHA O'QUV MATERIALI	6
<i>Изучающий материал по темам лекций</i>	
Studying material on lecture topics	
II.AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI	103
<i>Предметы практической подготовки</i>	
Practical training subjects	
III.TOPSHIRIQLAR	113
<i>Задания</i>	
Tasks	
IV.MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	116
<i>Предметы самостоятельного изучения</i>	
Independent study subjects	
V.MAVZU BO'YICHA TARQATMALAR	119
Предметное распределение	
Subject distribution	
GLOSSARY	131
ГЛОССАРИЙ	
GLOSSARY	
VII. ADBIYOTLAR RO'YXATI	135
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ	
BIBLIOGRAPHY	
ILOVALAR	136

**ISLIKOV SAYID XALILOVICH
NURALIYEVA NARGIZA BOZORBOYEVNA**

O‘QITUVCHI NUTQ MADANIYATI

**Oliy ta‘lim universitetlari, sirtqi ta‘lim shaklidagi
5110100-Matematika va informatika ta‘lim yo‘nalishi talabalari
uchun mo‘ljallangan**

O‘QUV QO‘LLANMA

Nashriyot muharriri: Mohira YULDASHEVA

Texnik muharrir: Baxtiyor YAKUBOV

Sahifalovchi-dizayner: Shohida MUQUMOVA

Nashriyot litsenziysi № 880921, 14.08.2020 y.

Nashriyotga topshirildi 18.03.2024 yil.

Chop etishga ruxsat berildi 20.03.2024 yil.

Bichimi 108x84/16. Sharqli bosma tabog‘i 9,0.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 149

120100 Guliston sh.

O‘zbekiston ko‘chasi, 8-uy. Tel.: (0367) 227-63-09

“Sirdaryo Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Sirdaryo shahri, O‘zbekiston ko‘chasi, 92-uy

